Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg'ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabanning
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini	1.1 Fitopatologiya fanining predmeti. Mavzu bo'yicha ma'lumotlar beriladi. O`quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo'yicha dastlabki

tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashg`ulotiga kirish (10min)	to`ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi.	tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. Mavzu bo`yicha asosiy ma`lumotlar beriladi. Ma`ruza davomida mavzu bo`yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo`yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to`ldirish taklif etiladi, va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi.	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma`lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Fitopatologiya fanining maqsadi va vazifasi va rivojlanish tarixi

Qishloq xo`jaligini isloh qilishning ustivor vazifalari Respublika iqtisodiy mustaqilligini ta`minlash va qishloq xo`jaligining barcha tarmoqlarida islohotni bosqichma - bosqich amalga oshirib borishning muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqmokka.

Iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish dasturi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining X sessiyasidagi ma`ruzasida qayd qilinganidek, qishloq xo`jaligida barcha agrotexnika va agrokimyo chora tadbirlarini ilm - fan tavsiyanomalariga va ilg`or tajribalarga oid o`tkazish, begona o`tlarga, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash choralarini joriy qilish muammolarini echishda mutlaqo yangicha yondoshuv bo`lishi kerakligini taqozo qiladi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va Xukumati tomonidan qabul qilingan «Fermer xo`jaligi to`g`risida», «Dexqon xo`jaligi to`g`risida», «Qishloq xo`jaligi kooperativi to`g`risida» konunlar va 1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo`jaligidagi iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish Dasturida qishloq xo`jaligida ko`p tarmoqli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birga, uni ilmiy asosda tashkil etish bilan bog`lik bo`lgan katta imkoniyatlarni ochib berilgan.

Qabul qilingan qonun va qarorlarda o`simliklarning hosildorligini ko`tarish, kasalga chidamli navlarni yaratish, maxsulot sifatini yaxshilash asosida jaxon andozalari talabi darajasiga erishish vazifasi belgilab berilgan.

Respublika iqtisodiy istiqboliga qishloq xo`jaligini intensiv rivojlantirish asosida, axolini oziq - ovqat maxsulotlari bilan to`liq ta`minlash asosida erishish mumkin. Bu muammolarni muvaffaqiyatli xal qilishda qishloq xo`jaligi ni mexanizatsiyalashtirish, sug`orish tarmoqlarini yaxshilash, o`simliklarni xar xil zamburug`lar keltirib chiqaradigan kasalliklardan, xashoratlardan va begona o`tlardan ximoya qilish muhim o`rin tutadi. Bu ishlarning to`g`ri tashkil qilinishi va uning dexqon-fermer xo`jaliklarida qo`llanilishi, minglab tsentner miqdoridagi qo`shimcha a`lo sifatli hosil olishga imkon, hamda hosilning bexuda nobud bo`lishiga barxam beradi.

O`simlik kasalliklari Respublikamiz sharoitida ekologik sharoitga bog`lik ravishda turli muddatlarda turlicha zarar keltirmokka. Ba`zan maxsulot sifati, hosil miqdori keskin kamayib ketmokka.

Xozirgi kunda o`simlikni ximoya qilish masalasi eng dolzarb masala hisoblanadi. Har bir fermer, qishloq xo`jalik mutaxasisi xozirgi zamon talabi darajasida o`simliklarning kasalliklarini aniqlay bilishi, unga qarshi kurash olib borishi va hosilni saqlab qolishning yo`llarini bilishi zarur. Shuning uchun fitopatologiya fani o`simliklarni ximoya qilish mutaxassisligidan tashqari barcha agronomlik mutaxassisliklari uchun zarur fan hisoblanadi.

Fitopatologiya fani o`simlik kasalliklari to`g`risidagi fan bo`lib kasal o`simliklarda ro`y beradigan patologik jarayonni sodir bo`lishi, uning kelib chiqish sabablari, hosil bo`lish qonuniyatlari, tarqalishi, kasallikni oldindan aytish, zarari va sabablarini navlarning chidamlilik darajasini, kasallikni oldini olish yo`llarini o`rganadi.

Fitopatologiya 4 ta bo`limga bo`linadi.

1. Diagnostika -kasallikning tashqi belgilarni aniqlash.
2. Etologiya - kasallik sabablarini aniqlash.
3. Profilaktika - kasallikni oldini olish.
4. Terapiya - kasallikni davolash.

Fitopatologiya fani quyidagi fanlar bilan bog`liq:

Mikologiya, Qishloq xo`jaligi bakteriologiyasi, Fitovirusologiya, Fitonema-todologiya, Fitopatogenez, Patoanatomya va fiziologiya, Fitoimmunologiya, Fitoprofilaktika, Fitoterapiya

Fitopatologiya fani quyidagi 2 ta turga bo`linadi.

1. Umumiy fitopatologiya
2. Xususiy yoki qishloq xo`jalik fitopatologiyasi

Umumiy fitopatologiya o`simliklar kasalliklarning kelib chiqishi, tarqalishi kasallik qo`zg`atuvchilari va ularni himoya qilish usullarini o`rganadi.

Xususiy fitopatologiya ma`lum turga mansub o`simlikda kasallik belgilarining namoyon bo`lishi, kasallik qo`zg`atuvchisi va ularga qarshi kurash choralarini o`rganadi.

Fitopatologiya fanining vazifalari: Xar qanday o`simliklarning hosildorligini oshirish bilan birga uning kasalliklariga chidamliligini ham oshirish kerak.

O`simliklarni ximoya qilishning asosini chidamli navlarni yaratish, yuksak agrotexnik tadbirlarni qo`llash va kasallikning tarqalishini oldini olish kabi tadbirlari tashkil qiladi.

Respublikamizda fitopatologiya fani belgilangan vazifalarni amalga oshiruvchi O`simliklarni ximoya qilish ilmiy tekshirish instituti, Seleksiyasi va urug`chilik instituti, O`ZRFA Botanika instituti va Botanika bog`idagi Mikologiya laboratoriya olimlari faoliyat ko`rsatmoqda.

Olimlar oldidagi asosiy vazifa o`simliklarni ximoya qilishning texnik va iqtisodiy samaradorligini oshirishdir. Buning uchun atrof muhit va inson salomatligi uchun bezarar bo`lgan ximiyaviy kurash va biologik kurash choralarini ishlab chiqish, xamda qo`llashdan iboratdir.

Masalan, bug`doy urug`ini ekishdan oldin fungitsidlar bilan ishlash natijasida hosildorlik 15-25 %, kartoshka tuganagini tsinab fungitsidi bilan ishlov berilganda 1 ga erdan 135 ts yoki 15 % dan ortiqcha hosil olingan. Qand lavlagi urug`ini dorilab ekish tufayli hosildorlik 15-20 ts ga ortgan. Shunday qilib fitopatologiya fanining asosiy vazifasi o`simliklar hosilini ortishi uchun uning nobudgarchiligiga yul qo`ymaslikdan iboratdir.

Kasallik to`g`risida tushuncha. Kasallik deganda patogen yoki noqulay sharoit tufayli o`simlikdagi normal fiziologik jarayonlarning buzilishiga aytiladi.

Fiziologik jarayonlarning buzilishi: fotosintez, ferment jarayoni, xujayraning o`tkazuvchanligi, osmotik bosimi, nafas olishi, uglevod yoki oqsil sintezi, suv balansi, va o`stirish moddalarning ta`siri natijasida rivojlanishning buzilishida namoyon bo`ladi. Fiziologik jarayonning buzilishi o`z navbatida o`simlikning anatomo-morfologik hususiyatlarning o`zgarishiga, o`sish va rivojlanishiga ta`sir qiladi.

Patogen mikroorganizmlarning salbiy ta`siri tufayli o`simlik xujayralar shakli kattalashadi, xujayralar miqdori ortishi, xujayralar shakli kichiklashishi, nekroz xujayralar hosil bo`lishi va xujayralar po`stining bo`shashib ketishiga sabab bo`ladi. O`simlik organlaridagi anatomo-morfologik hususiyatlarning o`zgarishi ular yuzida dog`lanishning hosil bo`lishi, chirish, o`smalarni hosil qilinishi, shakl o`zgarishiga sabab bo`ladi. O`simliklardagi fiziologik va

morfologik o'zgarishlar o'simlik hosildorligiga ta'sir qilib, miqdorini kamaytirib, sifatini buzilishiga olib keladi.

2. O'simlik kasalliklar haqida tushuncha.

O'simlik kasalliklarining klassifikatsiyasi. Xar qanday o'simliklardagi kasallikni o'rganishda unga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda kasallik sabablarini to'g'ri bilish maqsadga muvofiqdir. Kasalliklarni klassifikatsiya qilishda uning asosiy sabablarini aniq belgilab olish kerak. O'simliklarning kasalliklarni quyidagi ikkita guruxga bo'lish mumkin.

- *Yuqumli kasalliklar*
- *Yuqumsiz kasalliklar*

Yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchilari zamburug'lar, bakteriyalar, aktinomitsetlar, viruslar, va gullik parazitlar bo'lishi mumkin. Yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar turli vositalar yordamida bir o'simlikdan ikkinchisiga tarqalish hususiyatiga ega bo'lib qishloq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar etkazadi. Yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizm turiga bog'lik ravishda ularni nomlanadi.

O'simlik kasalliklari qadimdan ma'lum. Ammo odamlar kasallik qo'zg'atuvchilar haqida yulishmagan. Hatto bu davrlarda kasalliklarga qarshi kurash choralarini ham olib borishgan. Bunday Amaliy kurash choralarini Demokrit (eramizgacha 460 yilda) asarlarida kuzatish mumkin. Jumladan . issop o'tining sharbati (soki) Bilan g'alla ekinlarini urug'larini dorilashgan.

1660 yil Frantsiyada barbaris butasini yo'q qilish to'g'risida qonun chiqarilgan. Chunki, shu o'simlik yaqinidagi bug'doy zang Bilan kuchli zararlangan. Bu o'simlikni zang kasalligini rivojlanishida oraliq xo'jayin ekanligi 1883 yilda ma'lum bo'lgan.

XVI asrda zamburug'lar haqida ma'lumotlar paydo bo'la boshladi. Nemis miklogoi va fitopatologii de Bari (1831-1888) birinchi bo'lib zamuburug'lar kasalliklarning sababchisi ekanligini ko'rsatib berdi. U kartoshkada fitoforoza kasalligini aniqlab unga qarshi kurash choralarini ham taklif etdi.

Keyinchalik bakteriyalar ham o'simliklarda kasallik qo'zg'atishi mumkinligi ma'lum bo'ldi. Bakteriyalar tufayli o'simliklarning kasallanishini birinchi bo'lib M.S.Varonin (1867) taklif qildi. 1892 yilda D.I.Ivanovskiy (1864-1920) o'simliklarda kasallik qo'zg'atuvchilarning yangi turini viruslarni kashf etdi.

Fitopatologiyaga doir tadqiqotlar rivojlana bordi va 1901 yil Peterburgda Rossiyada birinchi miklogiya va fitopatologiya stantsiyasi tashkil etildi. U erda juda ko'plab olimlar tadqiqot ishlari olib borishdi. Fitopatologiya bo'yicha birinchi darslik "Patologiya rasteniy" S.I. Rostovtsev muallifligida 4 marta (1898, 1899, 1908, 1923) nashrdan chiqdi.

O'zbekistonda ham fitopatologiya fanining rivojlanishida ko'plab olimlarimizning xissasi bor. Jumladan, Zapromyotov, Xakimov, Sattorova, SHERALIEVA A. va boshqalar.

3. O'simliklarning yuqumli kasalliklari haqida tushuncha. Yuqumli kasalliklarni kelib chiqish sabablari.

Yuqumli kasalliklar deb o'simlikdan o'simlikka yuqish hususiyatiga ega bo'lgan kasalliklarga aytiladi. Yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchilari: zamburug'lar, bakteriyalar, viruslar, aktinomitsetlar, mikoplazmalar va gullik parazitlar bo'lishi mumkin. Yuqumli kasalliklarning kelib chiqishida o'simlik va parazit orasidagi asosiy munosabat- oziqlanishning parazit (tekinxo'r) lik yuli bilan amalga oshishi asosida bo'ladi.

O'simliklardagi yuqumsiz kasalliklar quyidagi faktorlar ta'sirida vujudga keladi: noqulay tuproq sharoiti; noqulay meteorologik sharoit; o'simlik to'qimalarining mexanik parchalanishi; havodagi zararli moddalar; rengen nurlar ta'siri.

Tuproqda uchraydigan patogen mikroorganizmlar saprofit organizmlardan o'simliklarga ta'sir etish hususiyatiga qarab farq qiladi. Saprofit mikroorganizmlar o'zi hayot kechirayotgan xujayra hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va uni rivojlanishini to'xtatadi. Patogen mikroorganizmlar esa xujayra rivojlanishini to'xtatib qo'yadi, uning xisobiga hayot kechirib uni xalok qiladi yoki

boshqa patologik jarayonni keltirib chiqaradi. Tabiatda uchraydigan mikroorganizmlar hayot kechirish usuliga qarab ularni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin:

- *Xaqiqiy parazitlar;*
- *Shartli saprofitlar;*
- *Fakultativ parazitlar.*

Ko'rsatilgan hususiyatlarning namoyon bo'lishi zamburug'larning patogenlik, virulentlik va agressivlik hususiyatlari bilan bog'liqdir.

Patogenlik-mikroorganizmlarning kasallik keltirib chiqarish hususiyatidir. Uning zarari va ta'sir tezligi patogenlik darajasi va hususiyatiga qarab ortib boradi.

Virulentlik-mikroorganizmlarning ma'lum turdagi yoki navdagi o'simlikni kasallantirish hususiyatiga aytiladi. Masalan, g'o'za o'simligida vilt kasalligini keltirib chiqaradigan V.dahlia zamburug'i faqat o'rta tolali g'o'za navlarini kasallantiradi. Bu zamburug' g'o'zaning ingichka tolali navlarini kasallantirmaydi.

Agressivlik (tajovuskorlik) - patogenning kasallikka chidamli bo'lmagan o'simlik organlarida ko'payish hususiyati nazarda tutiladi. Agressiv turlar uzoq masofaga tarqalish, noqulay sharoitga moslanish hususiyatiga ega bo'ladi.

Kasallik qo'zg'atuvchisining o'simlikka kirib kelishi, tarqalishi va kasallik belgilarning namoyon bo'lishi patologik jarayon deyiladi. Patologik jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshadi: o'simlikka kasallikning yuqishi, patogenning inkubatsiya davrini o'tishi, kasallikni davom etishi, kasallik belgilarining namoyon bo'lishi va tarqalishi. Kasallanish (zarajenie) deb infeksiyaning kasalga beriluvchan navdagi o'simlikka kirib kelishi, sporasining o'sib, uning xujayrasi ichida rivojlanib, o'simlikning himoya qilish hususiyatini g'olib chiqishga aytiladi. Kasallanish jarayonini mexanik zararlanishdan farq qila bilish zarur. Kasallanish jarayonini tasavvur qilish uchun qattiq qora kuya zamburug'ining bug'doy urug'ini kasallantirish mexanizmini qurib chiqamiz. ~ alla ekin dalalaridagi qora kuya zamburug'ining spora qopchalari yorilib, spora urug' yuzasiga tushadi. Lekin, bu kasallanish jarayoni hisoblanmaydi. Tuproqqa ekilgan urug' unish jarayonida tuproqdagi qora kuya zamburug'i sporasi ham unib hosil qilgan mitseliy o'simlik o'simtasi ichiga kirib u bilan birga rivojlana boshlaydi. Bu jarayonga kasallanish deyiladi. O'simlikning kasallanishi uchun turli ekologik sharoit zarurdir. Ko'pchilik zamburug'lar 100% namlikda rivojlansa, virus kasalliklarini qo'zg'atuvchilari uchun 30-60 % namlik miqdori etarli hisoblanadi.

Kasallikning kelib chiqishida kasallikni tezlashtiruvchi yoki chegaralovchi faktorlar ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, ayrim o'simliklar xujayrasidan biologik aktiv moddalar yoki antibiotiklar ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek o'simlikning navi, yoshi ham kasallik miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. YOrug'lik zamburug'lar tarqalishiga ta'sir ko'rsatmasada, bakteriyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kislorodning mavjudligi barcha mikroorganizmlar uchun zarur hisoblanadi. Kislorod miqdori etarli bo'lgan sharoitda ular tez rivojlanadi.

Kasallik qo'zg'atuvchisining o'simlikka kirib kelishi. Ko'pchilik patogen mikroorganizmlar o'simliklardagi tabiiy yo'llar -ustitsalar, chechevichkalar orqali kirib keladi. Masalan, mevali o'simliklarning soxta un shudring zamburug'i, karamning bakteriozi kasalligini qo'zg'atuvchilari asosan ustitsalar orqali kirib keladi. Fakultativ parazitlar o'simlikning mexanik zararlangan joylardan kirib keladi.

Patogenlik mexanizmining kelib chiqishida -ko'pchilik mikroorganizmlar hosil qilgan fermentlar, toksinlar biologik aktiv moddalar ham muhim rol o'ynaydi. Fermentlardan - tsellyulaza, pektinaza, ksilanaza patogen mikroorganizmlarning o'simlik xujayrasiga kirib kelishida va o'simlik qoldiqlarini tuproqda parchalashda asosiy vosita hisoblanadi.

Fitotoksinlar xujayrani xalok bo'lishiga sabab bo'ladi va kasallikning ichki, tashki belgilarining hosil qiladi. Kasallik qo'zgatuvchilarning o'simlikda yashash joyiga qarab tashki parazitlar, ichki parazitlarga bo'linadi. Masalan, g'o'zaning vilt kasalligini qo'zg'atuvchisi o'simlik poyasidagi to'qimalarda, mevali o'simliklarning un shudring, galla ekinlarining zang kasalliklari o'simlik bargining ustida hayot kechiradi. Kasallik qo'zgatuvchisining inkubatsion davri -ko'pgina o'simliklarda kasallik qo'zgatuvchisi uni kasallantirilgandan keyin ma'lum davrdan boshlab

belgilari namoyon qiladi. Inkubatsion davr deb - kasallik qo'zg'atuvchisining o'simlikka kirib kelgandan boshlab dastlabki belgilarni hosil qilgan davrgacha o'tgan muddatga aytiladi. Inkubatsiya davri bir hafta, oylab, ba'zan undan ko'p muddatda bo'lishi mumkin. Inkubatsiya davrining uzun - qisqaligi patogenning agressivlik darajasiga, o'simlikning chidamlilik hususiyatiga bog'liqdir.

Yuqumli kasalliklarni namoyon bo'lishi uni keltirib chiqaruvchi patogenga bog'liqdir. Natijada o'simlikda o'ziga xos tashki va ichki belgilar ko'zga tashlanadi.

So'lish kasalligi - o'simlik ildizidagi, poyasidagi patogen mikroorganizmning xujayra devorini parchalab, o'tkazuvchi naylarni tusib quyishi natijalarida kutarilish oqimidagi suv miqdori bargda parlanayotgan suv miqdoridan kamayib ketadi. Patogenning ta'sirida poyada nekroz hosil bo'lsa, toksinlar ta'sirida bargda qizgish dog'larni hosil qiladi.

Dog'lanish kasalligi bargda, mevada hosil bo'ladi. Masalan, bodiring bargining burchakli dog'lanishi, olmaning qo'ng'ir dog'lanishi, nokning oq dog'lanishi, kulupnayning oq va qo'ng'ir dog'lanishi.

Pufaklanish kasalligi barg va mevalarda ko'rinadi. Masalan, un shudring kasalligi shaftoli, olmada, kul tushish uzumda va karamda kuzatiladi. Pufaklarni hosil bo'lishida zamburug' mitseliysi va hosil qilgan sporalar yig'indisi asosiy rol o'ynaydi.

Chirish mevalarda, poliz ekinlari va sabzavot ekinlarida kuzatiladi. U yumshoq va qattiq, quruq va ho'l chirish bo'lishi mumkin. Ho'l chirishga misol qilib, xujayra po'sti parchalanishi natijasida uning tsitoplazmasi ham parchalab ketadi. Masalan, kartoshkaning bakterial chirishi.

Quruq chirishga kartoshkaning fuzarioz chirishi, yog'ochlarning turtoviklar ta'sirida chirish misol bo'ladi.

Shakl o'zgarish natijasida kasallangan o'simlik qismi g'adir-budir bo'lib, barglar ipsimon shaklga kiradi, gullarning, mevalarning shakli o'zgarib ketadi.

Yostiqlar hosil bo'lishi zang zamburug'i sproralarining yigilishidan o'ziga xos bo'rtiqlar hosil bo'ladi. Bo'rtiqlar epidermisning tagida hosil bo'lib uning ichida ko'p miqdorda zamburug' sprorasi joylashadi. Kasallangan to'qimalarning xalok bo'lishi - g'alla ekinlarining qattiq va chang qora kuya kasalligi bilan kasallanishidan namoyon bo'ladi. Mevalardagi yaralar (qovun, tarvuz, loviya, uzumda) antroknos kasalligi tufayli hosil bo'ladi.

Xloroz - kasallik qo'zg'atuvchisining salbiy tasiri natijasida bargdagi xloroplastlar miqdorining kamayib ketishi natijasida barg zararlanib sarg'ayib qoladi. Bunda kasallik viruslar yoki mikoplazmalar vositasida, ba'zan temir, marganets etishmasligidan kelib chiqadi. Bunday belgilarni aniqlashda ularning topovutini bilish muhim ahamiyatga ega.

Har qanday infeksiyon kasallikning inkubatsion davri kasallik belgilarining namoyon bo'lishi bilan tugallanadi. Kasallikni namoyon bo'lishi chirish, dog'lanish, so'lish, bujmayish, pukaklanish holida namoyon bo'ladi. Kasallikni namoyon bo'lishi zamburug'ning spora hosil qilish bilan tugallanib, o'simlikda tashqi va ichki belgilarni hosil qiladi. Masalan, g'o'zadagi vilt kasalligi tufayli o'simlikning mahsuldorligi pasayib, xatto ayrim qismlarini xalok bo'lishiga olib keladi.

Ko'pchilik o'simliklarni kasalliklarining manbayi tuproq, o'simlik qoldiqlari hisoblanadi. Ayrim kasalliklar urug'lar, ko'chatlar vositasida tarqaladi: alternarioz, bakterioz karam ko'chatlari, fitoftora, qora son kartoshka tunganagi orqali tarqaladi. Ko'pchilik zamburug'lar tuproqda bir necha yildan, 10 yilgacha saqlanishi mumkin.

Birlamchi infeksiya kasallikning dastlab paydo bo'lishiga, mavsumda ayrim o'simliklarda yangidan hosil bo'lishiga olib keladi. Olma parshasi askosporasini qolgan barglarda hosil qiladi va boshqalariga tarqaladi.

Ikkilamchi infeksiyaning namoyon bo'lishi zang zamburug'i misolida quyidagichadir. Birlamchi infeksiya teleytosporalarda hosil bo'lgan bazidiosporalar vositasida zararlaydi. Ikkilamchi infeksiya - etsidiya va uredosporalarda hosil bo'lgan spora vositasida amalga oshadi.

O'simliklarning kasalliklari ma'lum xududda, ayrim muddatlarda tarkaladi. Kasallik areali deb - kasallikning tabiiy tarqalish chegarasiga aytiladi. Bunday kasalliklarning kelib chiqishi ekologik

sharoit bilan o`zviy bog`liqdir. Ular miqdorining ko`pligi yoki ozligi o`simlik uchun o`ziga xos salbiy ta`sir ko`rsata boshlaydi.

4. Oziq moddalarning etishmasligidan kelib chiqadigan kasalliklar mevali daraxtlarning temir etishmasligidan xloroz, azot etishmasligidan o`shishdan qolish, barglari maydalashib, och yashil rangga kirib, poyasining nimjon bo`lib, tezda sinib ketishiga sabab bo`ladi.

Fosfor etishmasligidan mevali daraxtlarning generativ kurtaklari etilmaganligidan meva shoxlari hosil bo`lmaydi, barg tomiri qizg`ish rangga kiradi, barglar kichrayib qoladi, rangi bronza rangida bo`ladi. Kartoshkaning tuganagida zangga o`xshash dog`lar hosil bo`lsa, dukkakkodoshlarda urug`lar to`liq pishib etishmaydi.

Kaliy etishmasa barg plastinkasi qirralari sarg`ayib, keyin jigar rangga kiradi. Barg yuzasida sarg`ish dog`lar hosil bo`ladi. Mevali o`simliklarda hosil bo`lgan kurtaklari kichrayib qoladi. Uzunlikda barglar kung`ir rangga kirib, qurib qolishiga olib keladi.

Magniy etishmasa pastki yarusidagi o`simlik barglarining barg tomiri orqa tamoni sarg`ayadi. Keyinchalik ular tushib ketadi.

Kaltsiy etishmasa o`simlik ildizi o`smay uning uchi rivojlanmay qoladi. Er ustida barglar shakli maydalashib, yuzasida sarg`ish dog`lar paydo bo`ladi.

Rux etishmasa mevali daraxtlar qisqa, ipchasimon barglar hosil qiladi. Kasallik erta bahorda kuzga tashlanadi.

Bor etishmasa o`simlik o`shish nuqtasi o`shishdan qoladi. Barglari ingichkalashib, buralib ketadi. Bunday kasallik olma, nok, karam, kungaboqarda yaqqol seziladi. Lavlagining o`zagi chirib ketadi. Mis etishmasa, barg so`liydi, poya o`smaydi, urug` hosil qilmaydi.

5. Iqlim va tuproqdagi noqulay sharoitdan kelib chiqadigan kasalliklar. Respublikamiz sharoitida havo harorati va tuproqdagi namlik undagi o`simliklarga turlicha ta`sir ko`rsatadi. Tuproqda namlikning kam bo`lishi, haroratining yuqori bo`lishi g`alla ekinlariga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Oziq moddalarning o`simlikka kam kirib kelishi hosil miqdorini pasayishiga, urug`larning nimjon bo`lishiga olib keladi. Urug`larning sut pishishi davrida namlik miqdorining ko`p bo`lishi o`simliklardagi fermentativ jarayonga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Natijada kraxmal o`rniga qand moddasi to`planib urug` po`sti erilib ketadi. Er osti suvlari er yuzasiga yaqin joylashsa ildiz sistemasi mevali daraxtlar ildiz sistemasini qurib qolishiga sabab bo`ladi.

Tuproqda namlikning kamayib ketishi o`simlik o`shishini chegaralab quyadi. Pomidorda poya chirishi kasalligini keltirib chiqaradi. Namlikning keskin o`zgarib turishi meva va daraxt poyalarining erilib ketishiga sabab bo`ladi.

Ekologik sharoitning yomonlashishi tufayli turli o`simliklarda o`ziga xos kasalliklar salbiy ta`sir ko`rsatuvchi moddalar miqdorining ko`pligi natijasida ta`sir ko`rsatadi. Masalan, Orol dengizi atrofidagi Na va Cl tuzlarining ko`payishi. M. Tursunzoda shahridagi Aluminiy zavodining Sariosiyo rayonidagi o`simlik va xayvonlarga ta`siri, Oxangaron rayonidagi tsement zavodining atrof muhitga ta`siri, Morjonbulok, Zarafshon shaharlaridagi sulfit kislotasining o`simliklarga salbiy ta`siri.

Savollar:

1. Yuqumli kasalliklarni qo`zgatuvchi mikroorganizmlar biologik xususiyatlariga ko`ra qanday turlarga bo`linadi.
2. Patologik jarayon deb nimaga aytiladi.
3. Kasallik qo`zgatuvchilarning o`simlikka kirib kelishi va inkubatsiya davri nima?
4. Yuqumli kasalliklarning belgilari qanday?
5. Kasallikning namoyon bo`lish boskichlarni ko`rsatib bering.
6. Yuqumsiz kasalliklar deb qanday kasalliklarga aytiladi?
7. Mikroelementlar etishmasligidan o`simliklarda qanday kasalliklar kelib chiqadi?
8. Makroelementlar etishmasligidan o`simliklarda qanday kasalliklar kelib chiqadi?
9. Havo harorati va tuproqdagi noqulay ekologik sharoitdan qanday kasalliklar kelib chiqadi?

10. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloxlarni amalga oshirishda fitopatologiya fanining ahamiyati qanday ?

11. Fitopatologiya fanining vazifasi nima ?

2. Mavzu: O'simlik kasallik ko'zg'atuvchi organizmlarning asosiy guruhlari.

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasining modeli

O'quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O'quv mashg'ulotining tuzilishi Ma'ruza rejasi	O'simliklarda kasallik qo'zg'atuvchi virus va bakteriyalarning tavsifi, tuzilishi va ular qo'zgatadigan kasallik belgilari. Ularning ko'payishi, tarqalishi va o'simliklarda keltirib chiqaradigan kasallik turlari. Kasallik qo'zg'atuvchi zambuglar tavsifi, tuzilishi, oziqlanishi va tabiatda tarqalishi. Zambug'lar sistematikasi. Tuban va yuksak zambuglar. Gulli parazit o'simliklar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda o'simliklar immuniteti to'grisida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talabalarda fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo'ladilar, asosiy ma'lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabaning
1 bosqich 1.1 O'quv xujjatlarini to'ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O'quv mashgulotiga kirish (10min)	1.1 O'simliklar immuniteti mavzusi bo'yicha ma'lumotlar beriladi. O'quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi. Mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlar beriladi. Ma'ruza davomida mavzu bo'yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.

3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish.	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.
--------------------------------------	--	--

I. O'simliklarda viruslar keltirib chiqaradigan kasalliklar.

1. Mozaika - bodring va tamaki mozaikalari.
2. Qo'ng'ir dog'larni hosil bo'lishi - pomidorning strik kasalligi.
3. O'simlik a'zolarini o'zgarishi (deformatsiya) - pomidor bargining paporotniksimon yoki ipsimon bo'lib kolish kasalligi.

II. O'simliklarda mikoplazmalar keltirib chiqaradigan kasalliklar.

1. Sarg'ayish - shaftolini sarg'ayish kasalligi.
2. Pastbuyilik - sulining pastbuyilik kasalligi.
3. Supurgilarni hosil bo'lishi - tolda supurgilarni hosil bo'lish kasalligi.
4. O'simlikning generativ a'zolarini o'zgarishi - pomidorning stolbur kasalligi.

O'simliklarda viruslar va mikoplazmalar qo'zgatadigan kasalliklarning umumiy tavsifi.

Viruslar xaqidagi ta'limotning asoschisi rus olimi D.I.Ivanovskiy bo'lib hisoblanadi. O'simliklarda filtrlanuvchi viruslar kasallikni keltirib chiqaradi.

Fitopatogen viruslar tirik organizmga xos xususiyatga egadir. Viruslar ximiyaviy tarkibiga ko'ra oqsil va nuklein kislotadan iboratdir. Viruslar tirik hujayrada ko'payadi.

Fitopatogen viruslar zararlangan o'simlikning hujayrasida kristallar hosil qiladi. Viruslar hosil qiladigan kristallarni birinchi bo'lib 1902 yili D.I.Ivanovskiy tomonidan topilgan.

Viruslarning shakli juda ham turli tumandir (tayoqchasimon, ipsimon, yumaloq), ularni faqat elektron mikroskop orqali ko'rish mumkin.

Fitopatogen viruslar (virionlar) oqsil qobigi (kapsula) bilan o'ralgan nuklein kislotaning bir yoki ikkita iphasidan iborat. Ko'pchilik fitopatogen viruslar tarkibida esa DNK (dezaksiribonuklein kislotasi) mavjud. Viruslar faqat nuklein kislotadan iborat bo'lib, kapsulaga ega bo'lmasa viroidlar deyiladi. Viruslarning shakli nanometrlarda o'lchanadi.

Viruslarning hayotiy faoliyati xujayra o'simlikning hujayrasi bilan chambarchas bog'langandir va ular faqat shu hujayra ichida ko'payadi. Viruslar ko'pincha bir o'simlikdan ikkinchi o'simlikka suruvchi hashorotlar orqali o'tadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ilgari viruslar keltirib chiqaradigan kasalliklarning (sarg'ayish va supurgilarning hosil bo'lishi) hozirda mikoplazmalar keltirib chiqarishi aniqlanilgan (V.Doy va boshqalar, 1967, K.Maramorom, 1968 va boshqalar).

Mikoplazmalar yumaloq, ellipsimon yoki ma'lum shaklsiz bo'lib, ularning diametri 26-1000 NM, membrana bilan o'ralgan, lekin hujayra qobig'i yo'q. Mikoplazmalar, viruslarga nisbatan murakkabroq tuzilishga egadir. Ularning tarkibida 2 xil nuklein kislotasi-DNK va RNK bor. Mikoplazmalar zararlangan o'simlikning floemasida (tursimon nay, floema parinximasi, yo'ldosh hujayra) hujayrasining tsitoplazmasida kuzatiladi. Bu mikroorganizmlar sog' o'simlikka tsikadka hashorati, zarpechak orqali hamda payvandlash davrida o'tishi mumkin. Hozirgi vaqtda 60 ga yaqin ekinlarda mikoplazmalar keltirib chiqaradigan kasalliklar ma'lum. Mikoplazmalar keltirib chiqaradigan kasalliklarni aniqlashning asosiy usuli bo'lib, elektron mikroskop yordamida kuzatish hisoblanadi. Mikoplazmalar viruslardan farqli ravishda sun'iy oziqa muhitlarida rivojlanadi.

Tetratsiklin guruhiga mansub bo'lgan antibiotiklarning mikoplazmalarga ta'siri juda sezilarli. Ularni kasallikka qarshi qo'llanilganda o'simlik ma'lum miqdorda ayrim holda butunlay sog'ayib ketadi. Bunday holat mikoplazma keltirib chiqargan kasalliklarni aniqlashda

ham foydalanishi mumkin. Oxirgi vaqtda o`simliklarda mikoplazmalardan tashqari, rikketsiya va spiroplazmalarga yaqin bo`lgan organizmlar ham kuzatilgan.

Viruslar va mikoplazmalarni o`simliklarda yuzaga keltiradigan kasalliklarining belgilari. O`simliklarda viruslar keltirib chiqaradigan kasalliklarning tashqi belgisiga qarab mozaika, o`simlik a`zolarining o`zgarishi va qo`ng`ir dog`larni hosil bo`lishi turlariga bo`linadi.

Mozaika tufayli zararlangan o`simlikning barglari, poyasi, guli va mevasida ranglar gallanib joylashadi. Mozaikada o`simlikni sog` a`zosidagi rang bilan oq-sargish, och yashil yoki boshqa ranglar bilan gallanib joylashadi.

Misol tariqasida bodringning mozaika kasalligini olish mumkin. Zararlangan o`simliklarning barglari sog`ga nisbatan mayda bo`lib, unda to`q yashil, och yashil va sariq yashil qismlar yaqqol ajralib turadi. Barg u yoki bu darajada tirishgan bo`ladi. Kasallikning bunday belgilari o`simlikning yuqorigi barglarida yaqqol ko`rinadi. Mevalarda ham shunday mozaikani kuzatish mumkin. Zararlangan mevalarning sirti notekis bo`lib, to`q yashil qismi bo`rtib chiqqan bo`lib, ko`pincha mevalar ko`rimsiz bo`lib qoladi.

O`simlik a`zolarining o`zgarishi (deformatsiya). Viruslar ta`sirida o`simlik a`zolarini o`zgarishi barglarni ipsimon, paporotniksimon, maydalangan yoki kattalashib ketishi tariqasida namoyon bo`lishi mumkin. Barg, gul va mevalarning shaklini o`zgarishi zararlangan to`qimalarning ayrim qismini noto`g`ri rivojlanishi tufayli yuzaga keladi. Bu esa barglarda tirishish yoki boshqa o`zgarishlarni, mevalarda esa shaklini o`zgarishiga olib keladi.

Buning uchun pomidor barglarini paparotniksimon yoki ipsimon bo`lib qolish kasalligini olishimiz mumkin. Birinchi holatda zararlangan o`simlikning barglarining plastinkalari kundalangiga qirqilgan bo`lib, ko`rinishi paporotnik bargiga o`xshaydi. Bargni ipsimon tusga kirishi yaqqol ko`rinadi. Bunda barg plastinkasi ensiz bo`lib, uning uchun mo`ylov singari ingichkalashib cho`zilgan bo`ladi. Ayrim holda barg plastinkasi ensizlanib ipsimon tusga, hatto butunlay emirilib ketishi mumkin.

Qo`ng`ir dog`larni hosil bo`lishi yoki to`qimalarni nobud bo`lishi. Barglarda yakka va halkasimon dog`lar, poya, meva va barg bandida esa qo`ng`ir uzunasiga ketgan chiziqlar tariqasida namoyon bo`ladi.

Kasallikning bu turi bilan tanishish uchun pamidor poyasi va barg bandida uzunasiga ketgan qo`ng`ir, ayrim holda yaltiroq dog`lar kuzatiladi. Barg plastinkasida burchakli yoki ma`lum bir shaklsiz qoramtir dog`lar hosil bo`ladi. Zararlangan mevalarda yoriqlar yoki qo`ng`ir dog`lar yuzaga keladi. Mikoplazmalar o`simliklarga qo`zg`atadigan kasalliklarni tashqi ko`rinishi quyidagi turlarga bo`linadi: sarg`ayish, pastbuylilik, supurgilarni hosil bo`lishi va o`simlikning generativ a`zolarini o`zgarishi.

Mikoplazma keltirib chiqaradigan kasalliklarning sarg`ayish turi o`simlikning butunlay yoki ayrim shoxlarini sariq tusga kirishi kuzatiladi, bunda zararlangan a`zolarining floemasiga o`zgarish sodir bo`lmay, balki o`suv jarayoni buzilganligi kuzatiladi. Kasallikning sarg`ayish turiga shaftoli va astrani sarg`ayishini, sholini past bo`yli sarg`ayish kasalliklarini hamda boshqa bir qator misollarni keltirishimiz mumkin.

Mikoplazma keltirib chiqaradigan pastbuylilik va supurgilarni hosil qilish kasallik turlari ham keng tarqalgandir.

Pastbuylilik kasallik turini ko`proq g`alla donli ekinlarda kuzatiladi. Kasallikni bu turi bilan tanishish uchun sulini pastbuylilik kasalligini olish mumkin. Bunda zararlangan sulining buyi past bo`lib, uning poyasi rivojlanmay, butun barglari ildiz atrofiga to`plangan bo`ladi, poyalar soni ham bir qanchaga etadi. Bunday o`simlikning ildizi rivojlanmay, bir tutam bo`lib qoladi.

Supurgilarni hosil bo`lishida zararlangan o`simlikning shoxlarini o`suv nuqtasidan bir novdaning o`rniga bir qancha novdalar rivojlanishi tufayli ular mayda bo`ladi, buni chetdan qaraganda supurgilarga o`xshatiladi.

Mikoplazma keltiradigan kasallikni bu turiga misol qilib tolni supurgi hosil qilish kasalligini olishimiz mumkin.

o`simliklarda bakteriyalar keltirib chiqaradigan asosiy kasallik turlari

I. Parenximali kasalliklar:

1. Dog`lanish -g`o`za gommози, bodring bakteriozi.
2. Chirish - kartoshkaning ho`l chirishi.
3. Shishlarni hosil bo`lishi - olmaning ildiz raki, tokning bakteriya raki.

II. Parenmixali - o`tzazuvchi to`qima kasalliklari:

1. So`lish - kartoshkaning halqali chirishi, pomidorning bakteriya raki.

Bakteriyalarning umumiy tavsifi. Bakteriyalar bir hujayrali xlorofilsiz organizmlardir. Bakteriyalar juda yupqa qobiq bilan o`ralgan protoplazmadan iboratdir. Ularning o`lchami 0,06-0,3 dan 3,5 mikrongacha bo`lishi mumkin. Bakteriyalar ko`pincha sharsimon, tayoqchasimon shaklga ega bo`ladi. Deyarli hamma bakteriyalar xivchinga ega bo`lib, bu xivchinlar hujayraning bir yoki ikki uchiga, ayrim hollarda esa butun hujayra bo`ylab joylashgandir. Xivchinlar yordamida bakteriyalar harakatlanadi. Xivchinga ega bo`lmagan bakteriyalar harakatlanmaydi. Fitopatogen bakteriyalarda bir qator fermentlar: proteaza, amilaza, tsrotopektinaza va boshqalar bor. Mavjud fermentlarning yuqori darajali faolligi tufayli bakteriyalar o`simlik ichiga kirib, hujayra devorlarini emiradi, hujayrani nobud bo`lishi tufayli patologik jarayon kuzatiladi, bu esa kasallikni turli xil ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.

Bakteriyalar o`simlik ichiga turli yoriqlar, qirilgan joy va boshqa mexanik shikastlangan qismidan hamda tabiiy tirqishlar ustida, chechevichka orqali kiradi.

O`simliklarda bakteriyalar keltirib chiqaradigan kasalliklarni parenximali va parenximali-o`tzazuvchi to`qima kasalliklarga bo`lish mumkin.

Parenmixali kasalliklar tufayli parenxima to`qimalari zararlanadi. Bunda kasallik dog`lanish, chirish va shishlarni hosil bo`lishi bilan namoyon bo`ladi.

Dog`lanish. Kasallikni bu turi zararlangan o`simlik a`zolarida noaniq shaklli yoki burchakli dog`larni hosil bo`lishi bilan tavsiflanadi. Bakteriyalar uchun xos bo`lgan dog`lar zamburg`larnikidan farq qilib, ularning sirtida g`ubor yoki qora nuqtalar kuzatilmaydi. Bundan tashqari dog`larni hosil bo`lish davrida ular yog`simon ko`rinishda bo`ladi. Misol qilib, 1) g`o`zani gommozini; 2) bodring bakteriozini; 3) tamakini bakteriya keltiradigan kasalligini olishimiz mumkin.

Chirish. O`simlikning ozuqa moddasiga boy bo`lgan a`zolari -piyozboshi, tuganak, ildizmeva va boshqa qismlarida bakteriyalar chirishni yuzaga keltiradi. Bunda avval hujayra oralig`idagi modda keyinchalik hujayra pusti emiriladi. Zararlangan o`simlik a`zosi oldin yumshaydi, so`ngra yokimsiz hid chiqarib ho`l chirish yuzaga keladi. Bunga misol qilib kartoshkaning ho`l chirish kasalligini olish mumkin.

Shishlarning hosil bo`lishi. Ayrim fitopatogen bakteriyalar o`zidan hujayrani bo`linishini tezlashtiradigan moddalarni ajratadi, bu esa o`simlikning zararlangan a`zolarida turli xil shishlarni yuzaga kelishiga sababchi bo`ladi.

Kasallikning bu turiga misol qilib meva daraxtlarining ko`chatlarini ildiz rakini va tokning rak kasalligini olishimiz mumkin.

Parenximali-o`tzazuvchi to`qima kasalliklari. Kasallikni bu turi o`simlikning o`tzazuvchi to`qima naylarini hamda parenxima to`qimasini zararlanishi tufayli kelib chiqadi. Kasallik o`simlikni qisman yoki butunlay so`lishi bilan, dog`lar va chirishni yuzaga kelishi bilan namoyon bo`ladi.

So`lish. O`simlikning o`tzazuvchi to`qima naylarini zaralanishi tufayli o`simlik qisman yoki butunlay so`lishi, o`tzazuvchi naylari esa qo`ng`ir tusga kirishi mumkin. Bunga misol qilib, pomidor rakini va kartoshkaning halqali chirishini olamiz.

Fitopatogen bakteriyalar ichida faqat dog`lar yoki chirish ko`rinishidagi kasallik turini keltirib chiqaradigan vakillari ham uchrab turadi. Lekin shunday bakteriyalar ham borki, o`tzazuvchi to`qima naylarni zararlash bilan birgalikda parenxima to`qimalarini ham zararlaydi. Bunday kasallik ko`rinishi kasallikning aralash turi deb atalsa ham bo`ladi. Zararlangan o`simlikning er ustki qismi so`liydi hamda meva va tuganaklarida dog`lar yoki chirish kuzatiladi (pomidor raki, kartoshkaning halkali chirishi). Laboratoriya mashg`uloti davomida gerbariy,

fiksatsiyalangan jihozlar, jadvallar bilan tanishish davomida rasmlarni ham chizish zarur. Kasallikni ko`rinishiga qarab uni turlarga ajratish kerak.

O`SIMLIKLARDA KASALLIK QO`ZG`ATUCHI ZAMBURUG`LAR.

I. Mitseliy

1. Bir xujayrali (Mucor)
2. Ko`p xujayralijayrali (Rhizoctonia)

II. Mitseliyning shakl o`zgarishlari

- | | |
|--|------------------------------|
| 1. | Oidi yalar (hamirturush) |
| 2. | Xlamidosporalar |
| (bug`doyning qattiq qora kuya kasalligi) | |
| 3. | Sklero tsiyalar (javidardagi |
| sporo`nya kasalligi) | |
| 4. | Rizomorflar (pukaklar) |

II. Zamburug`larning ko`payishi.

I. Vegetativ ko`payish:

1. Mitseliyni bo`laklarga bo`linishi bilan;
2. Mitseliyni shakl o`zgarishlari bilan;

II. Jinssiz ko`payish:

1. Ekzogen sporalar bilan;
2. Endogen sporalar bilan;

III. Jinsiy ko`payish:

1. Planogamiya yo`li bilan;
2. Oogamiya yo`li bilan;
3. Zigogamiya yo`li bilan;
4. Xaltachali zamburg`larni ko`payishi;
5. Bazidiyali zamburg`larni ko`payishi;

Mitseliy -bir necha giflardan tuzilgan.

Gifalar – bu mitseliyani iplaridan tashqil topgan.

Bir xujayrali mitseliyalarning (xujayrali) tanasi bo`g`imlarga bo`linmagan bo`ladi. (Mucor).

Ko`p hujayrali – mitseliylarni tanasi bug`imlarga bo`lingan bo`ladi (Rhizoctonia).

Sklerotsiyalar- gifalarni bir-biri bilan birlashishi natijasida paydo bo`ladi. Ularni tanasi qattiqlashgan va har xil shaklda bo`ladi. Ular ozuqaga boy bo`ladilar . Misol – javdarni sporo`nya kasalligi.

Oidiyalar - bu mitseliyalarni bo`linishi natijasida paydo bo`ladigan hujayralardir. Bu hujayralarni tashqi qobiqlari ingichka va ularni tashqi ko`rinishi dumaloq shakldi bo`ladi. Misol – hamirturush.

Xlamidosporalar - mitseliyalarni bo`linishi natijasida paydo bo`lgan hujayralar yoki hujayralarni to`plamlaridir. Xlamidosporalarni qobiqlari qattiqlashgan bo`ladi. Bunday qobiqlar yordamida xlamidosporalar uzoq muddatgacha noqulay sharoitida saqlanadi. Misol – bug`doydagi qattiq qora kuya kasalligi.

Rizomorflar – qora rangli iplardan tashkil topgan bo`lib, baquvvat shoxlangan uzunligi bir necha metrgacha borishi mumkin, lekin qalinligi esa bir necha mm ga teng keladi. Rizomorflar giflardan paydo bo`lib tashqi tuzilishi bilan boshqalardan farq qiladi.

Zamburug`larning ko`payishi.

Vegetativ ko`payishi - 1) Bu ko`payishda zamburug`larning mitseliyalari bo`laklarga bo`linadilar. Mitseliyaning bulaklari o`zib mustaqil individlarga aylanadi. 2) Zamburug`larning mitseliyasi noqulay sharoitda o`zining tanasini o`zgartirishi mumkin. Shuning uchun zamburug`larning vegetativ ko`payishi shakli o`zgargan mitseliyalar yordamida ham o`tishi mumkin (xlamidosporalar, oidiyalar, sklerotsiyalar va rizomorflar).

Jinssiz ko`payish – 1) Ekzogen yoki tashqi sporalar yordamida o`tadi. Ekzogen sporalarga konidiya va kanidiya bandlari kiradi. Kanidiyalarning rangi va shakli har xil bo`lishi mumkin

(sharsimon, tayoqchasimon). Konidiya bandning ichidagi hujayra dumoloqlanib nozik tizimchaga o`xshash zanjircha hosil qiladi. U etilgandan keyin tizimchalar bir biridan uzilib tarqalib ketadi. Ularning ko`payishi konidiyaning shoxlanishi hisobiga bo`ladi. 2) Endogen ichki sporalar bularga zoosporangiy va sporangiyalar kiradi.

Sporangiy – bu sharsimon bo`lib uning ichida harakatsiz sporalar to`plangan bo`ladi. Agar sporalar voyaga etgan bo`lsa (pishgan) shu vaqtda ular bo`shliqdan tashqariga chiqib tarqaladi (Mucor).

Zoosporangiy – bu kolbasimon bo`lib uning ichida harakatli sporalar (zoosporalar – bir yoki ikki xivchinli) to`plangan bo`ladi. Agar muhit qulay bo`lsa zoosporangiydan tashqariga zoosporalar chiqadi va o`simliklarni zararlashi mumkin.

Jinsiy ko`payishi - bu ko`payishda ikkita xo`jayra qo`shiladi va sporalar hosil bo`ladi.

1. **Planogamiya** – ikkita bir xil gameta qo`shiladi natijada harakatlanuvchi xivchinli planozigota yoki tsista hosil bo`ladi. Bu yo`l bilan xitridiomitsetlar sinfiga oid zamburug`lar ko`payadi.
2. **Oogamiya** – bu ko`payishda hujayra qo`shiladi (otalik-anteridiy hujayra va urg`ochi ooganiy hujayra). Bularni qo`shilishi natijasida oospora hosil bo`ladi. Shuning uchun bu protsess oogamiya deyiladi. Oosporalar tuproqda va o`simlik qoldigiga 5 yilgacha saqlanishi mumkin.
3. **Zigogamiya** – bu ko`payisha morfologik bir xil ikkita mitseliya qo`shiladi natijada zigospora hosil bo`ladi.
4. **Askomitsetlarni ko`payishi** - bunda ikkita hujayralar qo`shiladi. Bitta hujayra-otalik hujayra-anteridiy deyiladi. Ikkinchi hujayra-onalik hujayra-arxikarp deyiladi. Arxikarp uchta qismdan – askogen, trixogena va askoganiy asosidan iborat . Jinsiy ko`payishda ya`ni protsessda anteridiy askogenga yaqinlashib trixogenaga yopishadi va qushilish natijasida antrediyning ichidagi suyuqlik askogenga o`tadi. Yadrolar yaqinlashadi va qo`shiladi natijada askogendan gifalar o`sib chiqadi. Ularni ichida sporali xaltachalar hosil (askosporalar).
5. **Bazidiomitsetlarni ko`payishi** – bunda ikki xil mitseliy (birlamchi gaploid) qo`shiladi va diploid mitseliy hosil bo`ladi, diploid mitseliydan o`simta hosil bo`ladi ya`ni (bazidiyalar) bo`ladi.

Bu o`simta ikkita yadroli bo`ladi.

Bazidiya ustida turtta bir xil o`simta hosil bo`ladi. Bo`lingan yadrolar bittadan o`simtalarga o`tadi va bazidiyasporalar hosil bo`ladi.

Bu sporalar etilib uziladi va atrofga tarqaladi.

3.Mavzu: Qishloq xo`jalik ekinlari kasalliklariga qarshi kurash usullari.

Juda qadimda ilk dehqonchilik davrida odamlar hamma o`simliklar ham kasalliklarga bir hil munosabatda bo`lmasligini payqaganlar. Kasallangan o`simliklar orasida sog`lomlari ham uchragan.

Ekinlar patogen organizmlarga turlicha munosabatda bo`lishining o`zi ularning har xil chidamliligini yoki har xil darajada beriluvchanligini ifodalaydi. Beriluvchanlik-o`simliklarning zararlanishiga qarshi chidamaslik xususiyatidir. Chidamlilik-o`simliklarning kasalliklarga chidash xususiyatidir. O`simlik hech kasallanmaydigan eng yuqori darajadagi chidamliligi immunitet deb ataladi. Immunitet-lotincha immunitos biror narsadan xoli bo`lish, bu o`rinda kasallikdan xoli bo`lish degan ma`noni bildiradi. O`simliklar immuniteti haqidagi ta`limotning asoschisi N.I.Vavilov xisoblanadi.

O`simliklar immunitetining kategoriyalari (tiplari). Immunitet tug`ma (nasldan naslga o`tuvchi) va ontogenez jarayonida orttirilgan bo`lishi mumkin.

Tug`ma yoki tabiiy immunitet o`simlikning irsiy genotipik xossalari ko`ra u yoki bu kasallik bilan zararlanmaslik xususiyatidir. Tug`ma immunitet nasldan naslga beriladi. Tug`ma immunitet ham aktiv va passiv immunitetga farqlanadi.

Passiv immunitet o`simlikni patogen bilan biologik kontaktda bo`lishiga yo`l qo`ymaydigan anatomo-morfologik xususiyatidir. Bular o`simlik kutikulasining qalin bo`lishi, mum g`ubor bo`lishi, o`simlik hujayrasi sharbatining kislotaliligi va b.

Aktiv immunitet o`simlikka kirgan parazitning tarqalishini faol boshqarish xususiyatidir. Misol tariqasida o`simlikning infektsiya tushgan joyidagi to`qimalarida nekrozlarning hosil bo`lishi yoki zararlangan hujayraning nobud bo`lishini ko`rsatish mumkin.

Orttirilgan yoki sun`iy immunitet o`simlikning ontogenezi jarayonida hosil qilingan u yoki bu kasallik bilan kasallanmaslik xususiyati. Bu issiqqonlilarda vaktsinatsiya qilish yo`li bilan amalga oshiriladi. O`simliklarda esa bu xolat issiqqonlilardagidek keng tarqalmagan. Lekin o`simliklarni sun`iy immunizatsiya qilishga urinishlar bir muncha ijobiy natijalar bergan. Masalan, o`simlikni yoki uning urug`ini kimyoviy yoki boshqa immunizatsiyalovchi vositalar bilan ishlov berilgan. O`simliklarni biologik immunizatsiya qilish. Vaktsinatsiya: Yu.I.Vlasov pomidorni X virusiga qarshi vaktsinatsiya qilgan. Bunda o`simliklar pikirovka qilishdan oldin kuchsiz virus shtammi bilan ishlov beriladi. Ular 7 8 kun o`tgandan keyin mazkur virus shtammiga chidamlilikni namoyon qilgan.

Aktiv va passiv immunitetlar orasida immunlikning o`ziga xos faktorlari farqlanadi. Masalan, passiv immunitet faktori sifatida kutikulaning qalinligi faqat kutikula orqali kiradigan qo`zg`atuvchilar uchun xarakterli bo`lib barg ustitsalari orqali kiradigan qo`zg`atuvchilar uchun bu faktor ahamiyatga ega emas.

Yuqumli kasalliklarga immunitet faktorlari.

Tug`ma immunitet faktorlari. O`simlikning tuzilishi yoki anatomo-morfologik xususiyatlari: bular qoplovchi to`qimaning qalinligi (un shudring kasalligi o`simlikka kutikula orqali kiradi), ustitsalarning tuzilishi (masalan soxta un shudring qo`zg`atuvchisi, bakteriyalar), mum g`uborlarning bo`lishi va b.

O`simliklarning kimyoviy va fizik kimyoviy xususiyatlari. Hujayra sharbatining kislotaliligi (RN) o`simliklar ontogenezi jarayonida hujayra sharbatining (RN) muhiti doimiy holatga ega emas. Masalan, pomidorning yosh mevalarida kislotalilik past bo`lib, u bakteriyali kasallik bilan zararlanadi, etilganlarida baland bo`lib u zararlanmaydi.

Fitontsidlar. Fitontsidlar immunitet faktori sifatida alohida ahamiyatga ega. Fitontsidlarni birinchi bo`lib 1929 yilda B.P.Tokin kashf etgan. Fitontsidlar uchuvchi va uchmaydigan fraktsiyalarda sarimsoq, piyoz, limonda ko`p uchraydi. Fitontsidlar kimyoviy tarkibga ko`ra glyukozidlar, aldegidlar va boshqa moddalar bo`lishi mumkin.

Kasalliklarga qarshi kurash choralarini. O`simlik kasalliklariga qarshi kurash chora tadbirlarini 2 ta kategoriyaga bo`lish mumkin.:1) oldini oluvchi 2) davolovchi. Oldini oluvchi tadbirlar kasallik yuzaga kelmasligiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Davolovchi tadbirlar juda kam holatlarda amalga oshiriladi. Sababi, aksari kasallik qo`zg`atuvchilar zararlangan o`simlik to`qimasi ichida rivojlanadi va kimyoviy yoki boshqa tadbirlarni qo`llashni imkoni bo`lmaydi.

O`simliklarni kasalliklardan himoya qilishning asosini tashkil qiluvchi oldini oluvchi tadbirlar o`z navbatida quyidagi 3 guruhga bo`linadi.

1. Birlamchi infektsiya manbaini yo`q qilishga qaratilgan tadbirlar.
2. Infektsiyani o`simlikdan o`simlikka tarqalishini chegaralovchi tadbirlar.
3. O`simliklarni kasallikka chidamliligini oshiruvchi tadbirlar.

Bu tadbirlar turli metodlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, agrotexnik, kimyoviy, biologik va b.

Agrotexnik usul: Bu usul kasallik qo`zg`atuvchilarning rivojlanishi uchun noqulay sharoit yaratib o`simlik chidamliligini oshirishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasidir. Bular jumlasiga almashlab ekish, erni chuqur xaydash, ekish muddati va b.

Almashlab ekishda ekinlar navbat bilan ekilganda tuproqda saqlanayotgan kasallik qo`zg`atuvchilari o`z o`zidan nobud bo`ladi. Almashlab ekish muddatini to`g`ri belgilash uchun kasallik qo`zg`atuvchining biologiyasini ayniqsa uning qishlovchi stadiyasining saqlanish muddatini yaxshi bilish lozim. Turli kasallik qo`zg`atuvchilari tuproqda turli muddat 1-2 yildan

4-5 va undan ortiq yilgacha saqlanishi mumkin. Masalan, karam kilasi kasalligini qo'zg'atuvchisining tinim sporalari tuproqda 5-6 yil saqlanadi. Bundan ko'rinadiki, mazkur kasallik bilan kasallangan maydonga karam va boshqa krestguldoshlar 5-6 yildan so'ng ekish kerak. Karam soxta un-shudring bilan kasallangan xolatlarda kasallik qo'zg'atuvchisining oosporalari 2 yildan ortiq saqlanmasligini e'tiborga olib bunday maydonga 2 yildan so'ng mazkur ekinlarni ekish mumkin.

Erni chuqur xaydashda tuproq ostiga tushgan o'simlik qoldiqlari jadal minerallasib patogen o'z xayotchanligini yo'qotadi.

4.Mavzu:Go'za , boshqoli don ekinlari kasalliklariga hamda ularga qarshi kurash choralarini..

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	Qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklariga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarini ishlab chiqarish yo'llari. Ushbu chora tadbirlarni ahamiyati. Seleksiya va urugchilik tadbirlari, agrotexnik usullarning ahamiyati.,fizik-mexanik usul,biologik kurash usuli,kimyoviy kurash usuli. G`o`zaninig vilt, gommoz, ildiz kasalligi va unga qarshi kurash choralarini. G`alla ekinlarida uchraydigan kasalliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda o`simliklar immuniteti to`grisida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarda fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma'lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabaning
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish	1.1 O'simliklar immuniteti mavzusi bo'yicha ma'lumotlar beriladi. O`quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni BBB

(10min)		jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi. Mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlar beriladi. Ma'ruza davomida mavzu bo'yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish.	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Adabiyotlar.

- 1.Dementeva M.I. Fitopatologiya. M.Agropromizdat.1987.
- 2.Dyakov YU. T. Obhaya i selskoxozyaystvennaya fitopatologiya.M., «Kolos» 1984.
- 3.Peresypkin V.F. Selskoxozyaystvennaya fitopatologiya .M., «Kolos» 1989.
- 4.Popkova K.V. Obhaya fitopatologiya.M.Agropromizdat, 1989.
- 5.CHeremisinov N.A. Obhaya patologiya rasteniy. M., Vysshaya shkola.1973.
- 6.Sattarova R.K .va boshqalar. Umumiy fitopatologiya. (ma'ruza matnlari) T.1999.
7. Sattarova R.K .va boshqalar. Fitopatologiya. (Uslubiy qo'llanma) T.2002

G'o'zaninig vilt kasalligi va unga qarshi kurash choralari.

G'o'za o'simligida zamburug'lar, bakteriyalar va gullik parazitlar kasalliklar keltirib chiqaradi.Bu kasalliklar ko'chat sonini kamaytiradi, hosil miqdori va sifatini yomonlashtiradi.G'o'zaninig yuqumli kasalliklariga- vilt, gommoz, ildiz chirish, qora ildiz chirish kasalliklarini, ko'sak va tola kasalliklariga-qo'ng'ir chirish, qizg'ish chirish, alternarioz, mukarioz, qora shira kasalliklarini, yuqumsiz kasalliklar xloroz, kuzgi so'lish, garimsel, barg qizarishi, barg shakl o'zgarishi kabi kasalliklarni kiritish mumkin.G'o'zaninig karantin kasalliklariga barg bujmayishi, Texas ildiz chirishi, antroknos kiritiladi.

G'o'zaninig so'lish yoki vilt kasalligi. Kasallik qo'zg'atuvchisining turiga karab so'lish kasalligi vertitsillioz va fuzarioz viltiga bo'linadi. Kasallikning tashqi belgilari o'simlikning g'uncha yoki gullash fazasida namoyon bo'ladi. Dastlab pastki yarusdagi barglarda ko'p burchakli yoki doirasimon, och-yashil, keyin sarg'ish dog'lar paydo bo'ladi. Belgilar barg qirrasidan barg tomiri oralig'ida yoki butun barg yuzasida hosil bo'ladi. Zararlangan barg ko'ng'ir rangga kirib, quriy boshlaydi va tushib ketadi. Kasallik kuchli bo'lganda butun o'simlik bargsiz qoladi. Bunday o'simliklarda ko'saklar to'liq etilmaydi., quriydi va ochilib ketadi. Ba'zan tushib ketgan barglar o'rnida yangi barg hosil bo'lib, meva to'plashni sustlashtiradi.Kasallikning ichki belgilarini kasallangan o'simlik poyasini ko'ndalang kesilganda, uning yog'ochlik qismi qorayib nekroz hosil qilganda ko'rish mumkin.

Vertitsillioz vilt kasalligini qo'zg'atuvchisi Takomillashmagan zamburug'lar sinfi, Hyphomycetales tartibi, Verticillium dahliyal turiga mansub zamburug' keltirib chiqaradi.

Zamburug' mitseliysi rangsiz, konidiyalar tarmoqlangan konidiya bandlarida hosil bo'ladi.Tuproqda hosil qilgan mikrosklerotsiyalar va xlamidosporalar hosil qiladi. Zamburug'ning rivojlanishiga zarur bo'lgan minemal harorat 5-7 S, optimal harorat 23-26 S, maksimal harorat 31-32 S ni tashkil qiladi. Tuproqdagi namlik miqdori 60-70 % bo'lganda zamburug' tez rivojlanadi.V.dahliyal zamburug'i 38 oilaga mansub bo'lgan 700 ortiq o'tsimon, daraxt o'simliklarni kasallatiradi. Respublika sharoitida V.dahlia zamburug'ining 2 ta rassasi mavjud bo'lib, 1-rassasi g'o'zaninig 108-F va Toshkent navlarini, II-rassasi esa barcha chidamli navlarni

kasallantiradi. Vertitsillioz vilt kasalligi paxtachilik uchun zararli kasallik hisoblanib, uning ta'sirida 22-70 % hosil nobud bo'ladi.

Fuzarioz vilti - Takomillashmagan zamburug'lar sinfi, *Fusarium turkumi*, *F. oxysporum*, *F. vasinfectum* zamburug'i keltirib chiqaradi.

Kasallik ingichka tolali g'ozaning ko'chatlar paydo bo'lgan davridan boshlanib, butun vegetatsiya davomida kuzatiladi. Kasallik belgisi ko'chatlarning barglarida sarg'ish dog'lar paydo bo'lib, barg tomiri to'rga o'xshab ko'rinadi. Dastlab kasallangan o'simliklarning bo'g'in oralari qisqarib, ildiz bo'g'izi yo'g'onlashadi, uchki barglari zararlanmay saqlanib qoladi. G'uncha hosil qilish davrida kasallangan o'simliklarning bargi - g'unchasi, guli tushib ketadi, poyasi nozik bo'lib qoladi. Ko'sak hosil qilish davrida kasallangan o'simliklar poyasi qurib qolmasada, ko'saklar to'liq pishib etilmaganligidan ochilmay qoladi. Kasallikning ichki belgilari poyaning qorayishi-nekroz hosil qilish bilan xarakterlanadi. Zamburug' tuproqda yarim saprofit xayot kechirsada, o'simlikka ildiz orqali kirib uni zararlaydi.

G'ozaning ildiz chirish kasalligi.

G'ozaning ildiz chirish kasalligi. Respublika sharoitida g'ozaning oddiy, qora va sklerotsial ildiz chirish kasalliklari uchraydi. Kasallik chigit ungan davrdan boshlab 6-8 ta xaqiqiy barg hosil qilganicha davom etadi. Kasallikning dastlabki belgilari ko'chatarning ildiz bo'g'izida to'q jigar rangdagi dog' hosil bo'lishdan boshlanib, keyinchalik chiriydi. Kasallangan o'simlikning ildizi qorayib, chirib ketadi. Bunday o'simlik bargi rangsizlanib, qurib qoladi va tushib ketadi, poyasi jigar rangga kiradi. Ildiz bo'g'izida poyaning yo'g'onlashishi yoki poyaning buralib ketishi kuzatiladi.

Kasallik qo'zg'atuvchisi tuproqdagi turli mikroorganizmlar bo'lib ular orasida eng keng tarqalganlari qatoriga *Rhizoctonia solani*, *Thielavtopsis basicola*, *Sclerotium bataticola* zamburug'lari asosiy rol o'ynaydi. Bu zamburug'lar mitseliysi tuproqdan o'simlik ildiz bo'g'izi orqali ildizga kirib keladi. Infektsiya manbai asosan tuproqda va kasallangan o'simlik qoldiqlarida xayot kechirayotgan zamburug'lar hisoblanadi.

Qarshi kurash choralari: agrotexnik tadbirlarga amal qilish, a'lo sifatli dorilangan urug'larni ekish, yagana va qatqoloqqa qarshi kurashni o'z vaqtida o'tkazish, almashlab ekishga amal qilish va g'oz poya qoldiqlarini ildizi bilan daladan chiqarib tashlash.

G'ozaning gommoz kasalligi va unga qarshi kurash choralari.

Gommoz kasalligi. Kasallik o'simlikning barcha er usti a'zolarini, barg, yonbargchalar, poya, gul, ko'sak va tolasini kasallantiradi. Kasallikning asosiy belgisi, o'simlikning zararlangan organlarida yog'simon tomchilarning hosil bo'lishidan boshlanadi. Bargda dastlab burchakli dog'lar paydo bo'ladi. Barg yuzasi shakli o'zgarib, barg bandida ko'ng'ir dog'larni hosil qiladi.

Kasallikning eng xavfli shakli poya gommozi hisoblanib, zararlangan joydagi poya va novdalar ingichkalashib, jigar rangga kiradi va sarg'ish suyuqlik oqib chiqqan joyida qotib qoladi. Poyaning yuqori qismidagi novdalar zararlanganda o'simlik o'sishdan orqada qoladi, g'uncha va meva hosil qilmaydi. O'simlik vegetatsiyaning keyingi bosqichlarda zararlansa gulkosabarg, ko'sak va tolasini ham kasallantiradi. Kasallangan ko'saklar rivojlanmaydi, tolalar bir biriga yopishib, chirib ketadi. Kasallikni keltirib chiqaradigan bakteriyalar urug' po'stida saqlanadi. Kasallangan novda va poyada to'q yashil rangdagi dog'lar paydo bo'lib, uni ingichkalashtiradi, buralib o'sishiga sabab bo'ladi.

Kasallik qo'zg'atuvchisi - *Xanthomonas campestris malvacearum* bakteriyasi bo'lib minimal harorat 10, optimal xarorat 25-28 S da normal rivojlanadi. Kasallikning tarqalishi uchun o'simlik organlari ustida hosil bo'lgan yog'simon moddada to'plangan bakteriyalarning suv va shamol vositasida va xashoratlar yordamida amalga oshadi.

Infektsiya manbai tuproqdagi kasallangan o'simlik qoldiqlari va ulardan tayyorlangan urug' hisoblanadi. Gommoz kasalligi tufayli o'simlik tola o'zunligi 8-25 % ga, pishig'ligi 1, 5-2% ga, uziluvchanligi 8-20 % ga pasayadi.

Qarshi kurash choralari: azotli va kaliyli o'g'itlar o'simlikning kasallikka chidamliligini oshiradi, g'oz dalalariga bedani almashlab ekishda foydalanish kasallikni kamaytiradi, urug'ni sog'lom o'simliklardan tayyorlash, urug'ni ekishdan oldin fungitsidlar bilan ishlov berish (fenturan 10 kg

1 t), tuproqni chuqur xaydash, g`o`zani qoldiqlarini yig`ishtirib olib daladan chiqarib tashlash, dalaga qishda yaxob suvini berish kerak.

5.Mavzu: Boshqoli don ekinlari va beda kasalliklari va ularga qarshi kurash choralarini.

G`alla ekinlarida uchraydigan kasalliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

- *Qora kuya kasalligi.*
- *Zang kasalligi*
- *Ildiz chirish kasalligi*
- *Fuzarioz kasalligi*
- *Gelmentosporioz kasalligi*
- *Un shudring kasalligi*
- *Sholining pirikulyarioz kasalligi.*

G`alla ekinlarining qora kuya kasalligi. Kasallik asosan donli o`simlikning boshog`ini, qisman poya va bargini zararlaydi. Kasallik belgilarining namoyon bo`lishiga ko`ra 2 xilga bo`linadi.

- *Qattiq qora kuya*
- *Chang qora kuya*

Qattiq qora kuya kasalligidan zararlangan donning ichki qismi zamburug` sporalari bilan to`lgan bo`lsa u ochilib ketmaydi. Bunday donlar hosilni yig`ishtirish yoki yanchish davridagina parchalab sporalar tarqala boshlaydi. Chang qora kuya kasalligi esa sporalarning vegetatsiya davrida sochilib turishi bilan xarakterlanadi. Kasallik qo`zg`atuvchisi: Baziomitsetlar sinfi-Basidiomicetes. qora kuyalar tartibi Ustilaginales kiradi.

Qattiq qora kuya kasalligi belgilari o`simlikda don etilish davrida namoyon bo`ladi. Kasallangan boshqolar shakli kichikligi, donlar shaklining notekisligi, cho`zinchoq shaklda bo`lishi bilan xarakterlanadi. Tosh(qattiq) qora kuya kasalligini ikki turga mansub zamburug` keltirib chiqaradi. *Tilletia caries* va *Tilletia levis* turlari sporalarning shakli bilan farq qiladi.

Birinchi tur respublikaning shimoliy rayonlarida, ikkinchisi janubiy rayonlarda keng tarqalgan. Tosh qora kuya zamburug`i rivojlanish davrida 2 ta bosqichda bo`ladi: Xlamidospora bosqichi; Bazidiyali bosqich. Don ichida to`plangan sporalar xlamidospora deb yuritiladi. Xlamidosporalar urug` ustida, tuproqda, mexnat quollarida saqlanadi. Qulay sharoitda xlamidosporalardan bazidiosporalar hosil bo`lib uning vositasida urug` kurtakdan hosil bo`lgan poyani zararlaydi. Zararlangan poya bo`ylab zamburug` mitseliysi boshqoqqa qadar o`sib boradi. Boshqoda gul bandi orqali tugunchaga kelib u erda ko`p miqdorda xlamidosporalar hosil qila boshlaydi. Kasallikning tarqalishi uchun tuproq sharoiti va urug` sifati asosiy rol o`ynaydi. Tuproqda harorat 8-9 S bo`lgan sharoitda o`simlik zamburug` bilan tez zararlanadi. Chang qora kuya kasalligi- asosan bug`doyning boshog`ini zararlaydi. Kasallangan o`simlikning boshog`i barg ko`ltig`idan chiqishidan oldin zararlanib, bug`doy kipig`i rivojlanishdan orqada qoladi. Gulning tuguncha qismi chang hosil qiladigan donga aylanadi. Kasallik qo`zg`atuvchisi *Ustilago tritici*. Bu zamburug` faqat bug`doyga moslashgan parazit bo`lib, o`simlikni gullash davrida kasallantiradi. hosil bo`lgan sporalar shamol vositasida tarqalib sog`lom o`simlik gul tugunchasiga kirib keladi. Bunday donlar normal rivojlanib endosperm, qalqopcha hosil qiladi. Bunday urug`lar kelgusi yilda ekilganda sporadan hosil bo`lgan mitseliy poya bo`ylab ko`tarilib

ko'p miqdorda spora hosil qiladi. Shunday qilib kasallik ikkita vegetatsiya davrida namoyon bo'ladi. Birinchi yil urug'ning zaralanishi hosil bo'lsa, ikkinchi yil u spora (changni) hosil qiladi.

Kasallikning tarqalishida yuqori namlik va harorat (18-24 S) o'simlikning gullash davrida yuzaga kelishi keng imkoniyat beradi. Urug'ning unish davridagi past harorat, maysaning unish davridan boshqoq hosil qilguncha bo'lgan davrda kurg'oqchilik ham uning keng tarqalishiga sabab bo'ladi.

Kasallikka qarshi kurashning asosiy maqsadi urug' fondini zararlamasdan saqlash va o'stirishini ta'minlashdan iborat. Ayniqsa elita navlarini va birinchi reproduksiyalarni urug'ini toza saqlash kerak.

Qarshi kurash choralari: Urug' uchun ekinzorlarni aprobatsiya qilish, urug'ni zararsizlantirish, agrotexnik tadbirlarni qo'llash, dizenfektsiya qilish, chidamli navlarni ekish.

Zang kasalligi. Zang kasalligi barcha g'alla ekinlarining er usti organlarini zararlaysdi. Kasallik o'simlik organlarida zang rangidagi yostiqlar shaklida ko'zga tashlanadi. Kasallik qo'zg'atuvchisi bazidiomitsetlar sinfi, Uredinalas tarkibi vakillaridir. Kasallik qo'zg'atuvchilari ikkita xujayinli parazit bo'lib do'lanada etsidiya bosqichini, madaniy o'simlik-bug'doyda teleytosporani hosil qiladi.

Zang kasalligining tarqalishida meteorologik sharoit asosiy rol o'ynaydi. O'simlikning zaralanishi vegetatsiyaning turli davrlarida ro'y beradi. Kasallangan o'simlik bargining assimilyatsion yuzasi kamayadi, nafas olishi va suv bug'lanishi ko'payadi. Kasallangan o'simlik o'sishdan orqada qoladi, don va boshog'ining sonini kamayadi. Zang kasalligi kasallik qo'zg'atuvchining turiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: chiziqli zang - Puccinia graminis, P. graminis f. secalis, P.g.f tritici, P.g.f avenae; ko'ng'ir zang- Puccinia triticina ; sariq zang- Puccinia striiformis.

Qarshi kurash choralari: agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish; oraliq xujayin ekinlarini (zirk va qoraqand) o'z vaqtida yo'q qilish, urug'larni qulay muddatda ekish, urug'larga ekishdan oldin mikroelementlar bilan ishlov berish, fosforli va kaliyli o'g'itlarni qo'llash, hosilni erta yig'ishtirish, chidamli navlarni ekish.

Ildiz chirish kasalligi. Bu kasallik g'alla ekinlarining ildizi va ildiz bo'g'izida kung'ir dog'larni hosil qilishdan boshlanadi. Kasallik maysa unish davrida ildiz bug'izida jiggar rangda namoyon bo'ladi. Bunday o'simlik qurib qoladi. Katta o'simliklarda birinchi bo'g'ingacha bo'lgan joylar jiggar rangda ko'rinadi. Kasal o'simlik o'sishdan orqada qoladi yoki boshqoq hosil kilmaydi. Kasallangan donlar nimjon, unish kobilyati past bo'ladi. Kasallik qo'zg'atuvchisi- Hilminthosporium sativum, Fusarium culmorum zamburug'lari xisoblanadi. Kasallik tarqalishiga nam tuproq va havo ta'sir ko'rsatadi. (20-25%) Bunday sharoitda o'simlik o'sishdan orqada qolib, oziq moddalar almashishi buziladi.

Kasallikka qarshi kurash choralari: almashlab ekishga amal qilish (makkajo'xori, kungaboqar silos uchun, dukkaklilar, ko'p yillik o'tlar bilan ekish), urug'ga ekishdan oldin ishlov berish, mikroelementlar bilan ishlov berish (100g mikroelement -100 kg donga), fosforli, kaliyli o'g'itlarni qo'llash, urug'ni tuproqqa erta ekish, hosilni o'z vaqtida yig'ishtirib olish, urug'ni tezda quritish, tuproqni chuqur xaydash.

Savollar:

1. O'simliklar immunitetining mohiyatini tushuntiring.
2. O'simliklar immunitetining qanday kategoriyalari mavjud?
3. Aktiv va passiv immunitetga misollar keltiring.
4. O'simliklarni kasalliklardan himoya qilishning mohiyati nimada?
5. O'simliklarni kasalliklardan himoya qilishning qanday usullari mavjud?
6. Vertitsillioz vilt kasalligining kelib chiqishi, belgilari va ularga qarshi kurash choralari.
7. Fuzarioz vilt kasalligining kelib chiqishi, belgilari va ularga qarshi kurash choralari.
8. Ildiz chirish kasalligining belgilari, kasallik qo'zg'atuvchisi va ularga qarshi kurash choralari.

6-Mavzu: Beda kasalliklari hamda ularga qarshi kurash choralari

Режа:

1. Беданинг ун шудринг касалликлари.
2. Беданинг занг касалликлари.
3. Беданинг кунгир догланиш касаллиги.
4. Беданинг фузариоз касаллиги.
5. Беданинг вирус касалликлари.
6. Беданинг гуллик паразитлари
7. Ун шудринг касали қандай юкади.
8. Занг касалини зарари неча % булади.
9. Занг касали билан огриган бедани сифати қандай булади
10. зарпечак босиб кетса бедани қандай чора курилади.

Таянч иборалар:

Спора - Замбуруглар (одатда вегетатив) купайиш учун хосил буладиган махсус микроскопик хужайра ёки танага усиб ва ривожланиб, етилган замбуругга айтилади.
Эпифитотия - Усимлик касаллигининг битта хужалик, туман, вилоят ёки мамлакатда кенг тарқалиши.

Перетей - Аскомицетлар синфига мансуб баъзи юкори замбуругларнинг усимлик туқималари ичида ривожланадиган, одатда куза, нок ёки бутилка шаклли, жинсий купайишига хизмат қилувчи мева таначаси (псевдотей билан солиштиринг).

Зооспоро - Баъзи тубон замбуругларнинг жинсиз купайиши учун хизмат қиладиган, хивчинчаси ёрдамида сувда харакатланадиган махсус хужайра (спора).

Зооспоронгий - Баъзи тубон замбуругларнинг ичида зооспоралар хосил буладиган жинсиз купайиш органи.

Инокулюм - Касаллик кузгатувчи микроорганизмнинг экинларни зарарлаш ва янги экинларга тарқатиш учун хизмат қилувчи махсус хужайра ва таначалари (спора, конидия склероций, микросклероций ва х.з.)

Беданинг ун шудринг касаллиги. Касаллик усимликнинг барча ер усти органларида, баргида, поясида, дуккагида ок ёки окиш кунгир рангдаги могорни хосил қилади ва уларни касаллантиради. Касаллик кузгатувчиси *Leveillula taurica f medicaginis* ва *gysiphe communis f medicaginis* замбуруглари хисобланади.

Республикамиз шароитида беда усимлигининг касалланишида иккинчи турдаги замбуруг асосий рол уйнайди. Усимликнинг касалланган аъзоларида замбуруг аскоспоралари кора рангдаги нукталар шаклида пайдо булиб, ундан мицелий ривожланади. Замбуруг усимлик колдикларида аскоспоралар шаклида кишлайди. Касалланган барг остида ок рангдаги губор пайдо булиб, унинг остки гамонида замбуруг клейстотейиси хосил булади. Клейстотейиларда аскоспоралар етилади.

Касалликни тарқалишига куп ёруглик ва юкори харорат сабаб булади. Касалланган усимлик биомассаси кескин камайиб, гул ва барглари тушиб кетади.

Қарши кураш чоралари: усимлик колдинларини уз вақтида йигиштириб олиш, уруглик бедаларни касаллик намоён булгандан кейин 7 - 10 кун утгач фунгицидлар билан ишлов бериш зарур. Бунинг учун охак олтингугуртнинг 1500 - 2000 л. эритмаси 1 га. ерга ишлов бериш учун фойдаланилади, касалликка чидамли навларни экиш, ем хашак учун экилган беда ва уруглик беда орасидаги масофа 1, 5 – 2 км масофада ойлапгариш мақсадга мувофиқдир.

Беданинг занг касаллиги. Бу касаллик беданинг барча ер уста аъзоларини зарарлайди. Касаллик зарарланган жойда кунгир рангдаги ёстикча шаклида хосил булади. Касалланган усимликнинг барглари тушиб кетади, пояси тезда синади.

Касаллик кузгатувчиси *Uromyces striatus* замбуруги булиб, у 2 та хужайин усимликда хаёт кечиради. Ривожланишнинг биринчи боскичида замбуруг эцидиялари сутламада, уредо ва телейтоспораси бедада ривожланади. Касалланган сутлама усимлиги усишдан оркада колади, барглар гадир – будир булади. Споралардан хосил булган замбуруг мицелийси сутламанинг илдизига кириб келиб кишлайди, эрта бахорда ундан эцидийлар хосил булган эцидиоспоралар касалликни бедага таркалиш манбайи килади. Касалланган беда усимлиги абзоларида дастлаб кунгир рангдаги уредоспоралар ёстикчаларини, кейинчалик кора рангдаги телейтоспоралар ёстикчаларини хосил килади.

Иссик iklimли шароитида занг касаллиги вегетациянинг бошида намоён булади. Касаллик бедазорларга сув берилганда айникса тез ривожланади. Занг касалликлари кузгатувчилари беда усимлигининг кодикларида телейтоспоралар холида кишлайди. Эрта бахорда улардан хосил булган базидиоспоралар сутлама усимлигини зарарлайди. Замбуругнинг хаётий жараёнини куйидагича ифодалаш мумкин. Бахорда эцидиялар - сутламада хосил булса – уредоспоралар бедада хосил булади. Кузда телейтоспоралар усимлик колдикларида кишлаб, бахорда базидиоспораларни хосил килади.

Карши кураш чоралари: касалланган усимлик колдикларини уз вақтида йиштириб олиш, сутлама усимлигини бедазорлардаги даладан йиштириб олиш, ёввойи бедани дала атрофида таркалишига йул куймаслик, бедани кенг каторлаб экиш, фосфорли - калийли угитларни куллаш, касалланган бедани силос учун эрта йиштириш, олтингугурт охак эритмасини ёки олтингугуртни кукунини 30-40 кг. микдорда 1 га ерга сепиш чидамли навларни экиш.

Беданинг кунгир доғланиш касаллиги. Касаллик усимлик баргини, поясини, дуккагини зарарлайди. Касаллик пастки ярусдаги баргларда пайдо булиб, кейинчалик юкориги ярусдаги баргларга таркалади. Барг орка томонида кунгир – сарик доғлар пайдо булиб, барг юза кисмида саргиш кунгир рангда куринади. Зараланган баргларда замбуругнинг мева танаси хосил булади. Бундай барглар тезда тушиб кетади. Касаллик кузгатувчиси *Psiudoperiza medicasinis* замбуруги хисобланади. Касалланган баргларда аскоспоралар хосил килиш боскични, мева таналарда эса бир хужайрали споралар хосил килади. Касаллик апрел ойларида кузга ташланади ва июл ойларида кенг таркалади. Инфекция манбайи касалланган усимлик колдигидан иборат булиб, у уругга хам тушиши мумкин. Касаллик бахор фаслида ёгингарчилик куп булганда кучли зарар еткази. Карши кураш чоралари: уругни уз вақтида саралаш инфекция манбаларини экинзорлардан йук. килиб ташлаш, бедани галла экинлари билан аралаштириб кенг каторлаб экиш, уругни кулай муддатларда тупрокка экиш, касалликка чидамли булган навлардан Полтовская 256, Зайкевич навлардан экиш, уруглик ва хашаки беда орсидида масофани 1, 5 – 2 км. дан узокда жойлаштириш. Беданинг гуллик паразитлари. Беда усимлигида дала зарпечаги, беда зарпечаги, Хитой зарпечаги, Европа зарпечаклари учрайди. Уларнинг пояси ипсимон булиб, сарик ёки пушти рангида булади, барги булмайди, гули майда, ок пушти, уруги майда булади. Пояси ва уруги билан купаяди. Сургичлари воситасида поядан озик моддаларни суриб, уни курилади. Уруги хайвонлар овкат хазм системасида хам парчаланмайди ва уруги воситасида кенг таркалади. Республикамиз шароитида зарпечакнинг 2 та турлари: *Cuscuta epithimum* ва *Cuscuta arvensis* куп учрайди. Зарпечак тушган усимликлар усишдан оркада колиб, пояси чириб кетади. Уруги гунгда ва тупрокда, усимлик колдигида кишлайди.

Карши кураш чоралари: зарпечакнинг таркалишини олдини олиш учун усимлик 15-20 см булганда, гуллашдан олдин ва уруг хосил килишдан олдин текшириб чикилади, экинзорни, унинг теварак атрофини зарпечакдан тозалаш, оловли култиватор билан ишлов бериш, зарарланган уругларни бошка районларга таркатмаслик лозим. Зарпечакка карши 20% амиакли силитра ёки 4 % ли нитрофен билан ишлов бериш керак (75 кг эритма 1 га ерга фойдаланилади). Беданинг вирус касалликлари. Беда усимлигида вируслар куйидаги касалликларни келтириб чикаради. Беданинг мозаика касалликлари, Беда поясининг буралиши, Карликовост ёки пакана буйлилик

касалликлари. Мозаика касаллиги. Вируслар келтириб чиқарган касалликлар бедада куйидаги шаклда учрайди: губорлик; баргда узгариш килмайдиган, баргнинг буралиши. Касаллик белгиларига эга булган усимликлар усишдаи оркада қолади, барглари майда булади. Касаллик асосан усимлик бити, дала бургалари каби хашоратлар ва зарпечаклар воситасида тарқалади. Касалликка қарши кураш чоралари: агротехник тадбирларга амал қилиш, ширага уз вақтида қарши курашиш, зарпечак бор далаларни оловли культиваторда ишлов бериш керак.

Беданинг фузариоз касаллиги. Бу касаллиги такомиллашмаган замбуруглар синфи вакили *Fusarium* туркумига мансуб 10 га, яқин турдаги замбуруглар томонидан келтириб чиқаради. Беданинг фузариоз касаллиги илдиз чириш ва сулиш шаклида иомоён булади.

Илдиз чириш касаллиги беда илдизнинг ёғочлик туқималарини зарлаш натижасида қорамтир жигар ранга қиритиб, флорманинг чириши билан намоён булади. Касалланган усимлик тупрокдан жуда осон суғиритиб олинади. Касаллик қузгатувчилари тупрокда ҳаёт кечириб, биринчи йили усимликка қириб қелади, иккинчи ва учинчи йилда уни нобуд қилади. Бедазорларда агротехник тадбирлар уз вақтида утқазилмаганда усимликлар қуп зарарланади. Инфекция манбайи касалланган усимлик қолдиқлари ва тупрокдаги инфекция ва улардан тайёрланган уруглар ҳисобланади. Фузариоз сулиш касаллиги бедами бутун вегетация даврида касаллантиради. Усимлик гуллаш ва гунча ҳосил қилиш вақтида барги, новдалари сулиб қолади. Касаллик қузгатувчиси *F. oxysporum* тури ҳисобланиб, замбуруг мицелийси тупрокдан илдиз ериқлари орқали поянинг ёғочлик қисмига қириб қелади. Натижада сув найлари тусулиб, сув ва унда эриган моддалар ҳаракати секинлашади. Сув баланси бузилгач усимлик сулиганга ухшаб қуринади. Касаллик ҳаво ҳарорати 27-30 С булганда, намлик қамайганда эркин намоён булади.

Қарши кураш чоралари: уругларни яхшилаб тозалаш, уларга фунгицидлар ва микроэлементлар бнлаи ишлов бериш, тупрокка органик, фосфорли, калийли угитлардан зарур фурсатларда мейёрида фойдаланиш, беда уругини эрта баҳорда уртача чуқурликда галла экинлари билан бнрга тупрокка зқиш, алмашлаб эқишга амал қилиш ва қидамли навларни эқиш лозим.

Назорат саволлари:

1. Беданинг ун шудринг касаллиги ва унга қарши кураш чоралари қандай?
2. Беданинг занг касаллиги ва унга қарши кураш чоралар қандай?
3. Беданинг фузариоз касаллиги ва унга қарши кураш чоралари қандай?
4. Беданинг аскохитоз касаллиги ва унга қарши кураш чоралари қандай?
5. Беданинг вирус касаллиги ва унга қарши кураш чораларини айтинг?
6. Бедада учрайдиган гулли паразитлар ва уларга қарши кураш чоралари қандай?

7-mavzu: Kartoshka, pomidor kasalliklari hamda ularga qarshi kurash choralarini

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasining modeli

О`қув вақти: 80 миннут	Талаба сони
О`қув машг`улотининг тuzилиши Ma'ruza rejasi	Kartoshkaning fuzarioz so'lish, makrosporioz, alternarioz, fomez, fitoftoroz, qora son, quruq, ho'l va halqali chirish hamda virusli kasalliklari. Pomidorning makrosporioz, fitoptoroz, fuzarioz va vertzisilliyoz so'lish, un-shudring, stolbur, ildiz chirish, uchdan chirish, qo'ngir dog'lanish, bakterial rak va virusli kasalliklari. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalishi, kasallik belgilarining namoyon bo'lish muddatlari va

	xususiyatlari, infeksiya saqlanishi. Kasallikka qarshi kurash choralarini.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda meva daraxtlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash choralarini to`grisida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarda fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma`lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta`lim usullari:	BBB, "Klaster", ma`ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta`lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabanning
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashg`ulotiga kirish (10min)	1.1 Mavzu bo`yicha ma`lumotlar beriladi. O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. Mavzu bo`yicha asosiy ma`lumotlar beriladi. Ma`ruza davomida mavzu bo`yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo`yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to`ldirish taklif etiladi, va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg`ulotga tayyorlanish.	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma`lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Fungistatik modda - Zamburuglarning usishi va kupayishini tuxtatuvchi modda.

Xloroz - Usimlik organlari, asosan barglarida parazit mikroorganizmlar bilan zararlanganida xamda ekinlarga ba`zi element (misol uchun temir, mis, kaliy) etishmasligida xosil buladigan ok, okish-sargish va sarik doglar. Ekzotoksinlar - Ayrim mikroorganizm (bakteriya)ning usuv davrida tashki muxitga ajratib chikargan toksin. Kasallik kuzgatuvchi - Boshka organizm xisobiga parazit xolda yashaydigan organizm (misol uchun: usimliklarda va xashorotlarda kasallik kuzgatuvchi mikroskopik zamburuglar va bakteriyalar) . Makrokonidiyalar - Ba`zi ikki xil konidiyalar xosil kiluvchi yukori zamburuglar (kupincha *Fusarium* turkumi namoyandalari) ning ulchami kattarak va kup xujayrali konidyalari (II mikrokonidiya bilan solishtiring). Kartoshka usimligi usish, ivojlanish va tuganaklarni saklash jarayonida turli zamburug, bakterial, virus kasalliklari bilan zararlanadi. Zamburug kasalliklariga fitoftorioz, makrosporioz, parsha;

bakterial kasalliklardan kora son, doirasimon chirish va mozaika kasalliklarini kursatish mumkin. Tuganaklarni omborxonalarda saqlash jarayonida fitoftorioz, fuzarioz, fomez va nam chirish kasalligi uchraydi.

Kartoshkaning fitoftorioz kasalligi. Fitoftorioz kasalligi tufayli 50% xosil miqdori pasayadi. Kasallikni Oomitsetlar sinfi, Perenosporoles tartibiga mansub Phytophthora infentans zamburug keltirib chikaradi. Kasallik belgilari bargda va tutanakda xosil buladi. Kasallangan barg cheti buylab kungir rangdagi dog xosil buladi. Bargning orka tomonida ok rangdagi mogorga uxshash guborda zamburug zoosporangiysida zoosporalar xosil buladi. Bu kasallik tuganakda kungir chirish kasalligini keltirib chikaradi. Zararlangan tuganak pustlogining asosiy kismida uning magzini chirigan xolga keltiradi. Kasallikniig rivojlaanshi nam xavoda, xavo xarorati 18 – 20 S. Bulganda yaxshi ifodalanadi. Usimlikka infektsiyaning kirib kelishi barg ustitsalari orkali sodir buladi. Bargda xosil bulgan zoosporalar tuprokkatushib, tuganakni zararlaydi. Keyinchalik zarlangan tuganakda Fusarium zamburugi vakillari keng tarkaladi. Kartoshka tuganagining chirigan tukimalar ustini ok, sarik, binafsha rangdagi zamburug mitseliysi koplaladi. Birlamchi infektsiya manbayi zararlangan tuganak va usimlik koldiklari bulib u poya orkali bargga kutarilib boradi va soglom usimliklarni zararlash manbayi bulib xizmat kiladi. Kasallikka karshi kurash choralari: tuprokka soglom tuganaklarni ekish, ximiyaviy ishlov berish (1 % li bordo suyukligi, 80 % tsineb, 90 % li mis xlorid eritmasini 1 ga erga 500 – 600 l. mikdorda xar 10-15 kunda sepish), almashlab ekishga rioya kilish, NPK ugiltarni kompleksini kullash, mikroelementlar eritmasi bilan ishlov berish, kartoshkani kuruk xavoda yigishtirib olish, saqlash rejimiga amal kilish, chidamli navlarni ekish.

Janubiy Amerika kartoshkasi Solanium demissum madaniy kartoshka S. tuberosum navi bilan olimlar tomonidan chatshitirilib fitoftorga, sovukka chidamli, kraxmalga boy navlar yaratilgan.

Kartoshka raki. Kartoshka rak kasalligini kuzgatuvchisi Xitrodio – mitsetlar sinfi, Chytridiales tartibi vakili Synchytrium endobioticum xisoblanadi. Kasallik asosan tuganakni zararlaydi. Undagi kurtaklar atrofida uziga xos dumalok usimtalar paydo buladi. Ular kartoshka tuganagini chirishiga sabab buladi. Infektsiya manbayi – kurtakda kishlagan zamburug zoosporalari xisoblanadi. Ularning cheksiz bulinishidan usimta xosil buladi. Kasallikni kuzgatuvchisining rivojlanishi va tarkalishi uchun 16 – 20 S va 70 – 80 % namlik zarurdir. Kasallikka karshi kurash choralari: kartoshkani etishtirish buyicha agrotexnik tadbirlarga amal kilish (makkajuxori, karam, kakli va galla ekinlarini almashlab ekishdan foydalanish), chidamli navlarni ekish (kurer, Stolovoy – 19, Zourskiy), organik ugiltarni kullash, tuprokka 20 – 25 % li nitrofen bilan ximiyaviy ishlov bkrish (20 l. eritma 1 m. joyga). **Rizoktonioz kasalligi.** Rizoktorioz kassalligini kuzgatuvchisi

Rhizoctonia solani zamburugi bulib, kasallik 3 shaklda uchraydi: tuganakning kora parshasi, usimlikning kasallanishi va poyaning ok chirishi. Kasallik tuganaklarini, usimtani, poyani zararlaydi. Tuganakda kora rangdagi doglar paydo buladi. Undan xosil bulgan sklerotsiylardan bazidiosporalar vositasida kupayadi. Kasallik kuzgatuvchisi mitseliy, sklerotsiy va bazidiya boskichlarida rivojlanadi. Tuganakning usishidan xosil bulgan stolonlar xam korayib kurib koladi. Sporalar yosh tuganaklarni xam zararlaydi. Infektsiya manbai kasallangan tuganak, usimlik va begona utlarning tuprokdagi koldiklarida xosil buladigan zamburug mitseliysi va sklerotsiylardir.

Karshi _____ kurash choralari: tuganakni tuprok xarorati 7 S da 6 – 7sm chuchurlikka ekish, tuprokda katkalokka karshi uz vaktida kurashish, 1 t tuganakga 70 l fungitsid eritmasi bilan ishlov berish, almashlab ekishga amal kilish (galla, dukkakli ekinlarni 3-4 yildan keyin ekish), begona utlarga karshi kurash, chidamli navlarni ekish. **Fuzarioz yoki kartoshkaning kuruk chirishi.** Bu kasallik tuganaklarni saqlash davrida kuzatiladi. Kasallikni Fusarium turkumiga mansub bir necha

turdagi zamburuglar keltirib chikaradi. Kasallik xosil yigilgandan keyin 2 – 3 oy muddatda seziladi. Tuganak pusti bujmayib, usti okish, kizgish, kungir rangdagi mitseliy bilan koplanadi. Unda xosil bulgan konidiylar vositasida soglom tuganaklar zararlanadi. Namlik mikdorini ortishi, zarorat 25 – 27 S da bulishi zamburugning tarkalishiga sabab buladi. Infektsiya manbayi

tuprok zarrachalari, omborxonadagi zamburug koldiklari va tuprok infektsiya manbai xisoblanadi. Karshi kurash choralari: uruglik uchun soglom tuganaklarni saklash, ularni mexanik zararlantirishga yul kuymaslik, omborxonalarda xaroratni meyyorida saklay bilish. **Fomoz kasalligi** Takomillashmagan zamburuglar sinfining vakili *Phoma exigua* zamburugi tamonidan keltirilib chakariladi. Kasallik

usimlikning tuganak va poyalarni kasallantiradi. Tuganakda doirasimon dog xosil bulib bu dog borgan sari chukurlashib kirib boradi. Uning yuzasida kora rangdagi zamburug piknidiyalarida sporalar xosil buladi. Baxorga borib bunday tuganaklar chirib ketadi. Birlamchi infektsiya manbai ekin dalalaridagi tuprokda mavjud bulgan zamburug sporalari xisoblanadi. Poyada kasallik barg bandining xar xil doglarini xosil kilish bilan iamoyon buladi. Kasallangan tukimalarda zamburugning jigar rangdagi piknitsiyalar xosil buladi. Kasallik tufayli kartoshkaning 25 % xosil mikdori kamayadi. Karshi kurash choralari: soglom uruglarni ekish, almashlab ekishga amal kilish, usimlik koldigini olib tashlash, tuganaklarni sak.lash rejimiga amal klgan. **Bakterial kasalliklar – Kora son.** Kasallik poya va tuganakni zararladi. Kasallik kuzgatuvchisi – *Putobacterium phytophthorum* bakteriyasi xisoblanadi. Kasallik dalada maysa paydo bulgandan keyin namoyon buladi. Kasal usimlikning poyasi korayib, chiriy boshlaydi. YUkoridagi barglar och yashil rangda bulib, sargayadi va kuriydi. Kasallangan _____ usimlik poyasi tuprokdan tezda sugirilib ketadi.

Kasallik belgilari tuganakda uning chirigan xolatida kuzga tashlanadi. Tukimalari yumshok, xidli, shilimshik bulib koladi. Rangi tuk kungir rangda buladi. CHirish omborxonada xarorat kutarilib ketganda tez tarkaladi. Infektsiya manbai kasallangan usimlik, usimlik koldiklari xnsoblanadn. Kasallik dastlab poyaning pastki kismini koraytirib kiritadi. SHunda usimlik gullamay xalok buladi. Kasallik kamrok tarkalganda esa stolonlar orkali tuganakka kirib boradi.

Tuganak soglom

tuganaklarga aralashganda ularni zararlaydi. Kasalikka karshi kurash: ekish uchun soglom usimlikdan uruglik tuganak olish, tuganakni saralab kulay sharoitda saklash, agrotexnika (kam ozot, kuya sugorish) tadbirlariga amal kilish, kasallangan tuganakni tashlab yuborish, usimlikka kimyoviy ishlov berish, chidamli navlar ekish. **Virus kasalliklari.** Kartoshkada bu kasallik barcha xujaliklarda uchraydi. Uning zarari ekologik sharoit bilan boglik bulib, zarar darajasi usimlik navi, tuprok uruglik sifati bilan uzviy boglik. Kasallikni – virus X – *Solanium virusl*, viruslar S, F, A, K, R keltirib chikaradi. Kasallikni aniklash uning tashki belgilari bir xilligi tufayli uni aniklashni kiyinlashtiradi. Kasallik uzgatuvchisini aniklashda elektron mikroskopdan foydalanish muxim amiyatga ega. Kasallikning infektsiya manbai – kasallangan usimlikdan tayyorlangan uruglik tuganaklar xisoblanadi. Infektsiya begona utlarda xam saklanadi. Kasallikni – virus X – *Solanium virusi*, viruslar S, F, A, K, R keltirib chikaradi. Kasallikni aniklash uning tashki belgilari bir xilligi tufayli uni aniklashni kiyinlashtiradi. Kasallik kuzgatuvchisini aniklashda elektron mikroskopdan foydalanish muxim axamiyatga ega. Kasallikning infektsiya manbai – kasallangan usimlikdan tayyorlangan uruglik tuganaklar xisoblanadi. Infektsiya begona utlarda xam saklanadi. Virus kasalliklari orasida eng kup tarkalgan turlar katoriga – bargni bukilishiga sabab buluvchi lentasimon virusni kiritish mumkin. Kasallik belgisi barg va poyada nekrozli doglarni xosil kilish bilan namoyon buladi. Nekroz barg bandida va poyasida xam kuzatiladi. Kasallangan poya nimjon

bulib, kurib koladi va osilib turadi. Infektsiya poyadan tuganakka utadi. Kasallik xavo xarorati 25 S bulganda yorokin namoyon buladi. Bargning kurishi gullash fazasiga kadar nomoyon bulganda xosilni 50% ga pasaytiradi. Kasallik kuzgatuvchisi Y virus bulib u pomidor, moxorka, bolgar

kalampirini kasallantiradi va ular vositasida tarkaladi. Kasasllik kuzgatuvchisini tarkatuvchisi shiralar bulib, usimliklar bir biri bilan tutashganda xam kasallanishi mumkin. Kasallik asosan tuganakda saklanadi. **Fungitsid** - Kasallik chakiruvchi zamburuglar bilan kurashda kullaniladigan maxsus zaxarli kimyoviy dori. Respublikamiz sharoitida tomatdoshlar oila vakillaridap pomidor, kartoshka, bolgar kalampiri, baklajon kabi usimliklar etishtiriladi. Bu usimliklarni etishtirishda agrotexnik tadbirlar utkazish muddatlariga karab oynaband issik

xonalarda va ochik joylarda amalga oshiriladi. Issik xonalarda ularni etishtirish jarayonida namlik mikdori 65-70 %, xarorat 22-26 S, usimlikning gullash davrida xarorat 24-28 S bulishi zarur. Tuprok xarorati 19-21 S ni tashkil kilishi kerak. Bu usimliklarni ochik joylarda etishtirilganda fitoftorioz, septarioz, makrosporioz, kora bakterial doglanish kabi kasalliklar bilan kasallanadi. YOpik oynaband issik xonalarda bargning kungir doglanishi, fitoftorioz, mozaika va uchki chirish kasalliklari bilan kasallanadi. Fitoftorioz yoki mevaning kungir chirishi kasalligi Peronosporales tartibi, Oomitsetlar sinfiga mansub Phutophora zamburugi keltirib chikaradi Kasallikning tarkalishi uchun kulay sharoit yoz oylarining ikkinchi yarmidan boshlanadi. Xavo xarorati kunduzgi 22 S, kschasi 10-12 S bulganda

zamburug sporolari tez tarkaladi. Kasallik bargda, poyada va mevada namoyon buladi. Bargning kirasida kungir rangdagi doglar paydo bulib, uning orka tomonida okish rangdagi zamburug sporolari etiladi. Barg bandida, poyada kungnr dog paydo buladi. Mevada turli davrlarda kungir doglar uning chirishiga sabab buladi. Nam sharoitda doglardagi zamburug sporasi rivojlanib mevani zararlaydi. Kasallikning birlamchn infektsiya manbai kartoshka ekilgan dalalardagi kasallangan usimlikdan tuprokda tushgan infektsiya xisoblanadi. Ikkilamchi infektsiya manbai esa kasallangan usimlikdagi zamburug sporasi xisoblanadi. Ustitsadan tashkariga chikkan zamburug zoosporalari kulay sharoitda usib rivojlanadi. Issik xonalarda kasallik katoshka ekin dalalaridan tarkaladi. Karshi kurash choralari: pomidor ekiladigan dalalarni kartoshka dalalaridan uzoklashtirish, kaliyli ugiltarni 150 kg gacha kullash, ekinlar chidamliligini oshiradi, usimlikni bordo suyukligi (600 l.1 ga), mis

xlorid bilan ishlov bsrish, xosilni zrta yigishtirish, chidamli navlarni ekish, ekin dalalaridagi usimlik koldiklarni uz vaktida yigishtirib olish zarur. **Makroporioz kasalligi.** Makrosporioz kasalligi usimlik bargini, poyasini va mevasini zararlaydi. Kasallik kuzgatuvchisi – Hyphomycetales tartibi takomillashmagan zamburuglar sinfi vakili Macrosporium solani xisoblanadi. Kasallik kuzgatuvchisi konidiya xosili kilib kupayadi. Kasallik belgisi bargda kuruk, dumalok doglar xosil buladi. Kasallik barg bandini, meva bandini, poya va mevani kasallantiradi. Kasallangan mevada dumalok, kungir doglar paydo buladi. Usimlik turli davrlarda kasallanadi. Zamburug asosan konidiyalar xosil kilib kupayadi. Zamburug usimlik koldiklarida va tuprok yuzasida xayot kechiradi. Karshi kurash choralari: tuprokn chukur xaydash, usimlik koldiklarini ekin dalasidan tashkariga chikarib tashlash, usimlikka mis xlorid bilan ishlov berish (3-4 marta), chidamli navlar ekish, almashlab ekishga amal kilish (2-3 yil davomida bir dalaga pomidorni kayta ekmaslik), pomidor urugini ekishdan oldin fungitsidlar bilan ishlov berish. Barglarning ok doglanish kasalligi - spitorioz. Kasallak kuzgatuvchisi: takomillashmagan zamburuglar sinfi, Sphaeropsidales tartibi vakili, Septoria lycopersici turi xisoblanadi. Kasallik asosan ochik dalalarda rivojlanadi, ba'zan issik xonalarda xam boshlanadi. Kasallik asosan bargda, barg bandi, poya va mevalarda namoyon

buladi. Kasallikning tashki belgisi barg atrofida koramtir nuqtalar bilan uralgan okish rangdagi doglar xosil bulishidan boshlanadi. Doglarning urtasida keyinchalik zamburug pektinidiyalari xosil buladi. Xosil bulgan sporalar rangsiz, ipsimon, kisman egilgan buladi. Kasallik keng tarkalganda

doglar tuplanib ketib butun barg yuzini urab oladi. Kasallangan barglar kungir rangga kirib, kurib koladi va tushib ketadi. Kasallik kuzgatuvchilarning infektsiya manbai: usimlik koldigida kishlab

chikkan zamburug sporalari bulib, kayta zararlash peknidosporalar vositasida amalga oshadi. Kasallik 70-94% namlik va 15-27 S tez rivojlanadi. Kasallikka karshi kurash choralari: usimlik koldiklarini ygishtirib olish, tuprokn chukur xaydash, almashlab ekishga rioya kilish, fungitsidlar bilan ishlov berish (1 % bordo suyukligi, 80 % li tsinab eritmasi bilan 10-15 kunda ishlov

berish), chidamli navlarni ekish. Bargning kungir doglanishi - Kladosporioz. Kasallik kuzgatuvchisi

takomillashmagan zamburuglar sinfi Hyphomycetales tartibi vakili, Cladosporium fulvut turi xisoblanadi. Kladosporioz kasalligi belgilari usimlikning bargda va gullash davrining dastlabki

boskichida, gulda xamda mevalarda xosil buladi. Bargning ustki tomonida xar xil shakldagi va ulchamdagi doglar paydo buladi. Bargning orka tomonida esa yashil kungir rangdagi doglar ustida zamburug mitseliysida xosil bulgan zamburug konidiyalari vositasida tarkaladi.

Kasallangan barglar

sargayib kurib ketadi. Gul va mevalar kasallanganda xam ular kungir ranga kirib, kuriydi va xalok buladi. Kasallik issik xonalarda 90-95 % namlikda va 22 - 25 S xaroratda tez kupayadi, tuprokda 60-65 % namlikda kasallik kamayadi. Infektsiya asosan konidiya shaklida usimlik koldiklarida saklanib k. oladi. Kasallikka karshi kurash choralari: usimlik koldiklarini uz vaktida yigishtirib tashlash, vegetetsiya davrida issik xonalar namligini 60-70 % saklash, usimlikni benomil (0,1 %), kaptan (0,5 %) fungitsidlar bilan ishlov berish, kasallikka chidamli navlarni etishtirish. Pomidor usimligidagi virus va mikoplazma kasalliklari katoriga mozaika, strik va stolbur kabilar kiradi. Mozaika kasalligini viruslar keltirib chikaradi. Ular ochik ekin dalalarida va issik xonalarda kup uchraydi. Kasallik kuzgatuvchisi - VTM – Nicotiana virus bulib, kasallik belgisi asosan barg plastinkasida yashil rangni och yashil va sargish yashil bilan almashishi asosida namoyon buladi. VTM virusining ayrimlari mevalarda uziga xos nekroz xosil kiladi. Meva tubidan boshlangan kasallik urug tusiklari buylab barcha parenximalarni kasallantiradi. Kasallikni kelib chikishida ba'zan kartoshkaning X va U virusi va bodring mozaikasi xam katnashadi. Bunday xollarda bargda, poyada va mevada kizgish kungir rangdagi doglar pando buladi. Kasallangan barglar nimjon bulib, keyinchalik kurib koladi. Kasallangan mevalar esa kungir doglar uni shaklini uzgarishiga olib keladi yoki ular yorilib ketadi. Kasallik usimlik shirasini xashoratlar shimganda ular vositasida tarkaladi. Kasallikning infektsiya manbayi usimlik koldiklari va kasallangan urug xisoblanadi.

Karshi kurash choralari: soglom usimlikdan urug tayyorlash va urugga 1 % li KMgO eritmasi (20 min) va 50-52 S bug bilan ishlov berish, issik xona va ekin dalalarini usimlik koldiklaridan tozalash va 5% KMgO, 10% KRO eritmasi bilan tuprokni porlash, kuchatlarni dastlab vaktsinatsiya kilish

zarur; agrotexnik tadbirlar: kuchatlarni uz vaktida ekish, sugorish, azotli va fosforli ugittlarni normada kullash, teplitsada normal xarorat, namlik, yoruglikni saklash.

Ildiz chirish kasalligi. Kasallik kuzgatuvchisi Rhizoctonia solani va Pythium va Fusarium zamburuglari xisoblanadi. Kasallik asosan pomidor kuchatlarini zararlaydi. Kasallik kuchatlarining ildiz bugizini chirishi shaklida namoyon buladi. Ildiz bugizi dastlab ok rangdagi zamburug

mitseliysi bilan koplanadi. Zararlangan kism yuzasida xosil bulgan mitseliydagi konidiyalar vositasida kasallik kuzgatuvchilari tuprokda tarkaladi. Ildiz chirish kasalligi ochik dalalarida kup uchraydi. Zararlangan ildizlar pustlok parenximasi, floema tukimalari chirib ildizning kurib kolishiga sabab buladi. Kasallangan usimlik usishdan orkada koladi, pastki yaruslardagi barglar yuzasi sargayib poyaning er yuzasiga yakin kismida kushimcha ildizlarni kiladi. Karshi kurash choralari: issik xonalarda kuchatlarni pikirovka kilishda ularning ildizini 3 % dezoral, fundazol fungitsidlari eritmasida 1 soat davomida saklab keyin tuprokda ekish, tuprokdagi usimlik koldiklarini uz vaktida yigishtirib olish, tuprokda organik ugittlarni kullash kerak.

Pomidor nihollari kasalliklarini tuprokda uchraydi-gan zamburuglar (*Fusarium solani*, *Fusarium spp.*, *Rhizoctonia solani*, *Pythium spp.*, *Phytophthora spp.*, *Thielaviopsis basicola*) va ba'zi bak-teriyalar (*Erwinia sp.*) kuzgatadi. Ekilgan urug va unayotgan maysalar tuprok ostidayok chirib ketishi mumkin.

Tuprok yuzasiga chikkan ni^ollarning ildiz bugzi ingichkalashib Kungir, sungra kora tue oladi ("kora oyok" kasalligi), ni^ollar buj-mayib, nobud buladi. Kuzgatuvchi zararlangan nix;ol atrofidagi usimliklarga xam utadi va kasallikning uchoklari paydo buladi. Bu xolat ayniksa issikxonalarda tez-tez uchraydi. Kechrok zararlangan nix;ollar >;alok bulmaydi, ammo ildiz bugzi ingichkalashadi va tuk tue oladi, ildizlari yaxshi rivojlanmaydi, kuchirib ekilganda yaxshi tutib ketmaydi.

Odatda ildiz va ildiz bugzi zararlanishi kuchatlar issikxonaga kuchirib ekilgan kundan boshlab 6 x;afta davomida kuzatiladi. Baig" utishi bilan pomidorning *Rhizoctonia solani* va *Phytophthora* spp. zamburuglariga chidamliligi kuchayib boradi va 6 x;aftadan keyin kuchatlar kam lollarda zararlanadi.

Kasallikka pomidordan tashkari baklajon, kalampir turlari va begona utlar x;am chalinadi. Tuprokda kuzgatuvchilarning propagulalari kancha kup balsa, ob->;avo faktorlari bilan boglikxrlida, zararlangan ni^ollar soni >;am shuncha kup va zararlanish darajasi shuncha baland buladi. ^arorat past (4-10°S) va namlikning yukori bulishi (yomgir, shud-ring), sovuk suv bilan sugorish, kuchatlarning zich joylashishi, kuchirib ekish uz vaktidan kechiktirilishi, nix;ollar orasida shamol yaxshi yurmasli-gi, tuprok ustida katkalok paydo bulishi nix;ol kasalliklarini ku~chaytiradi.

Kuzgatuvchi zamburuglar tuprokda saklanadi. Issikxonada >;ar yili usha tuprokn i ishlatish unda patogen zamburuglar mikdori kupayib borishiga va kasallik uchoklari paydo bulishiga olib keladi.

Rhizoctonia solani Uzbekistonning barcha mintakalarida tarkalgan va bu zamburug xakida batafeil ma'lumotlar "Kartoshka nix;ollari rizoktoniozi" bulimida bayon etilgan. Zamburug pomidorning ildiz bugzida KURUK, och-kungir doglar rivojlanishiga olib keladi; doglar ustida ba'zan, lupa bilan oson kurinadigan och-kungir mogor paydo buladi. *T. basicola* Uzbekistonning janubida (Surxondaryo viloyati-da) ancha keng tarkalgan, boshka mintakalarda kam uchraydi.

20. Poliz ekinlari *melojoginozini* *Meloidogyne incognita* va boshka gall nematodalari kuzgatadi. Kasallik bilan barcha poliz ekinlari zararlanadi; ularning ildizlarida gallar rivojlanadi, Usimlik palaklari kalta bulib koladi, barglar och-yashil tue oladi, sargayadi. Ildizi kuchli zararlangan Usimliklar tuprokdan suvni etarlicha ola olmaydi, natijada suladi.

Kasallik va kuzgatuvchilarning boshka belgilari xamda ularga karshi kurash choralari "Pomidor kasalliklari" bobida keltirilgan.

Bodring melojoginozi issixxonalar va dalalarda Uzbekistonda Xam keng tarkalgan (MacNab et al., 1983; Mavlyanov, 1987; Bernhardt et al., 1988).

21. Poliz ekinlari *ifloslangan* xavo bilan zararlanishining belgilari usimlik xavodagi kaysi modda bilan zararlanishiga boglik. Zararlangan ekinlarning xosili va xosil sifati pasayadi.

Ozon bilan zararlanishga tarvuz va uris kovok juda chidamsiz, bodring juda chidamli, oddiy kovok bilan mushk kovunning chidam-liligi urtacha darajada. Oldin pastki yarus barglari zararlanadi, ularning *ustki* tomonida tomirchalari orasida ok doglar rivojlanadi va barglarning usti tur-tur bulib koladi (119 - rasm). Xlorotik tukimalar sungra kungir tue oladi. Ozon

avtomobil motorlaridan chikkan ishlatilgan gazlardan kuyosh nuri ta'sirida xosil buladi. Barglarga ozon ulardagi nafas olish teshikchalari orkali kiradi.

Oltinugurt oksidi bilan zararlanishga barcha poliz ekinlari juda chidamsiz. Zararlangan usimliklarning barglari chetlari va tomirchalari oralarida xloroz, utkir zararlanish yuz berganda esa nekrozlar rivojlanadi (120 - rasm). YOSH, ammotula ochilgan barglar zararlanishga uta chidamsiz. Oltinugurt oksidi metallarni eri-tish, sulfat kislotasi ishlab chikarish, kumir yoki gaz yokish jarayon-larida paydo buladi; usimliklarga zarari juda yukori xarorat va namlik mavjudligida kuchayadi (Bernhardt et al., 1988).

Poliz ekinlariga ozutsa moddalar etishmasligi. Azot: barglar pastki yarusdan tepaga karab birin-ketin sargayadi va kuriydi. Bodringning mevalari, ayniksa ularning uchlari ingichka bulib koladi. Kovun mevalari kichik, och-rangli, yupka kobikli va uruglari kichik bulib koladi. Fosfor: usimliklarning bugin ora-lari kiska, natijada buyi kalta bulib koladi, barg tomirlari va bandlari kizgish tuk-kungir tue oladi, gullari kam rivojlanadi. Kaliy, YOSH barglarning chetlari piyolaga uxshab ichiga bukiladi, chetlari okaradi yoki sargayadi (121 - rasm). Barglarda, pastki yarusdan boshlab, kUngir doglar rivojlanadi. Bodring mevalari kungir tue oladi yoki doglar bilan krplanadi, tukmok shaklini oladi. Mushk kovunning eti mayda donador va achchik bulib koladi. Magniy: pastki yarusdan boshlab barglarning tomirchalari orasi okaradi, tomir-chalar yashil rangini saklaydi, barglar olachipor bulib koladi. YOsh barglar burishadi, murt, oson sinuvchan bulib, sungra kurib koladi. Temir: yosh barglarning tomirchalari oralari sargayadi (122 -rasm), pastki yarusdagi barglar esa uzining yashil rangini saklab Koladi. Kaltsiy: barglar chetlari usmaydi, piyola shaklida, ichiga Karab bukiladi (123 - rasm). Kaltsiy etishmasligi va tuprok namligi keskin uzgarishi natijasida poliz ekinlari mevalarining tepasi chirishi kuzatiladi. Usimliklarning ildiz tizimi parazit zamburuglar bilan zararlangan bulishi xam kaltsiy etishmasligi va mevalar tepasi chirishiga olib kelishi mumkin. Marganets: yosh barglarning tomirchalari orasi okaradi va sargayadi (124 - rasm).

Bor; usimliklarning Usish nuktalari sargayadi va kuriydi, barglari doglar bilan koplanadi. *Molibden:* pastki yarusdan boshlab barg tomirchalari oralari sargayadi, sungra barglarning chetlari kuriydi (125 - rasm).

Ozuka elementlari etishmasligi tuproklar juda nordon yoki ishkorli bulganida kuzatiladi. Ugitlarning ortikcha me'yorlari yoki ularda moddalar balansi saklanmasligi xam usimlik ba'zi mikro-elementlarni uzlashtira olmasligiga sabab buladi.

Kurash choralari. Tuprokka elementlar balansi saklangan ugitlarni kiritish; ekinga tuprokda etishmasligi kuzatilgan mikro-elementlar eritmalarini purkash; tuprokda rN ni normaga kelti-rish lozim (Bernhardt et al., 1988; Vyangelyauskayte i dr. 1989).

12-Mavzu: Mevali daraxtlarining kasalliklari hamda ularga qarshi kurash choralari

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	Olma va nokning parsha,qora rang unshudring,zang meva chirishi, teshikli doglanish, shira oqish,monilioz, shaftoli bargining bujmayishi, olxo`ri va olcha mevalarining kovakichlik kasalligi, olxo`ri barglarining qizil dog`lanish kasalligi va boshqa kasalliklari. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari,tarqalishi,kasallik belgilarining namoyon bo`lish muddatlari va xususiyatlari,infeksiyani saqlanishi. Kasallikka qarshi kurash choralari.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda meva daraxtlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari to`grisida tushuncha hosil qilish.</i>	


Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talabalarda fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo'ladilar, asosiy ma'lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabanning
1 bosqich 1.1 O'quv xujjatlarini to'ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O'quv mashg'ulotiga kirish (10min)	1.1. Mavzu bo'yicha ma'lumotlar beriladi. O'quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi. Mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlar beriladi. Ma'ruza davomida mavzu bo'yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish.	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

URUG'LI MEVALAR KASALLIKLARI

Parsha. Olma parshasini sumkali zamburug' *Venturia inaequalis* (Cooke) Wint., nok parshasini esa – *Venturia pirina* Aderh. (Ascomycetes sinfi, Schaeriales tartibi) chaqiradi. Olma parshasini chaqiruvchi konidial bosqichida *Fusicladium dendriticum* (Wallr.) Fuck., nok parshasini chaqiruvchi esa – *Fusicladium pirinum* Fuck. deyiladi. YOz davomida zamburug' konidialari bilan tarqaladi. Birlamchi zararlanishni sumkasporalilar chaqiradi, ular qishlagan barglarida rivojlanadi. Asosan barg va mevalar, nokda esa novdalar ham zararlanadi.



Barglarda kasallik dastlab kuchsiz namoyon bo'lgan sariq moysimon dog'lar shaklida namoyon bo'ladi, keyin ularda baxmalsimon qatlam (ko'proq xos bo'lgan belgi) hosil bo'ladi. Qatlam dastlab zaytun rangli, keyin qo'ng'ir, u chaqiruvchi konidiya tashuvchilari va epidermisni teshigidan chiqqan konidialardan iborat bo'ladi. Dog'lar barg yoshiga, namni moyilligiga, zararlanish vaqtiga bog'liq ravishda, yumaloq, o'lchami 2 – 7 (10 – 12 gacha) mm bo'lishi mumkin. Qatlam olma barglarida asosan yuqori qismida joylashgan, nok barglarida esa aksincha pastki tomonidan va tomirlar bo'ylab joylashadi.

Mevalarda dog'lar yumaloq, keskin chegaralangan, spora tashuvchilarni sezilarli qatlami bilan yoki ularsiz. Kasallangan va sog'lom to'qima chegarasida ochiq rangli chiziq yaqqol namoyon bo'ladi, u to'qimani yirtilishi natijasida hosil bo'ladi. YOsh mevalar zararlanganda ular asosan bir yonlab o'sadi, zararlanish joyida darz ketadilar, ayniqsa nok.

Novdalarda dastlab po'stloqning uncha katta bo'lmagan shishlari paydo bo'ladi, keyin ular yirtiladi, bundan keyin esa po'stloq ko'ndalang va eniga teshiklar bilan qoplanadi va tushib boshlaydi.

Zararlanish gullar va tojbarglarda, shuningdek barg bandlari va plodonojkalarda ham namoyon bo'lishi mumkin, buning natijasida barg va mevalar ertaroq tushib boshlaydi.

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

Topshiriq 3.

Olmaning un shudringi. CHaqiruvchi – sumkali zamburug` *Podosphaera leucotricha* (Ell. et Ev.) Salm. (Ascomycetes sinfi, Erysiphales tartibi). Barg, novda, gul va mevalarini shikastlaydi.

Barglarda kulrang-oq tusli yoki ko'pincha unsimon qatlam, vaqt o'tishi bilan malla rangga kiradi. Barglar rivojlanmagan, ko'pincha qayiqchasimon buraladilar va vaqtdan oldin tushib qoladilar.

Qatlam mitseliy va spora tashuvchilarning yuzgi konidial bosqichidan iborat bo'ladi. Konidialari rangsiz, bir hujayrali, ellipssimon, rangsiz tsilindrik konidiya tashuvchilarda zanjir (6 – 9 tadan) bo'lib joylashgan (rasm 76).



Novdalarda dastlab oq yoki iflos-kulrang un qatlam hosil bo`lib, keyinchalik u qorayadi va ko`p sonli qora nuqtalar – chaqiruvchining meva tanalari bilan qoplanadi.

Un shudring bilan zararlangan gultuplar quriydi. Gulbarglari, kosachabarglari, gulbandlari oq unsimon qatlam bilan qoplangan.

Mevalarda kasallik “zang to`ri” shaklida namoyon bo`lib, mevani mexanik shikastlanishida yoki fungitsidlar bilan ishlaganda paydo bo`ladigan po`kkak to`qimaga o`xshaydi. Mevalarda sumkali bosqich rivojlanganida birgalikda joylashgan qora nuqtalari – meva tanalari (kleystotetsiyalar) paydo bo`ladi.

Kleystotetsiyalar to`q-qo`ng`ir, sharsimon, uzun, kleystotetsiyalar asosida qisqa, egri qo`shimchali. Xar bir kleystotetsiyada bitta yoki ikkita sumka bo`lib, har birida 8 ta sumkaspora joylashadi. Sumkasporalari bir hujayrali, oval, rangsiz.


Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

Topshiriq 3.

Olma va nok moniliozi. Kasallikni turli shakllarini – meva chirigi, gullarning monilial kuyishini chaqiruvchi *Monilia fructigena*, *M. cinerea* f. *mali*, *M. cydoniae* va b. lar bo`lishi mumkin.

A. Meva chirigi – urug`lilarda moniliozning keng tarqalgan shakli, uni *Monilia fructigena* Pers. (Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibi) zamburug`i chaqiradi. Zararlanish kichik qo`ng`ir dog`dan boshlanadi, u tezda kattalashib butun sirtini qoplaydi. Meva qo`ng`ir bo`lib qoladi, yumshaydi va o`zining ta`m xususiyatlarini yo`qotadi. Meva sirtida zamburug`ning konidial spora tashuvchisi sariq – qo`ng`ir yostiqliklar shaklida paydo bo`ladi. Ular zich chirmashgan gifalardan iborat kontsentrik xalqalar shaklida bo`lib, ularning uchlaridan sporalar – konidiyalar zanjiri joylashgan kichik konidiya tashuvchilar chiqadi. Zanjirdagi konidiyalar yumaloq yoki limonsimon, 17,5-25x11-15 mkm (rasm 77).



Chirik rivojlanishi uchun noqulay sharoitlarda konidial spora tashuvchilar rivojlanmasligi ham mumkin. Bu xolda meva tezda qora yoki ko'k-qora rangga kiradi va mumlanadi. Meva chirigi mumiyosi odatda sirtidan silliq, yaltiroq, ko'k tusli (ko'p sonli piknidlar sababli g'adir-budur sirtga ega qora rakning qora yoki to'q-qo'ng'ir tusidan farqli ravishda).

Urug'li mevalarni chirigini danakli mevalar chirigini chaqiruvchi zamburug' *Monilia cinerea* Pers. kamdan-kam xollarda chaqirishi mumkin. *M. cinerea* konidial spora tashuvchilari yostiqliklari *M. fructigena* dan farqli ravishda kulrang, maydaroq va kontsentrik xalqalar bo'ylab joylashmagan.

B. Monial kuyish. Moniliozning ushbu shakli gullar qo'ng'irlashishi va qurishida, kolchatkalar, meva shoxlari, meva cho'plari zararlanishida namoyon bo'ladi. Olmani monial kuyishini chaqiruvchilar: Evropa tomonlarda *Monilia cinerea* f. *mali*, faqat konidial bosqichda *M. fructigena* kabi rivojlanuvchi, Uzoq SHarqda – sumkali zamburug' *Sclerotinia mali* Takahashi [yangi klassifikatsiya bo'yicha – *Monilinia mali* (Takah.) Jamamoto]; kam xollarda olmani monial kuyishini nokni monial kuyishini chaqiruvchi *M. fructigena* chaqirishi mumkin.

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

Qora rak. Qo'zg'atuvchi belgilari – nomukammal piknidial zamburug' *Sphaeropsis malorum* Peck. (Deuteromycetes sinfi, Pycnidiales tartibi).

Kasallik barcha er usti qismlarida – barglarda, mevalarda, gullarda, ayniqsa zararli shikastlangan shoxlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Barglarda qo'ng'ir yoki zonal dog'lilik paydo bo'ladi. Qora rak dog'liligini fillostikta va kuyishdan farqlovchi belgi bu yaqqol namoyon bo'lgan zonallik. Dog'lar ko'pincha lopastlar shaklida bo'ladi (birinchi dog'dan keyin ikkinchi dog' hosil bo'lib, birinchidan chiqayotgandek tuyuladi). Dastlab dog'lar qizil-qo'ng'ir, keyinchalik ular kulrangga aylanadi va qora nuqtalar – piknidlar bilan qoplanadi. Ammo piknidlar hamisha ham hosil bo'lmaydi yoki kech paydo bo'lishi mumkin, bu tashxisni qiyinlashtiradi.

Mevalarda qora rak qora chirik shaklida namoyon bo'ladi. Zararlanish qo'ng'ir, asta-sekin kattalashayotgan dog'dan boshlanadi, unda keyinchalik po'stloq ostidan qavariq chiqib turgan qora nuqtalar – piknidlar hosil bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan meva qorayadi va mumiyolanadi, u meva chirigi mumiyosiga juda o'xshash bo'ladi. Ammo undan farqli ravishda ko'k tusga ega emas va meva sirtini qoplagan piknidlar sababli g'adir-budur sirtli bo'ladi.

Gullar va g'o'ralar zararlanganda tojbarglar qo'ng'irlashadi va bujmayadi, changchi va urug'chi qorayadi.

SHoxlarda, skelet shabbalarda, shtambda zamburug' po'stloqni o'lishiga olib keladi. O'z rivojlanishini po'stloqni shikastlangan joyidan zamburug' pastga yoki yuqori juda katta tezlikda

boshlashi mumkin. Zararlangan po'stloq vaqt o'tishi bilan qorayadi, darz ketadi va rangsizlanadi (qora rakni tsitosporozdan farqi, tsitosporozda po'stloqni qizil – qo'ng'ir rangi saqlanib qoladi va po'stloqni ajratganda u yumshab tushadi). Po'stloqda hosil bo'lgan piknidlar undan o'zlarining og'izchalari bilan yopirilib chiqishida va po'stloq sirtini g'adir-budur qilishadi. Ko'tarilishlar (piknidlar) tsitosporozdan farqli ravishda juda mayda (rasm 78).



Sporalardagi piknidlar bir hujayrali yoki bir to'sinli, ovalsimon (ellipssimon), qalin va qora po'stloqli, o'lchamlari 24-30x10-12 mkm. Ko'pchilik sporalar sariq-yashil yoki qo'ng'ir rangli. Spora etilgan sari rangi to'q bo'lib boradi. YOsh sporalar rangsiz.

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

TSitosporoz yoki infeksiyon qurish barcha mevalilarda uchraydi va *Cytospora* turkumi zamburug'lari tomonidan chaqiriladi (Deuteromycetes sinfi, Pycnidiales tartibi). Urug'lilarda asosan *Cytospora capitata* Sacc. et Schulz. (*C. schulzeri* Sacc. et Syd.) va *Cytospora carposperma* Fr. rivojlanadi. Danaklilarda – *Cytospora rubescens* Fr. (*C. leucostoma* Sacc.).

Kasallik turli yoshdagi o'simliklarda va shoxlarda namoyon bo'lishi mumkin. Po'stloq quriydi, qizil-jigarrangga kiradi, va ko'p sonli yaxshi ko'rinuvchi qora shishlar bilan qoplanadi, ular po'stloq ostidagi piknidlar og'izchalaridir. Piknidlar kesilgan konus shaklida bo'lib, bir-ikki, yoki ko'p kamerali bo'lishi mumkin. Piknidlardagi sporalar mayda, o'lchamlari 4-6,5x1,0-1,8 mkm, rangsiz, ozgina egilgan (rasm 78). Danaklilarda sporalar ko'pincha piknidlardan yopishgan qizil yoki pushti rangli ip-xivchinlar shaklida chiqadi. Kasallangan po'stloq rangini yo'qotmaydi, uni yog'ochdan ajratishda yumshab qoladi.

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

Topshiriq 3.

20-jadval

Olmani yarali (oddiy, g'arbiy, evropa) raki. Qo'zg'atuvchi belgilari– sumkali zamburug' *Nectria galligena* Bres. (Ascomycetes sinfi, Hypocreales tartibi), konidial bosqichi *Cylindrosporium mali* (All.) Wr. SHoxlar va shtambda chuqur darzlar – jarohatlar shaklida namoyon bo'lib, ayrim xollarda daraxtning o'rtasigacha etib boradi, chetlarida o'ziga xos bujmaygan bo'ladi.

YArali rakni ikki shakli farqlanadi – yopiq va ochiq. YOpiq shaklda rak o`simtalari jarohatni to`liq qoplaydi, faqat chirigan massa bilan to`lgan kichik teshik qoladi. Ko`pincha sumkali spora tashuvchi. Peritetsiyalar sharsimon, to`q-jigarrang, sumkalari gurzisimon; sumkasporalari ellipssimon, qalin devorli, ikki hujayrali, rangsiz yoki ozgina sariq, o`lchami 11,5-22x5,5-9,2 mkm (rasm 79).



Konidial spora tashuvchilari to`q-qizil shishlar shaklida jarohat atrofida rivojlanadi va makro- hamda mikrokonidiyalar shaklida bo`ladi. Makrokonidiyalar rangsiz, tsilindrik, ozgina egilgan, ko`pincha 5 to`siqli, o`lchami 55-75x4-5,5 mkm.

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

21-jadval

Fillostiktoz (qo`ng`ir dog`lilik, barglarning kulrang dog`liliği). Olmada chaqiruvchi – ko`pincha *Phyllosticta mali* Pr. et Del., kam xollarda – *Phyllosticta briardi* Sacc.; nokda – *Ph. pirina* Sacc. *Phyllosticta* – nomukammal piknidial zamburug` (Deuteromycetes sinfi, Pycnidiales tartibi). Qishlagan barglarda rivojlanuvchi sumkali bosqichi *Mycosphaerella* turkumiga mansub (Ascomycetes sinfi, Sphaeriales tartibi).

Kasallik barglarda namoyon bo`ladi. *Ph. mali* zamburug`i bilan zararlanganda dog`lar yumaloq, mayda, dastlab qo`ng`ir, keyin esa kulrang, to`q-jigarrang chegarali. Piknidlari qora. *Ph. briardi* bilan zararlanganda dog`lar oxra yoki ochiq – sariq rangda, chegarasiz. Piknidlari qora. *Ph. pirina* bilan zararlanganda dog`lar odatda qo`ng`ir, yumaloq yoki noto`g`ri shaklda, ko`pincha birlashgan. Piknidlari qo`ng`ir.

Pikniddagi sporalari (uchala turda ham) bir hujayrali, rangsiz; *Ph. mali* va *Ph. pirina* da – ovalsimon yoki ellipssimon; *Ph. briardi* da – deyarli tsilindrik.

Sporalar o`lchamlari: *Ph. Mali* 5-8,5x3-4,5 mkm; *Ph. briardi* 4-5x1,5-2 mkm; *Ph. pirina* 4-5x2-2,5 mkm.

Topshiriq 1.


Topshiriq 2.

Topshiriq 3.

Nok barglari septoriozi (oq dog`lilik). CHaqiruvchi nomukammal piknidial zamburug` *Septoria piricola* Desm. (Deuteromycetes sinfi, Pycnidiales tartibi).

Barglarida dog`lar mayda, kulrang yoki oq, to`q-qo`ng`ir chegara bilan o`ralgan. Markaziy qismida vaqt o`tishi bilan ko`zga ko`rinuvchi piknidlar hosil bo`ladi.

Piknidlari sharsimon shaklda, yoki ozgina bosiq. Piknidlardagi sporalar rangsiz, ipsimon, egilgan, bir nechta ko'ndalang to'siqli, o'lchamlari 46-60x3,5 mkm (rasm 80).



Qishlagan barglarda zamburug'ning sumkali bosqichi – *Mycosphaerella sentina* Schrot rivojlanadi.

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

Topshiriq 3.

Qo'ng'irlik, qo'ng'ir dog'lilik, entomosporium. Qo'zg'atuvchi belgilari– *Entomosporium maculatum* Lev. f. *maculata* Kleb. (Deuteromycetes sinfi, Pseudopicnidiales tartibi).

Asosan nokning unib chiqqan o'simliklarida uchraydi (kam xollarda olma va bexining unib chiqqan o'simliklarida).

Barglarda juda mayda, ko'p sonli, birlashuvchi qo'ng'ir yoki kulrang dog'lar. Konidial spora tashuvchilar asosan yuqori qismida kutikula ostida joylashtirilgan qora yostiqliklar (pseudopiknidlar) shaklida rivojlanadi.

Novdalar va barg bandlarida shunga o'xshash, botiq dog'lar. Novdalar ingichkalanadilar va kuchli zararlanishda ilon kabi egiladilar.

Sporalari to'rt hujayrali, "xojsimon", rangsiz, to'rtta hujayraning uchtasini uchida rangsiz tukchali (to'rtinchi spora konidiya tashuvchiga birlashgan) (rasm 80).

22-jadval

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

Topshiriq 3.

Olma, nok, behi zangi. Olma zangini *Gymnosporangium tremelloides* Hartig [G. *Juniperinum* (L.) Mart.] zamburug'i; nok zangini – *Gymnosporangium sabinae* (Dicks.) Wint. va *G. dobrozracovae* Mitroph.; behi zangini – *G. confusum* Plowr. zamburug'lari chaqiradi. Ular Basidiomycetes sinfi, Uredinales tartibiga kiradi.

Asosan barglar va ularning bandlari shikastlanadi. Nok barglarida *Gymnosporangium sabinae* bilan zararlantirganda dog'lar yumaloq, malla-sariq, malina rangli chegarali, *G. dobrozracovae* bilan zararlantirganda esa malina rangli, chegarasiz. Dog'larning yuqori sirtida mayda qora nuqtalar – chaqiruvchi spermogoniyalari yaqqol ko'rinib turadi. Bargning pastki qismida cho'ziq konussimon o'simtalar (etsidiyalar) bo'lib, ular mo'yqalam kabi ochiladi.

Olma barglarida yuqori qismida qora nuqtali (spermogoniyali) malla, sariq yoki qizg'ish dog'lar; pastki qismida esa yulduzsimon ochiladigan konussimon o'simtalar (etsidiyalar) (rasm 81).

Behi barglarida – yuqori qismida qora nuqtali yostiqtchasimon malla-qizil dog'lar; pastki tomonida uzun, nur kabi tarqalgan, yulduzsimon ochiladigan tukchali konussimon o'simtalar (etsidiyalar).



Zangning ikkinchi xo'jaini – mojjevelniklar turlari: nok zangi uchun tikonli yoki baland, olma va behi zangi uchun oddiy. Mojjevelnika zararlanish barglarida, shishkalarida, shoxlarida namoyon bo'ladi. Bahorda qalinlashgan zararlangan qismlarida shokolad-jigarrangli shishlar – zamburug' teleytosporalari to'plami rivojlanadi. YOmgi'irli ob – havoda ular bo'kadi, studensimon massaga aylanadi va bazidial spora tashuvchilar sifatida o'sib chiqadi. Qurigan bazidiosporalar yaqqol ko'rinuvchi oltin-malla rangli qatlam hosil qiladi.

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

Sut yaltirog'i. Kasallik barglar rangini o'zgarishida, yaltiroqlik bilan kuzatiladigan o'ziga xos "sut" tusi paydo bo'lishi bilan boradi. Keyinchalik bunday "perlamutr" barglarda asosan asosiy tomirlar orasida va barg chetlarida joylashadigan nekrozlar (o'lik to'qimalar bo'laklari) hosil bo'lishi mumkin. Barglar quruq va mo'rt bo'lib qoladi. Zararlangan shox kesimida yog'ochlikning qo'ng'irlashgani kuzatiladi.

Sut yaltirog'ining asosiy sabablaridan biri bu yog'ochlikning muzlashi va unga *Stereum puroureum* Pers. (Basidiomycetes sinfi, Homobasidiomycetes ost sinfi, Aphyllophorales tartibi) zamburug'ining tushishi va rivojlanishi bo'ladi. Bunda zararlangan shoxlar odatda o'ladi, qurigan shoxlar po'stida esa yoz oxiriga kelib zamburug'ning meva tanalari novda yoki shoxga yon tomondan yopishgan 2-3 sm kattalikdagi po'stli plastinkalar shaklida hosil bo'ladi. Meva tanachalar sirti tukli, oq-kulrang, pastki qismi esa silliq, dastlab binafsha, keyin esa jigarrang.

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

Bakterial rak yoki bakterial nekroz. Qo'zg'atuvchi belgilari – *Pseudomonas syringae* van Hall., *Pseudomonas cerasi* Griffin.

Kasallik bahorda murtaklar va ular atrofida po'stloqni qurishi, gullarni so'lishi, barglar va yosh novdalarning qorayishi va qurishi shaklida namoyon bo'ladi. Eng xos belgi – barglar nekrozi, u odatda barglar uchi yoki chetlaridan boshlanadi va vaqt o'tishi bilan butun plastinkani qoplaydi. Barglardan bakteriyalar tomirlar bo'ylab barg bandlariga va undan novdalarga tarqaladi. Zararlangan novdalar o'sishi to'xtaydi, qiyshayadi, qo'ng'irlashadi va quriydi.

Novdalarning ko'ndalang kesimida tomirlarning xalqalar yoki ayrim nuqtalar shaklidagi qorayishi kuzatiladi.

Zararlangan shoxlarda po'stloq "pufakli epidermis"li bo'ladi va quruq hamda issiq ob – havoda ochiq-qo'ng'ir rangga kiradi.

Zararlangan to'qimalar sog'lom qismlardan yaqqol chegaralangan (rasm 82).

Bakterial rakni meva kuyishidan asosiy farqlari:

- 1) tabiiy sharoitlarda sut-oq eksudatning bo'lmasligi;
- 2) kasallikning sekin borishi (tez boradigan shakllari ham uchraydi).

Bakterial rak va bakterial nekroz chaqiruvchi bakteriyalar (*Ps. syringae*, *Ps. cerasi*) – grammanfiy, spora hosil qilmaydigan, harakatchan, qutbli joylashgan hivchinli, oʻlchamlari 0,4-0,7x1,2-1,8 mkm boʻlgan tayoqchalar. Goʻsht-peptonli muhitdagi koloniyalari kulrang-oq, yumaloq, qavariq, sirti ozgina chizilgan, chetlari tekis yoki kuchsiz kesilgan.

Mevalilarning bakterial kuyishi. *Erwinia amylovora* Com. S. A. B. chaqiruvchi karantin kasallik.

Tashqi belgilariga koʻra bakterial kuyish *Pseudomonas* turkumi bakteriyalari (*Ps. syringae*, *Ps. cerasi*) chaqiruvchi bakterial rak yoki bakterial nekrozga juda oʻxshash (rasm 82). YAngi ochilgan gullari va yosh novdalari birdan qorayadi va quriydi. Barglar qorayadi va buraladi, ammo shoxda osilib turadi. Zararlangan zavyazlar va yosh mevalar (etuk mevalar zararlanmaydi) shuningdek qorayadi va shoxda osilib qoladi (bakterial rakdan farqli ravishda).



Novdalar, shuningdek shoxlar zararlangandan keyin koʻp miqdorda bakteriyalar tutgan shira bilan toʻladi. Poʻstloq teshiklaridan oq-loyqali ekssudat shaklida oqib chiqib, havoda oksidlanadi va qahrabo-sariq yoki toʻq-qoʻngʻir rangga kirib qotib qoladi. Kasal daraxtni ekssudat ajratishi mevalilar kuyishining asosiy belgilaridan boʻlib, u bakterial rakdan farq boʻladi.

Erwinia amylovora – koʻp sonli hivchinli harakatchan tayoqchalar, sirt boʻylab bir tekis taqsimlanadilar.

Topshiriq 1.

Topshiriq 2.

Ildiz raki yoki ildizlar buqoqligi (zobovatost). CHaqiruvchi – *Pseudomonas tumefaciens* Stevens.

Ildiz yoki ildiz boʻyichasida turli kattalikdagi va shakldagi, zich (yogʻoch) konsistentsiyali oʻsimtalar hosil boʻladi. Bu asosan ikkilamchi poʻstloqning parenxim toʻqimasida hujayralarning jadal boʻlinishi bilan bogʻliq.

Nihollarning nuqtali kasalligi. Sopilgan oʻsimliklarda sopish joyida shish shaklida va oʻsimlikning oʻsishini keskin toʻxtashida namoyon boʻladi. Kasallikning asosiy belgilari – qora-qoʻngʻir yoki kulrang nuqtalar, ular keyinchalik lubda yoki payvandtag yogʻochligida birlashadi (kesimda aniqlanadi) (rasm 83).

Kasallikning asosiy sababi – payvandtag va payvandustning mos kelmasligi.

Topshiriq

Mevali daraxtlar xlorozi. Infektsiyasiz (oʻsimliklar temir, magniy, oltingugurt, azotni kam oʻzlashtirganda, shuningdek ildizga kislorod etirilmaganda) va viruslar chaqirgan infeksiyali boʻlishi mumkin. Barglarni qisman yoki butunlay oqarishi yoki sargʻayishi shaklida namoyon boʻladi. Natijada bunday barglar muddatdan oldin quriydi va tushib qoladi.

Temir tanqisligi natijasida paydo bo'lgan xloroz odatda yuqori, yosh barglardan boshlanadi.

Magniy etishmaganda tomirlararo xloroz kuzatiladi.

Azot tanqisligida xloroz novda asosida joylashgan barglar sarg'ayishidan boshlanadi.

Olmani (va boshqa mevali daraxtlarning) rozetchnosti – mayda bargliligi tuproqda rux tanqisligi natijasida yuzaga keladi va asosan katta meva beruvchi daraxtlarda kuzatiladi.

Asosiy belgisi – mayda, nozik, lantsetsimon yoki tirnoqsimon barglar hosil qilishi. Bu ayniqsa bahorda vegetatsiya boshida namoyon bo'ladi. Barglar xlorotik bo'yalgan bo'lishi mumkin, ammo bu belgi majburiy emas. Bunday bargli novdalar uchida tashqi ko'rinishi va o'lchamiga ko'ra deyarli normal 10-20 ta bargli rozetka hosil bo'ladi.

Topshiriq

URUG'LI MEVALILARNING VIRUSLI VA MIKOPLAZMALI KASALLIKLARI

Olma mozaikasi (Apple mosaic virus). Sariq-yashil yoki kuchsiz va yorqin yoki keskin mozaika farqlanadi, ular bir virusning turli shtammlari tomonidan chaqiriladi.

Kuchsiz yoki sariq-yashil mozaika bilan kasallanganda daraxtlarda erta bahorda endi ochilgan barglarida tomirlar bilan chegaralangan och-yashil yoki sarg'ish tusli dog'lar paydo bo'ladi. YAngi o'simtada yoz davomida dog'lar yirikroq, sariq, chetlari aniq emas. Issiq havoda mozaiklik belgilari sezilarli niqoblanadi.


YO'rqin yoki kuchli mozaika bilan zararlanganda dog'lar sezilarli, yorqin-sariq, bargda mozaikali shakllar hosil qilib joylashadi. Jaziramada dog'lar oq rangga kiradi. Kuchli zararlangan barglarda yoz o'rtalarida nekrozlar rivojlanadi, barg plastinkasining bir qismi o'ladi. YO'rqin mozaika bilan zararlanganda barglar mayda bo'lib, shaklini o'zgartiradi, daraxtning rivojlanishi to'xtaydi (rasm 84).

Olma barglarini xlorotik dog'liligi (Apple chlorotic leaf spot virus) barglarning deformatsiyasi, ularning rozetkalikka olib kelishi va zararlangan novdalarning qurishiga olib keladi. Olma mevalarida qo'ng'ir xalqalar hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Olmalarning ko'p navlarida virus latent rivojlanadi.

Olmaning proliferatsiyasi yoki "yolmog'iz supurgisi". Mikoplazma tomonidan chaqiriladi. Ko'p sonli, nozik, to'g'ri o'suvchi, mayda, notekis chetli bargli yon novdalar paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Keltirilgan belgilar asosan yozning ikkinchi yarmida (asosan avgustda) yaqqol ko'rinadi.

Kasallikning qo'shimcha belgilari – bahorda murtaklarning erta qo'ng'irlashishi, yosh novdalarning qizarishi, barglarning muddatidan oldin to'kilishi, normal bo'lmagan uzun meva bandilar, hosildorlik past bo'lishi.

Olma mevalarining yulduzchali darz ketishi (Apple star crack). YOsh mevalarda kasallik shaklsiz, kulrang-qora, g'adir-budur dog'lar shaklida namoyon bo'ladi. Keyinchalik mevalar ushbu joylarida darz ketadi, darz ketish odatda yulduzcha shaklida bo'ladi (rasm 84).



Nok va behi mag'izlarining toshligi (Stony pit virus). Kasallikning xarakterli belgisi – meva mag'zida qattiq va ta'msiz mexanik hujayralarning to'planishi. Meva sirtida dastlab ayrim to'q-yashil dog'lar kuzatiladi, ular meva etilishi bilan ichiga kirib boradi va chuqur botiqlarga aylanadi. Meva shaklini o'zgartiradi (rasm 84).

DANAKLI MEVALAR KASALLIKLARI

Monilioz. Qo'zg'atuvchi belgilari – nomukammal zamburug', gifomitset *Monilia cinerea* Bonord. (*Monilia laxa* Ehr.) (Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibi).

Kasallik uchun ikki shakl: monilial kuyish va meva chirigi xos bo'ladi.

Monilial kuyish deb kasallikning bahorgi shakliga aytiladi, bunda gullar birdan qo'ng'irlashadi va quriydi, undan keyin barglar, yosh meva shoxlar va bir yillik novdalar so'ladi va quriydi.

Infektsiya gulga tushgach zavyaz va tsvetonojkaga, ulardan meva shoxchaga, lub to'qimalariga tarqaladi, ular esa qo'ng'irlashadi va quriydi. Mitseliy shoxning lub to'qimalarini xalqa shaklida o'rab olgach shox quriydi. SHoxda rivojlanayotgan novdalar ham quriydi (rasm 85). YOz davomida mitseliy lub to'qimalari bo'ylab shox asosiga tarqalib boradi.



Nam havoda qurigan gullarda, tsvetonojkalarda, barglar izlarida kulrang yostiqlar, zamburug' spora tashuvchilari rivojlanadi. Keyinchalik shunday spora tashuvchilar qurigan shox va novdalarda ham rivojlanishi mumkin, bunda ularning po'stlog'i bujmayadi va darz ketadi.

Mevalarda zararlanish kichik qora dog'dan boshlanadi, u tez kattalashadi va butun mevani qoplaydi. Meva sirtida ko'p miqdorda mayda, alohida yoki birlashgan kulrang yostiqlar, zamburug' spora tashuvchilari rivojlanadi. CHirigan mevalar bujmayadi va quriydi. Kamdan kam xollarda meva chirigi *Monilia fructigena* zamburug'i tomonidan chaqirilgan

bo'lishi mumkin. *Monilia fructigena* bilan zararlenganda spora tashuvchi yostiqlari yirik va ochiq rangda.

Monilia cinerea sporalari bir hujayrali, rangsiz, oval yoki limonsimon shaklda, o'lchamlari 9,5-12x6-9 mkm, zanjirlarda rivojlanadi.

Topshiriq 1

Topshiriq 2

Topshiriq 3

Klasterosporioz. Qo'zg'atuvchi belgilari – *Clasterosporium carpophilum* (Lev.) Aderh. (*Coryneum beyerinckii* Oud.) (Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibi) zamburug'i.

Barcha danaklilarni zararlaydi. Barglar, novdalar, mevalar, murtaklar, gullar zararlanadi.

Barglarda kasallik yumaloq, dastlab qizil-binafsha, qizil-qo'ng'ir yoki malina rangli, keyinchalik qizil-qo'ng'ir chegarali och-jigarrang dog'lar shaklida namoyon bo'ladi. Dastlab dog'lar nuqtalar shaklida bo'ladi, ammo bir necha kundan keyin 2-5 mm diametrli bo'ladi. 1-2 haftadan keyin dog'lar tushib qolib, ular o'rnida teshiklar paydo bo'ladi. Barg chetlari bo'ylab yoki asosiy tomir atrofida ular birikadi, shuning uchun barg hasharot egandek ko'rinadi (rasm 86).

YOsh novdalarda (kasallikning bu turi asosan shaftolida tarqalgan) dastlab bir nechta kichik, deyarli nuqtali, keyin 2-5 mm gacha kattalashuvchi, yumaloq, yorqin malla-qizil yoki qizil-binafsha dog'lar paydo bo'ladi. Kattalashishi bilan dog'lar uzunasiga cho'ziladi va darz ketadi. Jaroxatlar hosil bo'lishi kamed oqishi bilan boradi.


Klasterosporiozga chalingan murtaklar qora, yaltiroq shaklda bo'ladi.

Kasal gullar zavyaz hosil qilmasdan to'kilib qoladi.

Mevalarda klasterosporioz bilan kasallanish bir xil namoyon bo'lmaydi. O'rik mevalarida dastlab qizil-qo'ng'ir rangli nuqtalar paydo bo'lib, barglardagiga o'xshab ketadi. O'sishi davomida (2-3 mm diametrda) o'rtasi ochiqroq bo'lgan jigarrang shishlar shakliga kiradi. Dog'lar birlashib yaxlit shish hosil qiladi. Ularning ko'pchiligi tushib qolib teshiklar hosil bo'ladi. Kech zararlenganda dog'lar odatda yassi bo'ladi.

Olcha va gilos mevalarining zararlanishida zararlanish joyida mevaning mag'zi o'sishdan to'xtaydi va danakkacha quriydi. Shaftoli mevalari kam xollarda zararlanadi.

Konidial spora tashuvchilar yuqori namlik sharoitida rivojlanadi va barcha zararlangan organlarda topilishi mumkin. Zamburug' konidialari cho'ziq-tuxumsimon, ko'p hujayrali. YOshiga ko'ra ularda to'siqlar soni 1-2 dan 5-6 gacha bo'lishi mumkin, ammo odatda 3-4 bo'ladi (rasm 86). YOsh konidialar rangsiz, vaqt o'tishi bilan ular sariq-zaytun rang yoki ochiq-qo'ng'ir bo'lishi mumkin. Konidialar o'lchamlari 25-62x10-18 mkm.



Topshiriq 1

Topshiriq 2

Olxo`ri “cho`ntaklari” (sumkali kasallik, shish olxo`rilar). Qo`zg`atuvchi belgilari–sumkali zamburug` (Hemiascomycetidae ost sinfi) *Exoascus pruni* Sadeb. (*Taphrina pruni* Tulasne). 225-236 bet

13-Mavzu: Tok, rezavor, tut va yong`oq mevali ekinlar kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	Tokning oidium, antraknoz, serkozporioz, qora chirish, kulrang chirish, oq chirish, soxta un-shudring va bakterial rak kasalliklari. Qulupnayning ildiz chirish, vilt, oq chirish kasalliklari bilan tanishish. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalishi, kasallik belgilarning namoyon bo`lish muddatlari va xususiyatlari. infektsiyani saqlanishi. Kasallikka qarshi kurash choralari. Tutning un-shudring, bakterioz, vilt, ildiz chirish, porkak va boshqa kasalliklari. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalishi, kasallik belgilarning namoyon bo`lish muddatlari va xususiyatlari. infektsiyani saqlanishi. Kasallikka qarshi kurash choralari. Yong`oq mevali o`simliklarni kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Qo`ng`ir va oq dog`lanish, bakterioz, un-shudring, barglarning qizarish, meva chirish kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda meva daraxtlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari to`grisida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarda fanining predmeti, metodlari va

oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo'ladilar, asosiy ma'lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabaning
1 bosqich 1.1 O'quv xujjatlarini to'ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O'quv mashg'ulotiga kirish (10min)	1.1. Mavzu bo'yicha ma'lumotlar beriladi. O'quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi. Mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlar beriladi. Ma'ruza davomida mavzu bo'yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish.	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga berilgan er uchastkalarida o'simliklarni ximoya qilishda foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik vositalar ro'yxati. O'z.Res.Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi kimyolashtirish va O'simliklarni ximoya qilish vositalari Davlat komissiyasi, Toshkent 2003 y.
2. Gorlenko M.V. Bakterialnye bolezni rasteniy. M. 1996.
3. Dementeva M.I. Fitopatologiya. M. Agropromizdat. 1987.
4. Peresypkin V.F. Selskoxozyaystvennaya fitopatologiya .M., «Kolos» 1989.
5. Popkova K.V. Obhaya fitopatologiya. M. Agropromizdat, 1989.
10. Sattarova R.K va boshqalar. Umumiy fitopatologiya. (ma'ruza matnlari) T.1999.
11. Sattarova R.K .va boshqalar. Fitopatologiya. (Uslubiy qo'llanma) T.2002
12. Mamaev K.A. Борбы с вредителями и болезнями плодовой и ягодных и овошных культур. М., «Kolos». 1981. 9.

TOK KASALLIKLARI

Tok kasalliklari

Mildyu. Bu kasallikni qo'zg'atuvchisi *Plasmopara viticola* Berl. et. Toni zamburug'i hisoblanadi. Sistematik tarzda aytadigan bo'lsak, bu zamburug' Peronosporales tartibi, Phycomycetes sinfiga mansubdir. Kasallik odatda tipik soxtaunshudring deb ataladi. Kasallik bilan tok barglari, shingil, novda va jingalaklar kasallanadi.

Yosh barglarning zararlanishidan oldin dastlab ularda sarg'ish, xlorotik, xuddi yog'simon dog'lar yuzaga keladi. Bu dog'lar yumaloq yoki noto'g'ri ovalsimon shaklda bo'ladi. Keyin dog'larning barg ostidagi qismida oq tusli unsimon konidial sporalar hosil bo'ladi. Kasallikka beriluvchan navlarda barg yuzasidagi dog'larning kattaligi ancha yirik diametri 2,0-2,5 sm kelishi mumkin.

Vaqt o'tishi bilan, zararlangan to'qima butunlay nobud bo'ladi, nekrotizatsiyaga uchraydi, dog' bo'lsa qizg'ish-qo'ng'ir rangga kiradi. Kuchli zararlangan taqdirda dog'lar birlashadi va kattalashadi. Barglar esa barvaqt to'kila boshlaydi. Vegetatsiya oxiriga qarab zararlanish sodir bo'lsa (barglar qarib borgan yoki mildyu uchun noqulay ob-havo), shuningdek, zamburug'ga chidamli navlarda zamburug' natijasida hosil bo'lgan dog'ning kattaligi 2-4 mm keladi. Bu dog'lar uchburchaksimon bo'lib, odatda barg tomirlari yoqalab joylashadi.

To'pgullar gullashdan oldingi davrda zararlangan taqdirda qo'ng'ir tusga kiradi va qurib qoladi, g'unchalari to'kilib qoladi. Kasallangan gullar ham qurib qoladi. Chunki dastlab gulo'rin zararlanadi va nobud bo'ladi. Havo namligi ko'tarilgan sharoitda to'pgullar yuzasi zamburug'ning konidial sporalari oq g'ubori bilan qoplanib qoladi.

Zararlangan mevalar qo'ng'ir tusga kiradi va so'liydi. Xom mevalarni zararlanishi natijasida dastlab spora etishuvchi oq g'ubor paydo bo'ladi. Pishib etila boshlagan mevalar, ustitsalarini yo'qotadi, oq g'ubor hosil qilmasdan so'lib qoladi.

Tokning yashil novdalarida zararlanish natijasida qo'ng'ir, oson ko'chadigan dog'lar yuzaga keladi. Havo namligi yuqori bo'lgan taqdirda oq g'ubor paydo bo'ladi. Mildyu bilan zararlangan jingalaklari va novdalarning ustki qismi quriydi.

Ushbu zamburug' qishki mavsumda oospora holida qishlaydi. Oosporalar mildyu bilan zararlangan barg yoki meva ichidagi nekrotizatsiyaga uchragan qo'ng'ir dog'da jinsiy qo'shilish natijasida sodir bo'ladi. Havo namligi oshgan sharoitda zararlangan barglar, to'pgullar, xom mevalarda konidial spora hosil bo'ladi. Bunda yuqorida aytib o'tilgan qismlar to'qimasining ustki qismidan – ustitsa orqali zoosporangiyband va zoosporangiyalar etishadi. Dog' hosil bo'lgan joyda bitta ustitsadan odatda 4 yoki 5 ta zoosporangiyband chiqadi, ammo ularning soni 20 ga etishi mumkin.

Zoosporangiybandlar deyarli to'g'ri burchak ostida monopodial shoxlanishga ega. Uning yuqori qismida tishli qismlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu qismda konidiallar ya'ni yozgi zoosporangiyalar etishadi. Har bir zoosporangiybandda 200 ga yaqin zoosporangiy bo'lishi mumkin. *Plasmopara viticola* zoosporangiyalari rangsiz, limonsimon shaklda, 8,5-12x12,5-30 mkm kattalikda bo'ladi. Suv bo'lganda (shudring, yomg'ir) zoosporangiydagi zoosporalar o'sib etishadi va keyinchalik yana zararlashda davom etadi.

1-topshiriq. Barglar va mevalarning mildyu bilan zararlanish simptomlarini yozing va rasmini chizing

2-topshiriq. Konidial bosqichda turgan zamburug'ni bargdan ajratib olib, preparat tayyorlang. Zoosporangiyband va zoosporangiyning tuzilishini yozing va rasmini chizing.

3-topshiriq. Buning uchun faqat yangi terib olingan materialdan foydalanish lozim. Mildyu kasalligini qo'zg'atuvchisini zoosporalarini hosil qilishini kuzating. Dastlab petri idishiga 2-3 ml suv solinadi. Unga zamburug' natijasida hosil bo'lgan oq g'ubor qismi qirib tushiriladi. SHundan keyin idish og'zini yopib, xona harorati sharoitida 2-3 soat qoldiriladi. Ana shu muddat o'tgandan keyin petri idishidagi suyuqlikdan bir necha tomchi olib, buyum oynasiga tomiziladi hamda ustidan qoplag'ich oyna yopiladi. Dastlab mikroskopning kichik ob'ektivi orqali zoosporangiyalar kuzatiladi. Zoosporalar suv tomchisida faol harakatlanib suzib yuradi. Har bir zoosporangiydan 8 ta zoospora hosil bo'lishi mumkin. 4-topshiriq. Mildyu qo'zg'atuvchisi oosporalarini preparatini tayyorlash, mikroskopda kuzatish va rasmini chizish

Preparatni tayyorlash uchun mildyu bilan kasallangan, qari, lekin yaxshi saqlanib qolgan barglar olinadi. Bargning to'qimasini burg'ulash orqali kichkina bo'lak ajratiladi. Olingan bo'lak buyum oynasidagi suv tomchisiga joylashtiriladi. Lekin, oosporalar yaxshi ko'rinishini ta'minlash maqsadida uni sut kislotasi bilan yoritiladi. Buning uchun buyum oynasiga qo'yilgan bir tomchi suv ustiga bir tomchi sut kislotasi tomiziladi va spirt lampasida biroz qizdiriladi. Preparat dastlab mikroskopning kichik, so'ngra katta ob'ektivida ko'zdan kechiriladi. Preparatda oosporaning yoshi va etuklik darajasiga bog'liq ravishda, 25-35 mkm kattaligidagi, sariq-och-qo'ng'ir yoki qo'ng'ir tusli yumaloq tanachalar ko'rinadi. Ular yo'g'on to'rsimon yoki silliq qobiq bilan o'ralgan bo'ladi. Barg to'qimasida oosporalar odatda bargning bulutsimon to'qimasi hujayralari orasida joylashgan bo'ladi.

104-rasm. Tok mildyusi. 1. Mildyu bilan zararlangan meva va barglar. 2. Plasmopara viticola zosporangiybandlari va zoosporangiyalari

Oidium. Bu kasallikni xaltacha bosqichida *Uncinula necator* Burr, konidiyal bosqichda *Oidium tuckeri* Berkl keltirib chiqaradi.

Bunda o'simlikning barcha yashil qismlari zamburug' bilan zararlanadi. Barglarda dastlab oqish, ko'zga zo'rg'a tashlanadigan dog' hosil bo'ladi. Keyin esa bu dog'lar kulrang unshudring tusli g'uborga aylanadi. Bu g'uborni konidiyal spora hosil qilayotgan zamburug' keltirib chiqaradi. G'ubor bargning odatda ustki epidermis yuzasini qoplaydi va kuchli darajada zararlanish bo'lganda, barg plastinkasining barcha qismi g'ubor bilan qoplanib qoladi. Kasallangan barglar xlorotizatsiyaga uchraydi, ya'ni oqaradi, barg chekkalari yuqoriga qayriladi va so'lib boshlaydi. Zararlangan novdalarda ham unsimon g'ubor hosil bo'ladi. Uning ostida qora dog'lar paydo bo'ladi. Faqat tokning novdalari yog'ochlashib borishi bilan bu dog'lar ko'zga yaqqol tashlanadi. Qora dog'lar joylashgan qismlarda vaqt o'tishi bilan kleystotetsiyalar shakllanadi. *Oidium* bilan zararlangan g'unchalar esa to'kiladi. Meva tugishga ulgurgan gullar yoki xom mevalar kulsimon g'ubor bilan qoplanadi, rivojlanishdan orqada qoladi hamda qorayadi va qattiqlashadi, oqibatda so'lib qoladi. Tok vegetatsiyasining oxirgi davrlarida yoki bir tomonlama zararlanish natijasida mevalar o'sishda davom etadi va chatnaydi. Bunda urug'lari har yoqqa sochiladi. YOppasiga zararlanish bo'lganda uzum boshlari chirishi oqibatida ulardan yoqimsiz mog'or hidi kelib turadi.

1-topshiriq. Barglarda, novdalarda va mevalarida oidiumning hosil bo'lishini tasvirlang va rasmini chizing.

2-topshiriq. *Oidium tuckeri* zamburug'ining konidiyal bosqichdagi formasini preparatini tayyorlang. Sporalarning tuzilishini rasmini chizing. Barg yuzasida g'uborni ehtiyotkorlik bilan ajratib olish lozim, buning uchun to'g'ri chiziq bo'ylab, dog'ning asos qismigacha tekis kesish kerak bo'ladi. Chunki zamburug'ning zanjiri va konidiyabandlari uzilib ketmasligi lozim.

3-topshiriq. Zararlangan novdadan xaltachali bosqichdagi zamburug'ning preparatini tayyorlang va kleystotetsiyning rasmini chizing. Kleystotetsiydagi o'simtalarining tuzilishi, xaltachalarning soniga e'tibor bering.

105-rasm. Tok oidiumi. 1.zararlangan barg va mevalar. 2. *Oidium tuckeri* zamburug'ining konidiyal spora hosil qilish bosqichi.3. *Uncinula necator* zamburug'ining kleystotetsiyasi

Qora chirish. MDH territoriyasida bu kasallikning tarqalishi cheklangan. Kasallikning asosiy sababchisi takomillashmagan piknidial zamburug' *Phoma uvicola* Berk.et.Curt., xaltachali bosqichdagi *Guignardia bedwellii* P.Viala.et.Rav hisoblanadi. Bu zamburug' tokning mevalari, barglari, ba'zan novdalarini ham zararlaydi.

Kasallik boshlanishidan oldin barglarda biroz bo'rtmalar hosil bo'ladi, keyinchalik bu bo'rtmalar jigarrang yoki qo'ng'ir-qizil tusli dog'ga aylanadi.bu dog' qora hoshiya bilan o'ralgan. Dog'larning kattaligi 1,5 diametrga teng. Dog'larda keyinchalik qora nuqtalar – piknidiyalar hosil bo'ladi.

Mevalar odatda pishib etilishdan oldin zararlanadi. Dastlab mevalar yuzasida botiqlik paydo bo'ladi, keyinchalik mayda dog'lar shakllanadi. O'sib borgan sari bu dog'lar qorayadi va qora-ko'kish tusga kiradi. Tez orada mevalar ham to'q-ko'kish yoki qora-binafsha tusga kirib qoladi.

Meva yuzasi g`adir-bo`lib, so`liydi va to`kilib tushadi. Meva yuzasi piknidiyalar bilan qoplanganligi sababli ham g`adir-budir bo`ladi.

Qora chirish kasalligi faqat Phoma uvicola tufayli kelib chiqmaydi, bu kasallikni boshqa piknidial zamburug`lar ham sababchi bo`ladi. Kasallik qo`zg`atuvchining turiga qarab piknidiyalar sharsimon, ellipsoidal, chechevitsasimon; piknosporalar esa tuxumsimon, urchuqsimon shakllarda bo`ladi.

1-topshiriq. Gerbariy va tabiiy materiallardan foydalangan holda meva, barg va novdalardagi qora chirish kasalligini kuzating hamda rasmini chizing.

2-topshiriq. Kasallangan mevalardan piknidial sporali preparat tayyorlang. Chirish kasalligini keltirib chiqaruvchi zamburug` turini 28-jadvaldan foydalangan holda aniqlang.

106-rasm. Tokning qora chirish kasalligi. 1. Barg va novdalarda kasallikning paydo bo`lishi. 2. mevaning chirishi. 3. Phoma uvicola ning mikro va makrokonidiyli piknidialari.

Oq chirish. Bu kasallikni Deuteromycetes sinfi, Pycnidiales tartibiga kiruvchi Conyothyrium diplodiella Sacc zamburug`i tarqatadi. Kasallik tufayli tokning barglari, novdalari va mevalari zararlanadi.

Zararlangan barglar kulrang tusga kirib quriydi, ammo tushib ketmaydi. Barg tomirlari atrofida noaniq shakldagi dog`lar paydo bo`ladi va unda piknidiyalar etishadi.

Zararlangan novdalarda qo`ng`ir yoki qora tUSDagi dog`lar hosil bo`ladi, ulardagi oqish bo`rtmalarda piknidial spora hosil bo`lish jarayoni kechadi. Zararlangan novdadagi barglar qizaradi va to`kiladi, novdaning o`zi esa qurib qoladi.

Kasallik tufayli mevalar ko`proq shikastlanadi, ya`ni bu kasallikning mevalarga katta ziyon etkazishi qayd qilingan. Bunda mevalar qizg`ish yoki ko`kish-qo`ng`ir tusga kiradi. Mevaning yuzasi juda ko`p sonli oqish bo`rtmalar – po`st ostidan chiqib turgan piknidiyalar bilan qoplanadi. Mevalar uzumboshidan ajralib ketmasdan g`adir-budir bo`lib qoladi va quriydi. Ayrim mevalarda piknidiyalar o`rnida qizg`ish-pushti tUSDagi hoshiyalar – mikrosklerotsiyalar hosil bo`ladi. Kasallik uzumboshidagi barcha mevalarga tarqaladi. Meva qurib bo`lgach, uning shingili uzilib tushadi.

107-rasm. Tokning oq chirish kasalligi. 1.oq chirish bilan kasallangan tok mevasi. 2. Conyothyrium diplodiella piknidiasi

Mevalar zararlanganda dastlab ularda sariq dog`lar hosil bo`ladi, bu dog`lar keyinchalik ko`kish-qo`ng`ir tusga kiradi, dog` atrofida turli rangdagi hoshiyalar yuzaga keladi. Bunday zararlangan mevalar vaqt o`tishi bilan quriydi va to`kiladi.

Piknidiyalardagi sporalar ovalsimon yoki urchuqsimon, bir hujayrali, oqish-qaymoq rang tusda, o`lchami 8 – 12 x 6 – 8 mkm.

1-topshiriq. Tokning mevalari, barglari, novdalarida oq chirish kasalligini simptomlarini yozing va rasmini chizing.

2-topshiriq. Mikrosklerotsiy, piknidiya va mevalarni diqqat bilan kuzating hamda har biriga alohida rang bering.

Jadval

Tok mevalarida qora chirish kasalligini qo`zg`atuvchi zamburug`larni aniqlagichi

№	piknidiyalar	Piknosporalarning shakli va tuzilishi	Kasallik qo`zg`atuvchisi
1	SHarsimon	Tuxumsimon yoki sharsimon, rangsiz, 4,5 – 9,5 x 4,5 mkm (ba`zan rangsiz, tayoqchasimon mikrokonidiyalar)	Phoma uvicola
2	Ellipsoid	Urchuqsimon yoki tsilindsimon, to`g`ri yoki egilgan, yon tomonlari noteng, oqish qaymoqrang, 12 – 22(28) x 6 – 8 mkm	Phoma reniformis
3	CHechevitsasimon	Ellipsoid tsilindsimon, uchki	Phoma lenticularis

		qismlari yumaloqlashgan, rangsiz, 7,5 – 8,5 x 3 – 3,5 mkm	
4	SHarsimon	Ellipsoid, ikki hujayrali, qaymoqrang tusli, 9 – 11 x 4 – 5 mkm	Diplodia uvicola

Antraknoz. Bu kasallikni Deuteromycetes sinfi, Acervulales tartibi, Melanconiaceae oilasiga kiruvchi Conyothyrium diplodiella Sacc zamburug`i tarqatadi. Antraknoz tufayli tokning barcha yashil qismlari – novdalar, mevalar, barglar, yon bargchalar va jingalaklar zararlanadi.

Kasallangan bargda turli xil kattalikdagi, ammo nisbatan mayda oqish jigarrang yoki qo`ng`ir tusli dog`lar hosil bo`ladi. Bu dog`lar qora hoshiya bilan o`ralgan. Hoshiyaning rangi navga bog`liq holda to`q-qo`ng`ir yoki qora-pushti rangda bo`lishi mumkin. Keyinchalik dog`lar quriydi va bo`yaladi, so`ngra barg plastinkasi ilma-teshik bo`lib qoladi. YOn bargchalarda va barg tomirlari atfida kichkina yaracha shakllanadi. YOn bargchalar kuchli darajada zararlanganda barglar to`kiladi. Mevalardagi dog`lar engilgina ajraladigan, yumaloq shaklda bo`ladi. Dastlab ular pushti tusli nuqtalar bilan qoplangan qo`ng`ir rangda, keyinchalik markaziy qismidan kulrang tusga kiradi. Uning atrofi qora-pushti hoshiya bilan o`ralgan bo`ladi.

108-rasm. Tokning antraknoz kasalligi. 1. kasallikning tok mevasi, bargi va novdalarida yuzaga kelishi. 2. zamburug` konidiyasi.

Zararlangan novdalarda dastlab unchalik katta bo`lmagan oqish-jigarrang yoki qo`ng`ir tusli dog` hosil bo`ladi. Bu dog` vaqt o`tishi bilan, ya`ni novda o`sishi barobarida uzunasiga cho`ziladi hamda chuqurlashadi, natijada cho`zilgan yara shakliga kiradi. Dog`ning rangi ham tashqi tomondan qora-pushti hoshiya bilan o`ralgan qahvasimon tusda bo`ladi. YAraning chekkalari noteng, turli xil botiqlik hosil qiladi. YAralar novdaning ichkarisiga chuqur kirib boradi, faqat po`stloq va kambiy emas, balki yog`ochlik va o`zak qismi ham zararlanadi. Ba`zan yaralar kattalashib, novdani halqadek qurshab oladi. Natijada zararlangan novdalar bo`g`imli, ko`rimsiz tusga kelib qoladi. Kuchli zararlangan novdalar qorayib, o`nqir cho`nqir bo`lib shakllanadi. Zararlangan joy salgina ta`sirga ham sinib tushadi.

YOsh to`pgullar (gullash davrigacha yoki gullash davrida) ustki yuzasi yara bilan qoplanadi, zararlangan to`pgullar qurib qoladi.

Antraknoz keltirib chiqaruvchi zamburug`ning konidiyal spora hosil qilishi dastlab zararlangan barg, meva va novdalarda ko`zga zo`rg`a tashlanadigan qora g`ubor (yassi, mayda yostiqlar) hosil bo`lishidan boshlanadi. Konidiyalar rangsiz, ellipsoid yoki uzunchoq, bir hujayrali, kalta konidiyabandlarda joylashadi. Konidiyabandlarning o`zi epidermis ostida joylashadi, keyinchalik shu joy yorilishi oqibatida tashqariga tarqaladi.

1-topshiriq. Tokning bargi, mevasi va novdalarida antraknoz paydo bo`lishini tasvirlang va rasmlarini chizing.

2-topshiriq. Gl.ampelophagum ning konidiyal spora hosil qilishini rasmini chizing va preparat tayyorlang. Lupa yordamida zararlangan novda yoki mevani ko`zdan kechiring, sporali yostiqlar joylashgan qismdan bir kesma oling. Konidiyalari rangsiz, bir hujayrali, uzunchoq va biroz egilgan, ikki tomchi moy yordamida kalta rangsiz konidiyabandlarda joylashgan.

Kulrang chirish. Bu kasallikni Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibiga kiruvchi keng darajada ixtisoslashgan, notakomil zamburug`lardan biri Botrytis cinerea Pers keltirib chiqaradi.

Kasallikning eng keng tarqalgan va xavfli formasi – mevalarning kulrang yoki nordon tarzda zararlanishidir. Tok vegetatsiya davrining dastlabki paytlarida meva zararkunandalari ishtirokida zararlanadi. Bunday zararkunandalarga uzum bargo`rovchisi kiradi. Zararlangan uzum boshlari kulrang mog`orsimon yoki zamburug`ning sporali pushti g`ubori bilan qoplanadi. Mevalar butunligicha quriydi. Pishgan mevalarga chirish kasalligi zararlangan mevalarning yomg`ir ta`sirida yorilib, spora sochishi natijasida tarqaladi. Bunday mevalarda Botrytis cinerea spora hosil qilishi natijasida g`ubor dastlab yoriqlar atrofida hosil bo`ladi. Mevaning et qismi qotadi, zamburug`ning faoliyati tufayli tsitaza fermenti ajraladi. Bu ferment po`stni meva etidan

ajaratadi, natijada meva shilimshiqlanib qoladi. SHu sababli mevedan kislotaga yoki mog`or hidi anqib turadi.

kamdan-kam hollarda, pishgan mevalar zararlangan davrda agar havo issiq va quruq bo`lsa, zamburug` meva ichkarisiga chuqur kirib bormaydi. Faqat meva po`stida to`planadi, natijada mevalar so`liydi va xuddi meva qoqi ya`ni kishmishga o`xshab qoladi. Po`st qo`ng`ir rangga kiradi, bujmayadi. Mevaning o`zi quriydi va yanada shirinroq bo`lib qoladi. SHuning uchun ham bu kasallikni "asl chirish" deb ham ataladi.

109-rasm. Tokning kulrang chirishi. 1. zararlangan uzum boshi. 2. Botrytis cinerea zamburug`ining konidiyabandi va konidiyalari. Kasallik mevalardan tashkari, barglarda (katta qo`ng`ir dog`lar holda yoki g`uborsiz), stratifikatsion qutilardagi qalamchalarda, uzumboshlarida tarqaladi. Zamburug`ning konidiyasi bir hujayrali, rangsiz yoki tuxumsimon yoki ellipsoid, konidiyabandlar to`plam bo`lib joylashadi. Konidiyabandlar daraxtsimon tarzda shoxlangan, uchki qismlari yo`g`onlashgan.

1-topshiriq. Tok mevalarida kulrang chirish kasalligini tasvirlang va rasmini chizing.

2-topshiriq. Kulrang chirish kasalligini qo`zg`atuvchisini preparatini tayyorlang, konidiyaband va konidiyalarning tuzilishini tasvirlang hamda rasmlarini chizing.

TSerkosporoz. Bu kasallikni Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibi, Cercospora turkumiga kiruvchi Cercospora vitis Sacc va Cercospora rosleri Sacc zamburug`lari keltirib chiqaradi. Zamburug`lar asosan barglarni zararlaydi. Bunda Cercospora vitis Sacc bahorgi mavsumda (yozning birinchi yarmigacha), Cercospora rosleri Sacc esa kuzgi davrda kasallikni avj olishiga sababchi bo`ladi.

Har ikkala holda barg yuzasida yumaloq, qo`ng`ir yoki kulrang-qo`ng`ir tusli dog`lar yuzaga keladi. Bu dog`larning tashqi tomondan sariq yoki qoramtir hoshiyalar o`rab oladi. Kuchli darajada zararlangan taqdirda dog`lar qo`shilib, yiriklashadi. Bargning ostki tomoni konidiyal spora hosil bo`lishi natijasida yashil g`ubor bilan qoplanadi.

Cercospora vitis bilan zararlanganda g`ubor bir tekisda, yashil-zaytun tusli bo`ladi. Cercospora rosleri bilan zararlanganda bargning ostki tomoni baxmal-qo`ng`ir rangga ega spora etishuvchi g`ubor bilan qoplanadi.

Har ikkala zamburug` barglardan tashqari novdalar, mevand va mevalarni ham zararlaydi. Zararlangan joy spora hosil bo`lishi natijasida zaytunsimon g`ubor qoplanadi. Zararlanishi natijasida mevalar so`liydi va to`kiladi.

110-rasm. Tokning tserkosporoz kasalligi. 1-kasallikning bargda paydo bo`lishi. 2-tserkosporoz qo`zg`atuvchisining konidiyabandi va konidiyasi. 3. Cercospora vitis Sacc. 4. Cercospora rosleri Sacc. 5. Cercospora sessilis

TSerkosporoz kelib chiqishiga Cercospora turkumiga mansub boshqa turlar ham ya`ni C.vitiphyllyla, C.sessilis zamburug`lari ham sababchi bo`ladilar. Ular odatda bitta bargning o`zida mildyu qo`zg`atuvchisi bilan birga rivojlanadi. Cercospora turkumiga mansub turlarni aniqlashda tashqi simptomlari, konidiyalarning tuzilishi va rangi muhim ahamiyatga ega.

29-jadval.

Tok bargida Cercospora turkumiga mansub turlarini aniqlagich jadvali

№	Barglardagi tashqi simptomlar	Konidiyalarning tuzilishi			rangi	Cercospora turkumiga mansub tur
		shakli	O`rtasida gi to`siqlar	O`lchami, mkm		
1	Dog`lar yumaloq shaklda, qo`ng`ir tusli, qora hoshiya	Teskari to`g`nagichsimon, yuqorigi qismi biroz qisilgan	3-6, ba`zan 8 tagacha	50-90x7-8	To`q zaytunsimon	C.vitis

	bilan o`ralgan, bargning ostki tomonida zaytunsimon yashil tusli g`ubor qoplangan					
2	Dog`lar noto`g`ri shaklda, alohida yoki qo`shilib ketgan, kulrang sariq tusli, bargning orqa tomoni baxmalsimon	TSilindrik, to`g`ri yoki qiyshiq	3-5	50-60x7	zaytunsimon	C.rosleri
3	Dog`lari yirik, qizil hoshiya bilan o`ralgan. Bargning ostki tomoni jigarrang-kulrang	Ovalsimon, kalta urchuqsimonyo ki tsilindrik	1, kamdan kam 3-5	13-17x5-9	zaytunsimon	C.vitiphylla
4	Dog`lari to`q-kulrang tusda bo`ladi.	to`g`nagichsimon	3-5	45-65x X6-7	kulrang	C.sessilis

111-rasm. Tokning olachipor nekroz kasalligi. Kasallikning poyadagi, bir yillik novdadagi va ildiz otgan qalamchadagi belgilari.

1-topshiriq. Tok bargida tserkosporoz simptomlarini tasvirlang va rasmini chizing.

2-topshiriq. Zararlangan bargdan kesma olib, konidial spora hosil qiluvchi zamburug`dan preparat tayyorlang. Jadvaldan foydalanib, zamburug`ning turini aniqlang.

Olachipor nekroz yoki siyoh kasalligi. Bu kasallikni tarqatuvchisi Rhacodiella vitis Schterenberg hamda xaltachali bosqichdagi Mollisia sp zamburug`i hisoblanadi. Konidial bosqichdagi zamburug` Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibiga; xaltachali zamburug` bosqichida esa Ascomycetes sinfi, Pezizales tartibiga mansubdir.

Kasallik butalarning quruqlashib borishi, yosh qalamchalarning nobud bo`lishi, payvandtag va payvandust novdalar, qalamchalarning zararlanishi bilan kechadi. Kasallikning xarakterli belgilaridan biri – lub va yog`ochlikdagi nobud bo`lgan to`qima o`rnida to`q-jigarrang, deyarli qora rangli dog`lar yuzaga keladi. CHunki bu joyda hujayralar gummoz holda bir biridan ajraladi. Dog` odatda uzunchoq shaklda, kattaligi 1 mm dan 50 mm gacha bo`ladi. Nekroz dog`larda va ularning atrofida po`stloq to`qimalarida, po`kak qatlamida Rhacodiella vitis zamburug`ining qoramtir ko`p hujayrali mitseliysi kuzatish mumkin.

Agar havo namligi oshib ketsa, po`stloq yuzasida konidiyabandlar halqa hosil qilib joylashadi. Ularning tepasida to`q-jigarrang sterigma shakllanadi. Ularda bir hujayrali, yumaloq yoki ovalsimon, diametri 2-3 mkm keladigan och-pushti konidiyalar etishadi.

Xaltachali bosqichdagi zamburug` (apotetsiy sharsimon shaklda, mayda, kattaligi 0,2-2 mm diametrga teng) substrat yuzasida nekroz yaraga aylanadi. Natijada butun yoz bo`yi va kuz davomida infeksiya tarqatuvchi manba shakllanadi.

Topshiriq. Olachipor nekroz simptomlarini tasvirlang va rasmini chizing. Lub yoki yog`ochlikdagi nekroz dog`larni aniqlash uchun pichoq bilan po`stloqni ajratib olish kerak.

Bakterial rak kasalligi. Bu kasallikni qo'zg'atuvchisi *Pseudomonas tumefaciens* (Sm. et. Tows) Stevens hisoblanadi.

Bakterial rak tok novdasining er ustki qismlarini, asosan ildiz bo'yinchasini zararlaydi. Dastlab po'st ostida katta bo'lmagan, kattaligi bir necha mm keladigan, yumshoq, g'ovak, oq tusdagi o'sma hosil bo'ladi. Ular o'sib borgani sari qattiqlashadi, po'stloq bo'shab qoladi va kasallik belgilari yuzaga chiqadi. O'sma yuzasi noto'g'ri, g'adir-budir, rangi esa yosh o'tgan sayin sarg'ish, jigarrang va hatto qora ranggacha bo'lishi mumkin. Kuzda yoki qishda o'smalar chatnaydi. O'smalar bir biri bilan qo'shilishi natijasida zararlangan joylarning kattaligi 10-20 va ba'zan 30 sm kelishi mumkin. Bu o'smalar ildiz bo'yinchasi atrofida bo'rtmalar keltiradi. Pitomniklardagi qalamchalar ildizlarida ham zamburug' o'simalari shakllanishi mumkin. Bakterial rak bilan ok novdasi ko'rimsiz bo'lib qoladi, o'sishdan ortda qoladi, meva berishi kamayadi, kuchli darajada zararlangan taqdirda novdalar va tok tupi butunlay nobud bo'ladi.

Topshiriq. Tok novdalarini bakterial rak bilan kasallanish simptomlarini tasvirlang va rasmini chizing.

Tokning virusli kasalliklari. MDH hududida infeksiyon xloroz, qisqabo'g'imlilik va turli xil mozaik kasalliklar keng tarqalgan.

Infeksiyon xloroz. Bu kasallikning sinonimlari – panashyur, kurtne, olachipor barglilik, sariq mozaika. Infeksiyon xlorozda barg plastinkasi deyarli butunlay rangsizlanib qoladi. Barglar tomirlar atrofida boshlab sarg'ayib boshlaydi. dastlab kichik sariq dog'lar, keyinchalik esa yiriklashib boshlaydi. Barg tomirlari et qismiga nisbatan oldin sarg'ayadi. Sarg'ayish dastlab qari barglarda boshlanadi, shundan keyin boshqa yosh barglarga tarqaladi. Bu kasallik bilan yangi iqlimlashtirilgan navlar kasallanadi, evropalik navlar odatda bunga chalinmaydi.

Qisqabo'g'imlilik bilan kasallanganda o'simlik o'sishdan orqada qoladi, bo'g'im oralig'i qisqarib, egri-bugri novdalar shakllanadi. Tokning ko'pchilik navlarida barglarning shakli ham o'zgaradi: barg plastinkasining qirqimi ortadi, barg ko'proq panjasimon, elpig'ichsimon yoxud notipik yumaloq shaklga kiradi, ba'zan asos qismi kengayib ketadi. Bu kasallik bilan kasallanish oqibatida tokning to'pgullari to'kiladi, pishmagan xom mevalar qurigan holda novdalarda qolib ketadi.

Mozaika kasalligida barg yuzasida och yashil dog'lar paydo bo'ladi. Ularni yorug'ga tutib ko'rish mumkin. Bu dog'lar barg yuzasida bir tekis joylashadi. Kuchli darajada zararlanish bo'lganda barg tomirlari keskin darajada sarg'ayib ketadi. Mozaika bilan kasallanganda barglar deformatsiyaga uchramaydi (agar bir vaqtning o'zida qisqabo'g'imlilik virusi bilan zararlanmagan bo'lsa).

Topshiriq. Tok o'simligi bargida infeksiyon xloroz, qisqabo'g'imlilik va mozaika kasalligi simptomlarini tasvirlang va rasmlarini chizing.

Noinfeksiyon xloroz. Tuproqda karbonatlar miqdorining ko'pligi va shu bilan bog'liq temir tanqisligi tufayli kelib chiqadigan kasallikdir. Infeksiyon virusli xlorozdan farqli ravishda, barg tomiridan boshqa joylarning oqarib qolishi kuzatiladi. Tomirlar va ularning atrofi o'zining yashil rangini saqlab qoladi, bu qismlarning oxir-oqibatda rangsizlanishini qayd qilish mumkin.

1-topshiriq. Tok barglaridagi noinfeksiyon xloroz simptomlarini tasvirlang va rasmini chizing.

2-topshiriq. Quyidagi tok barglarida infeksiyon va noinfeksiyon kasallik simptomlariga oid diagnostik jadvalni to'ldiring.

№	Xarakterli diagnostik belgi	Xloroz turlari	
		infeksiyon	noinfeksiyon
1	Barglarning rangsizlanishi tomirlarga yaqin joylardan boshlanadi		
2	Barglarning yashil rangi tomirlar va ularning atrofida saqlanib qoladi.		

REZAVOR –MEVA KASALLIKLARI

Qulupnay kasalliklari.

Kulrang chirish. Bu kasallikni Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibiga kiruvchi keng darajada ixtisoslashgan, notakomil zamburug`lardan biri Botrytis cinerea Pers keltirib chiqaradi.

Kasallik tufayli asosan mevalar, shuningdek barglar, gullar va meva beruvchi tugunchalar zararlanadi.

Mevalarda dastlab qo`ng`ir tusli, yumshoq dog`lar paydo bo`ladi, keyinchalik bu dog`lar tez orada butun meva yuzasini qoplab oladi. Meva o`zining ta`mini va hidini yo`qotadi. Meva yuzasini qalin kulrang g`ubor egallaydi, bu zamburug`ning konidial spora hosil qilish bosqichidir. Zamburug` mitseliysi meva ichkarisiga chuqur kirib boradi va havo quruq kelgan taqdirda kulrang, quruq mo`miyosimon modda hosil qiladi.

Barglar zararlanganda dastlab kulrang, keng va yirik dog`lar yuzaga keladi. Zararlangan to`qima nobud bo`ladi. Dog`larda konidial spora hosil qilish bo`lib o`tadi.

Meva tugunchasini qo`ng`ir dog`lar halqadek o`rab oladi. Natijada tuguncha yashil holida qurib qoladi.

Zamburug` konidialari orqali tarqaladi. Konidialar yumaloq yoki ovalsimon, rangsiz, bir hujayrali, kattaligi 9-12x6,5-10 mkm keladi.

Konidialar kichkina tishsimon o`simtalar yordamida daraxtsimon tarzda tarmoqlangan konidiyabandda joylashadi.

Kuzgi mavsumda o`simlikning zararlangan qismlarida noto`g`ri shakldagi, diametri 2-5 mm keladigan mayda va qora sklerotsiyalar rivojlanadi. Bu sklerotsiyalar qishlab qoladi.

1-topshiriq. Kulrang chirish kasalligi bilan zararlangan mevalar va tugunchalar rasmini chizing.

2-topshiriq. Konidial spora hosil qiluvchi zamburug`ning preparatini tayyorlang va rasmini chizing.

Unshudring kasalligi. Bu kasallikni Erysiphales tartibiga kiruvchi xaltachali Sphaerotheca macularis Mag. f. fragaria Jacs zamburug`i keltirib chiqaradi.

MDH davlatlari hududida bu zamburug`ning xaltachali shakli kam uchraydi. Konidial bosqichdagi parazit zamburug` – Oidium erysiphoides ham unshudring keltirib chiqaradi. Unshudring kasalligi o`simlikning er ustki qismlarini barchasini zararlaydi. Zararlangan barglar, gullar, g`unchalar, tugunchalar siyrak, nozik va oq g`ubor bilan qoplanadi. G`unchalar va tugunchalardagi g`ubor ko`zga tashlanmaydi.

Zamburug` odatda barglarning ostki tomonida boshqa unshudring turlariga o`xshash oq g`ubor hosil qiladi. Bu erda mitseliy va konidial spora hosil qilish bo`lib o`tadi. Konidialar rangsiz, bochkasimon, o`lchamlari 29 – 32 x 18 – 22 mkm ga teng. Ular zanjir shaklida kalta konidiyabandga birikib turadi hamda osonlik bilan undan ajraladi. Zararlangan barglar burmali, chekka qismlari ichkari tomonga qarab qayrilgan, o`simlik butunlay qo`ng`ir dog`lar bilan qoplanadi.

Mevalar, ayniqsa etilib pishgan mevalarda, kasallik belgilari yaqqol ko`rinadi. Mevalar unshudring bilan kuchli darajada zararlanganda xuddi kraxmal sepilganday bo`ladi va badbo`y mog`or hidi aniqib turadi. Bu kasallik uchun xarakterli belgi hisoblanadi.

Zamburug`ning xaltachali bosqichi faqat keyingi yillarga kelib aniqlandi meva tana – kleystotetsiy g`ubor yuzasida yoz oxiriga kelib paydo bo`ladi. Kleystotetsiyalar yumaloq, to`q – jigarrang, oddiy qo`ng`ir tusli o`simtalarga ega bo`lib, bitta sumkada joylashadi. Unda 8 ta xaltachasporalar shakllanadi. Xaltachalar tugunsimon, o`lchami 45 – 90 x 40 – 70 mkm. Xaltachasporalar ovalsimon, bir hujayrali, rangsiz bo`lib, o`lchami 20 – 25 x 12 – 18 mkm ga teng.

Topshiriq. Qulupnay bargi va mevalaridagi unshudring belgilarini tasvirlang va rasmini chizing.

Qulupnay bargi chipor kasalligi. *Oq chipor kasalligi.* Bu kasallik sababchisi Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibiga kiruvchi Ramularia tulasnei Sacc zamburug`idir.

Zamburug` asosan barglarni zararlaydi, ammo bu kasallik bilan yon bargchalar, gullar va mo`ylovchalar ham kasallanadi.

Dastlab barglarda mayda, yumaloq va qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi, bu dog'larning diametri 1 – 2 mm keladi. Keyinchalik bu dog'lar burchakli, markaziy qismi oqish bo'lib, uni pushti hoshiya o'rab oladi. Dog'ning markaziy qismi tushib ketadi, natijada barg ilma-teshik bo'lib qoladi. YOn barglarda, gullarda va mo'ylovlarda dog'lar cho'zinchoq, dastlab jigarrang bo'ladi. Ularning markazi oqish bo'lib, chekkalari qora hoshiya bilan o'ralgan. Dog'lar yuzasida havo namligi yuqori bo'lgan sharoitda zo'rg'a ko'rinadigan oq g'ubor paydo bo'ladi. Bular – zamburug'ning konidial spora hosil qilish bosqichi bo'lib, sporalar etishib chiqadi. Quruq materialda bularni lupa orqali kuzatish mumkin.

Konidiyalar rangsiz, tsilindsimon, bir hujayrali yoki 1 – 2 to'siqlarga ega bo'ladi. Konidiyabandlar kalta, tarmoqlanmagan, to'plam hosil qiladi va ustitsadan chiqib turadi. Konidiyalarning o'lchami 15 – 45 x 2,5 – 4,5 mkm keladi. Zararlangan qismlarda zamburug' sklerotsiy hosil qiladi. Sklerotsiyalar o'simlik to'qimasiga yarim botib kirgan holda joylashadi. Sklerotsiyalarning diametri 0,5-0,8 mm keladi, shakli ustunsimon yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin. Bahorda ular konidial spora hosil qilishga o'tadi.

Zamburug'ning saqlanib qolishida xaltachali zamburug' stadiyasidagi qo'zg'atuvchi – Ascomycetes sinfi, Sphaeriales tartibiga kiruvchi *Mycosphaerella fragariae* Sacc asosiy rol o'ynaydi. Peritetsiyalardagi xaltachalar tsilindsimon, ba'zan yuqorigi qismi qayrilgan, o'lchami 50 – 90 x 7 – 9 mkm keladi. Xaltachasporalar ikki hujayrali, rangsiz, tsilindsimon, to'g'ri, o'lchami 12 – 15 x 3 – 4 mkm ga teng. Peritetsiyalar bahor faslida sklerotsiyalardagi konidialarga nisbatan kechroq etishadi.

Qo'ng'ir chipor kasalligi. Bu kasallikni Deuteromycetes sinfi, Acervulales tartibiga kiruvchi *Marssonina potentillae*, P.Marn. f.*fragariae* (Lib) keltirib chiqaradi.

Zamburug'ning yana bir turi – *Fabraea fragariae* Kleb (Pezizales tartibi) ham bu kasallikka sababchi bo'ladi. Ammo yuqoridagi zamburug' rivojlanishi bilan u o'zining ahamiyatini yo'qotadi.

Asosan barglar va yonbarglar zararlanadi. Zararlangan barglarda noto'g'ri shakldagi (ba'zan yumaloq), tomirlar orasida dog'lar yuzaga keladi. Dog'lar qizil-qo'ng'ir, qo'ng'ir yoki qora pushti, periferik qismida qora tusda bo'ladi. YOn barglar va mo'ylovchalarda dog'lar mayda, biroz botiq, pushti rangda tovlanadi.

100-rasm. Qulupnay bargi olachiporlilik kasalligi. 1. oq chiporlilik. A. Zararlangan barg. B. Konidial spora hosil qiluvchi zamburug'. V. Xaltacha va askosporalar. 2. qo'ng'ir olachipor kasalligi. A. Zararlangan barg. B. Konidiyalar.

100-rasm. Qulupnay bargi olachiporlik kasalligi. 3. jigarrang burchaksimon olachiporlik. A. Zararlangan barg. B. Zararkunandanani konidial spora hosil qilishi.

Bargning yuqorigi qismidagi dog'larda mayda qora (xuddi laklangan) yostiqlar – zamburug'ning konidial spora hosil qilishi bo'lib o'tadi. Spora hosil bo'lishi epidermis ostida stroma ko'rinishida bo'lib, sporalar rangsiz, mayda (16,5 – 28 x 5 – 7,5 mkm), ikki hujayrali konidiallarda kechadi. Konidiyaning ustki hujayrasi tumshuqsimon tarzda qiyshiq pastkisi esa - tsilindr shaklida, sporalarining tuzilishi bog'bonlik qaychisini eslatadi. Qo'ng'ir olachipor kasalligi qo'zg'atuvchisi avvalgi yildagi yashil barglar va nobud bo'lgan barglarda, zamburug' yoki epidermis ostidagi konidial yostiqlar shaklida qishlab qoladi.

Kasallik erta bahor faslida rivojlanadi, yozgi mavsumga kelib kasallik rivojlanishi darajasi kamayadi, vegetatsiya oxiriga kelib, yana avj oladi.

Xaltachali bosqichdagi kasallik qo'zg'atuvchi MDH hududida uchramaydi.

Barglarning jigarrang chipor kasalligi. Sinonimlari – burchakli olachipor kasalligi yoki barglarning buralishi. Ushbu kasallikning sababchisi Deuteromycetes sinfi, Pycnidiales tartibiga kiruvchi *Zythia fragariae* Hik., (*Phyllosticta grandimaculans* Bubak et Krieg) hisoblanadi.

Zararlangan barglarda yumaloq yoki to'q jigarrang dog' paydo bo'ladi, dog' atrofi qora hoshiya bilan ajralib turadi. Ular dastlab kichik o'lchamda bo'ladi (0,1-0,5 cm), keyinchalik tez kattalashadi. Dog'lar qo'shiladi, zararlangan to'qima yuzasida noto'g'ri shakl hosil qiladi. Dog'lar ko'proq barg tomirlari atrofida yoki barg chekkasidan markazga tomon yo'nalgan bo'ladi va V simon shaklga kiradi. Vaqt o'tishi bilan dog' markazidagi kutikula emiriladi, qari

barglarda esa to`kilib tushadi. Bargning ustki yuzasidagi dog`lar markazida qo`ng`ir nuqtalar shaklida piknidiyalalar shakllanadi. Piknidiyalardagi sporalar bir hujayrali, mayda (4,8-1,52 mkm), rangsiz va to`g`ri bo`ladi.

Kasallik yozning ikkinchi yarmiga kelib rivojlanadi, kuzga kelib barglarning butunlay nobud bo`lishiga sabab bo`ladi. Zamburug` quruq va yashil ko`rinishda konidial spora hosil qilgan holda qishlab qoladi.

Topshiriq. Qulupnayda uchraydigan turli chipor kasalliklarning diagnostikasiga doir jadvalni to`ldiring.

26-jadval.

Qulupnayning chipor kasalliklarini diagnostikasi

№	Kasallik nomi	Kasallik qo`zg`atuvchisi	Dog`larning ko`rinishi	Kasallik qo`zg`atuvchisining konidial spora etishtiruvchining tashqi ko`rinishi
1	Barglarning oq chipor kasalligi			
2	Barglarning qo`ng`ir chipor kasalligi			
3	Barglarning jigarrang chipor kasalligi			

Vertitsillyoz vilt. Bu kasallikni Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibiga kiruvchi Verticillium albo-atrum tuproq zamburug`i keltirib chiqaradi.

Vertitsillyoz qulupnay butasining ildizini va ildiz bo`yinchasini zararlaydi. Zararlangan o`simliklar o`sishtan orqada qoladi. Barglari sekin rivojlanadi, yon bargchalari vegetatsiya oxirida engilgina qizaradi. Ildizning ichki qismi va qulupnay poyasining o`zak qismi qo`ng`ir tusga kirib, quruq chirindiga aylanadi, ya`ni chiriydi. Oqibatda o`simlik nobud bo`ladi.

Zararlangan ildizning naylar sistemasida mikroskopik tahlil qilinganda oqish-kulrang zamburug`ni va mayda kulrang sklerotsiyalarni qayd qilish mumkin.

Konidial spora hosil qiluvchi zamburug`ning konidiyabandlari halqasimon-tarmoqlangan, uzunligi 700 mkm keladi. Konidiyalar bir hujayrali, tuxumsimon-uzunchoq, 5 – 15 x 1 – 3 mkm o`lchamda, rangsiz bo`ladi.

1-topshiriq. Verititsillyoz infeksiyasi bilan zararlangan qulupnay ildizini tahlil qiling. Spora hosil qilayotgan zamburug`dan preparat tayyorlang. Buning uchun o`simlikning zararlangan qismidan (ildiz yoki poya) ko`ndalangiga yoki uzunasiga kesiladi va nozik kesma olinadi. Bu kesmani nam kamerada 2-3 kun qo`yiladi. Zararlangan to`qimadagi zamburug` tufayli oqish-kulrang g`ubor paydo bo`ladi. Preparatda zamburug`ning halqasimon tarmoqlangan konidiyabandalari va kulrang mikrosklerotsiyalari ko`zga tashlanadi.

3-topshiriq. Zamburug`ning spora hosil qilish jarayonini rasmini chizing.

Ildiz fitoftorozi. Ushbu kasallikning sababchisi Phycomycetes sinfi, Peronosporales tartibiga kiruvchi Phytophthora fragaria Hik zamburug`idir. Kasallik alomatlari bahorda paydo bo`ladi. Kasallangan qulupnay tuplari rivojlanishdan orqada qoladi, barglar o`zining tabiiy tusini yo`qotadi va kulrang tusga kiradi. YOn bargchalar kaltalashadi, barg plastinkasi kichiklashadi. Mevalar pishgandan keyin bunday butalar nobud bo`ladi.

Zararlangan ildiz tizimida ham o`zgarishlar yuzaga keladi: asosiy ildizdan chiquvchi yon ildizlar rivojlanmaydi va nobud bo`ladi, shuning uchun ham ildizning asosiy qismi va yirikroq qismlari yalang`och bo`lib qoladi. Zararlangan ildizni kesib ko`rilganda markaziy tsilindrni qizil rangga kirganini ko`rish mumkin. Ildiz nobud bo`lgandan keyin jigarrang bo`lib qoladi.

Ildizning markaziy tsilindrda zamburug` oosporalari etishadi. Oosporalar tuproqda 8 yilgacha saqlanib qolishi mumkin. Oosporalardan zoosporalar hosil bo`ladi. Bu zoosporalar nozik yon

ildizlarni zararlaydi. Ulardan hosil bo'lgan mitseliy ildiz markaziy tsilindriga qarab o'sishda davom etadi.

Topshiriq. Gerbariy namunalari va plakatlardan foydalanib, qulupnay ildizining fitofторoz bilan kasallanish simptomlarining rasmini chizing. Birlamchi infektsiya manbaini qayd qiling.

Qulupnayning virusli kasalliklari.

Qulupnayning viruslari tufayli kelib chiqadigan kasalliklari ko'pchilik hollarda shunga yarasha simptom hosil qiladi.

Barglarning g'adir-budirligi. Ushbu kasallikda qulupnay barglari g'adir budir bo'lib, kichrayib qoladi va rangsizlanadi. Zararlangan barg tomirlari atrofida qo'ng'ir nekrotik dog'lar yuzaga keladi. Barg tomirlari oqish, biroz shishasimon bo'ladi.

Ksantoz (sariqlik, mozaika). Barglar yaxshi rivojlanmaydi, yon barglar kaltalashadi. Barg plastinkasi sarg'ayadi yoki mozaik ranga ega bo'ladi. Barg chekkalari markaziy tomir tomonga qarab buralib ketadi. Gulbandlari kaltalashadi.

Olachiporlik. Barglarda olachipor xlorotik dog'lar paydo bo'ladi. O'simlik o'sishdan orqada qoladi. YOsh barglarning qismlari asimmetrik holatga keladi.

Gultojibarglarning yashil bo'lishi. O'simlik rivojlanishdan kechikadi, barglari mayda, och-yashil tusli, g'adir-budir va burmalanib ketadi. Gulning kosachabarglari juda kattalashib ketadi, tojbarglarda yashil dog'lar paydo bo'ladi. O'simlik o'sib borgan sari unda juda ko'p mayda bargar hosil bo'ladi. O'simlik g'uj bo'lib qoladi. Gullar yaxshi rivojlanmaydi yoki ipsimon formaga kiradi va meva bermaydi.

Qulupnayda viruslarni aniqlash diagnostikasi haddan tashqari qiyin. Turli viruslar o'xshasha simptomlar keltirib chiqarishi mumkin. Aniq diagnostik tadbirlar olib borish uchun indikator-o'simliklar zarur bo'ladi. Bunday o'simliklardan ko'proq o'rmon ertuti – *Fragaria vesca* ishlatiladi. Virus tashuvchilar – shira bitlari, tsikadalar va nematodalar hisoblanadi.

Topshiriq. Qulupnayda virusli kasalliklarni simptomlarining jadval vositasida va gerbariy namunalari asosida rasmlarini chizing.

Qulupnay kasalliklari.

Kulrang chirish. Bu kasallikni Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibiga kiruvchi keng darajada ixtisoslashgan, notakomil zamburug'lardan biri *Botrytis cinerea* Pers keltirib chiqaradi.

Kasallik tufayli asosan mevalar, shuningdek barglar, gullar va meva beruvchi tugunchalar zararlanadi.

Mevalarda dastlab qo'ng'ir tusli, yumshoq dog'lar paydo bo'ladi, keyinchalik bu dog'lar tez orada butun meva yuzasini qoplab oladi. Meva o'zining ta'mini va hidini yo'qotadi. Meva yuzasini qalin kulrang g'ubor egallaydi, bu zamburug'ning konidial spora hosil qilish bosqichidir. Zamburug' mitseliysi meva ichkarisiga chuqur kirib boradi va havo quruq kelgan taqdirda kulrang, quruq mo'miyosimon modda hosil qiladi.

Barglar zararlanganda dastlab kulrang, keng va yirik dog'lar yuzaga keladi. Zararlangan to'qima nobud bo'ladi. Dog'larda konidial spora hosil qilish bo'lib o'tadi.

Meva tugunchasini qo'ng'ir dog'lar halqadek o'rab oladi. Natijada tuguncha yashil holida qurib qoladi.

Zamburug' konidialari orqali tarqaladi. Konidialar yumaloq yoki ovalsimon, rangsiz, bir hujayrali, kattaligi 9-12x6,5-10 mkm keladi.

Konidialar kichkina tishsimon o'simtalar yordamida daraxtsimon tarzda tarmoqlangan konidiyabandda joylashadi.

Kuzgi mavsumda o'simlikning zararlangan qismlarida noto'g'ri shakldagi, diametri 2-5 mm keladigan mayda va qora sklerotsiyalar rivojlanadi. Bu sklerotsiyalar qishlab qoladi.

1-topshiriq. Kulrang chirish kasalligi bilan zararlangan mevalar va tugunchalar rasmini chizing.

2-topshiriq. Konidial spora hosil qiluvchi zamburug'ning preparatini tayyorlang va rasmini chizing.

Unshudring kasalligi. Bu kasallikni Erysiphales tartibiga kiruvchi xaltachali *Sphaerotheca macularis* Mag. f. *fragaria* Jacs zamburug'i keltirib chiqaradi.

MDH davlatlari hududida bu zamburug`ning xaltachali shakli kam uchraydi. Konidiyal bosqichdagi parazit zamburug` – *Oidium erysiphoides* ham unshudring keltirib chiqaradi. Unshudring kasalligi o`simlikning er ustki qismlarini barchasini zararlaydi. Zararlangan barglar, gullar, g`unchalar, tugunchalar siyrak, nozik va oq g`ubor bilan qoplanadi. G`unchalar va tugunchalardagi g`ubor ko`zga tashlanmaydi.

Zamburug` odatda barglarning ostki tomonida boshqa unshudring turlariga o`xshash oq g`ubor hosil qiladi. Bu erda mitseliy va konidial spora hosil qilish bo`lib o`tadi. Konidiyalar rangsiz, bochkasimon, o`lchamlari $29 - 32 \times 18 - 22$ mkm ga teng. Ular zanjir shaklida kalta konidiyabandga birikib turadi hamda osonlik bilan undan ajraladi. Zararlangan barglar burmali, chekka qismlari ichkari tomonga qarab qayrilgan, o`simlik butunlay qo`ng`ir dog`lar bilan qoplanadi.

Mevalar, ayniqsa etilib pishgan mevalarda, kasallik belgilari yaqqol ko`rinadi. Mevalar unshudring bilan kuchli darajada zararlanganda xuddi kraxmal sepilganday bo`ladi va badbo`y mog`or hidi aniqlanib turadi. Bu kasallik uchun xarakterli belgi hisoblanadi.

Zamburug`ning xaltachali bosqichi faqat keyingi yillarga kelib aniqlandi meva tana – kleystotetsiy g`ubor yuzasida yoz oxiriga kelib paydo bo`ladi. Kleystotetsiyalar yumaloq, to`q – jigarrang, oddiy qo`ng`ir tusli o`simtalarga ega bo`lib, bitta sumkada joylashadi. Unda 8 ta xaltachasporalar shakllanadi. Xaltachalar tugunsimon, o`lchami $45 - 90 \times 40 - 70$ mkm. Xaltachasporalar ovalsimon, bir hujayrali, rangsiz bo`lib, o`lchami $20 - 25 \times 12 - 18$ mkm ga teng.

Topshiriq. Qulupnay bargi va mevalaridagi unshudring belgilarini tasvirlang va rasmini chizing.

Qulupnay bargi chipor kasalligi. *Oq chipor kasalligi.* Bu kasallik sababchisi *Deuteromycetes* sinfi, *Hyphales* tartibiga kiruvchi *Ramularia tulasnei* Sacc zamburug`idir.

Zamburug` asosan barglarni zararlaydi, ammo bu kasallik bilan yon bargchalar, gullar va mo`ylovchalar ham kasallanadi.

Dastlab barglarda mayda, yumaloq va qo`ng`ir dog`lar paydo bo`ladi, bu dog`larning diametri 1 – 2 mm keladi. Keyinchalik bu dog`lar burchakli, markaziy qismi oqish bo`lib, uni pushti hoshiya o`rab oladi. Dog`ning markaziy qismi tushib ketadi, natijada barg ilma-teshik bo`lib qoladi. YOn barglarda, gullarda va mo`ylovlarda dog`lar cho`zinchoq, dastlab jigarrang bo`ladi. Ularning markazi oqish bo`lib, chekkalari qora hoshiya bilan o`ralgan. Dog`lar yuzasida havo namligi yuqori bo`lgan sharoitda zo`rg`a ko`rinadigan oq g`ubor paydo bo`ladi. Bular – zamburug`ning konidiyal spora hosil qilish bosqichi bo`lib, sporalar etishib chiqadi. Quruq materialda bularni lupa orqali kuzatish mumkin.

Konidiyalar rangsiz, tsilindsimon, bir hujayrali yoki 1 – 2 to`siqlarga ega bo`ladi. Konidiyabandlar kalta, tarmoqlanmagan, to`plam hosil qiladi va ustitsadan chiqib turadi. Konidiyalarning o`lchami $15 - 45 \times 2,5 - 4,5$ mkm keladi. Zararlangan qismlarda zamburug` sklerotsiy hosil qiladi. Sklerotsiyalar o`simlik to`qimasiga yarim botib kirgan holda joylashadi. Sklerotsiyalarning diametri 0,5-0,8 mm keladi, shakli ustunsimon yoki noto`g`ri bo`lishi mumkin. Bahorda ular konidiyal spora hosil qilishga o`tadi.

Zamburug`ning saqlanib qolishida xaltachali zamburug` stadiyasidagi qo`zg`atuvchi – *Ascomycetes* sinfi, *Sphaeriales* tartibiga kiruvchi *Mycosphaerella fragaria* Sacc asosiy rol o`ynaydi. Peritetsiyalardagi xaltachalar tsilindsimon, ba`zan yuqorigi qismi qayrilgan, o`lchami $50 - 90 \times 7 - 9$ mkm keladi. Xaltachasporalar ikki hujayrali, rangsiz, tsilindsimon, to`g`ri, o`lchami $12 - 15 \times 3 - 4$ mkm ga teng. Peritetsiyalar bahor faslida sklerotsiyalardagi konidiyalarga nisbatan kechroq etishadi.

Qo`ng`ir chipor kasalligi. Bu kasallikni *Deuteromycetes* sinfi, *Acervulales* tartibiga kiruvchi *Marssonina potentillae*, P.Marn. f.*fragaria* (Lib) keltirib chiqaradi.

Zamburug`ning yana bir turi – *Fabraea fragaria* Kleb (*Pezizales* tartibi) ham bu kasallikka sababchi bo`ladi. Ammo yuqoridagi zamburug` rivojlanishi bilan u o`zining ahamiyatini yo`qotadi.

Asosan barglar va yonbarglar zararlanadi. Zararlangan barglarda noto`g`ri shakldagi (ba`zan yumaloq), tomirlar orasida dog`lar yuzaga keladi. Dog`lar qizil-qo`ng`ir, qo`ng`ir yoki qora

pushti, periferik qismida qora tusda bo`ladi. YOn barglar va mo`ylovchalarda dog`lar mayda, biroz botiq, pushti rangda tovlanadi.

100-rasm. Qulupnay bargi olachiporlik kasalligi. 1. oq chiporlik. A. Zararlangan barg. B. Konidial spora hosil qiluvchi zamburug`. V. Xaltacha va askosporalar. 2. qo`ng`ir olachipor kasalligi. A. Zararlangan barg. B. Konidiyalar.

100-rasm. Qulupnay bargi olachiporlik kasalligi. 3. jigarrang burchaksimon olachiporlik. A. Zararlangan barg. B. Zararkunandaning konidial spora hosil qilishi.

Bargning yuqorigi qismidagi dog`larda mayda qora (xuddi laklangan) yostiqlar – zamburug`ning konidial spora hosil qilishi bo`lib o`tadi. Spora hosil bo`lishi epidermis ostida stroma ko`rinishida bo`lib, sporalar rangsiz, mayda (16,5 – 28 x 5 – 7,5 mkm), ikki hujayrali konidiallarda kechadi. Konidiyaning ustki hujayrasi tumshuqsimon tarzda qiyshiq pastkisi esa - tsilindr shaklida, sporalarining tuzilishi bog`bonlik qaychisini eslatadi. Qo`ng`ir olachipor kasalligi qo`zg`atuvchisi avvalgi yildagi yashil barglar va nobud bo`lgan barglarda, zamburug` yoki epidermis ostidagi konidial yostiqlar shaklida qishlab qoladi.

Kasallik erta bahor faslida rivojlanadi, yozgi mavsumga kelib kasallik rivojlanishi darajasi kamayadi, vegetatsiya oxiriga kelib, yana avj oladi.

Xaltachali bosqichdagi kasallik qo`zg`atuvchi MDH hududida uchramaydi.

Barglarning jigarrang chipor kasalligi. Sinonimlari – burchakli olachipor kasalligi yoki barglarning buralishi. Ushbu kasallikning sababchisi Deuteromycetes sinfi, Pycnidiales tartibiga kiruvchi *Zythia fragaria* Hik., (*Phyllosticta grandimaculans* Bubak et Krieg) hisoblanadi.

Zararlangan barglarda yumaloq yoki to`q jigarrang dog` paydo bo`ladi, dog` atrofi qora hoshiya bilan ajralib turadi. Ular dastlab kichik o`lchamda bo`ladi (0,1-0,5 cm), keyinchalik tez kattalashadi. Dog`lar qo`shiladi, zararlangan to`qima yuzasida noto`g`ri shakl hosil qiladi. Dog`lar ko`proq barg tomirlari atrofida yoki barg chekkasidan markazga tomon yo`nalgan bo`ladi va V simon shaklga kiradi. Vaqt o`tishi bilan dog` markazidagi kutikula emiriladi, qari barglarda esa to`kilib tushadi. Bargning ustki yuzasidagi dog`lar markazida qo`ng`ir nuqtalar shaklida piknidialar shakllanadi. Piknidialardagi sporalar bir hujayrali, mayda (4,8-1,52 mkm), rangsiz va to`g`ri bo`ladi.

Kasallik yozning ikkinchi yarmiga kelib rivojlanadi, kuzga kelib barglarning butunlay nobud bo`lishiga sabab bo`ladi. Zamburug` quruq va yashil ko`rinishda konidial spora hosil qilgan holda qishlab qoladi.

Topshiriq. Qulupnayda uchraydigan turli chipor kasalliklarning diagnostikasiga doir jadvalni to`ldiring.

26-jadval.

Qulupnayning chipor kasalliklarini diagnostikasi

№	Kasallik nomi	Kasallik qo`zg`atuvchisi	Dog`larning ko`rinishi	Kasallik qo`zg`atuvchisining konidial spora etishtiruvchining tashqi ko`rinishi
1	Barglarning oq chipor kasalligi			
2	Barglarning qo`ng`ir chipor kasalligi			
3	Barglarning jigarrang chipor kasalligi			

Vertitsillyoz vilt. Bu kasallikni Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibiga kiruvchi *Verticillium albo-atrum* tuproq zamburug`i keltirib chiqaradi.

Vertitsillyoz qulupnay butasining ildizini va ildiz bo`yinchasini zararlaydi. Zararlangan o`simliklar o`sisdan orqada qoladi. Barglari sekin rivojlanadi, yon bargchalari vegetatsiya

oxirida engilgina qizaradi. Ildizning ichki qismi va qulupnay poyasining o`zak qismi qo`ng`ir tusga kirib, quruq chirindiga aylanadi, ya`ni chiriydi. Oqibatda o`simlik nobud bo`ladi.

Zararlangan ildizning naylar sistemasida mikroskopik tahlil qilinganda oqish-kulrang zamburug`ni va mayda kulrang sklerotsiylarni qayd qilish mumkin.

Konidial spora hosil qiluvchi zamburug`ning konidiyabandlari halqasimon-tarmoqlangan, uzunligi 700 mkm keladi. Konidiyalar bir hujayrali, tuxumsimon-uzunchoq, 5 – 15 x 1 – 3 mkm o`lchamda, rangsiz bo`ladi.

1-topshiriq. Verititsillyoz infeksiyasi bilan zararlangan qulupnay ildizini tahlil qiling. Spora hosil qilayotgan zamburug`dan preparat tayyorlang. Buning uchun o`simlikning zararlangan qismidan (ildiz yoki poya) ko`ndalangiga yoki uzunasiga kesiladi va nozik kesma olinadi. Bu kesmani nam kamerada 2-3 kun qo`yiladi. Zararlangan to`qimadagi zamburug` tufayli oqish-kulrang g`ubor paydo bo`ladi. Preparatda zamburug`ning halqasimon tarmoqlangan konidiyabandlari va kulrang mikrosklerotsiylari ko`zga tashlanadi.

3-topshiriq. Zamburug`ning spora hosil qilish jarayonini rasmini chizing.

Ildiz fitoforozi. Ushbu kasallikning sababchisi Phycomycetes sinfi, Peronosporales tartibiga kiruvchi *Phytophthora fragariae* Hik zamburug`idir. Kasallik alomatlari bahorda paydo bo`ladi. Kasallangan qulupnay tuplari rivojlanishdan orqada qoladi, barglar o`zining tabiiy tusini yo`qotadi va kulrang tusga kiradi. YOn bargchalar kaltalashadi, barg plastinkasi kichiklashadi. Mevalar pishgandan keyin bunday butalar nobud bo`ladi.

Zararlangan ildiz tizimida ham o`zgarishlar yuzaga keladi: asosiy ildizdan chiquvchi yon ildizlar rivojlanmaydi va nobud bo`ladi, shuning uchun ham ildizning asosiy qismi va yirikroq qismlari yalang`och bo`lib qoladi. Zararlangan ildizni kesib ko`rilganda markaziy tsilindrni qizil rangga kirganini ko`rish mumkin. Ildiz nobud bo`lgandan keyin jigarrang bo`lib qoladi.

Ildizning markaziy tsilindrida zamburug` oosporalari etishadi. Oosporalar tuproqda 8 yilgacha saqlanib qolishi mumkin. Oosporalardan zoosporalar hosil bo`ladi. Bu zoosporalar nozik yon ildizlarni zararlaydi. Ulardan hosil bo`lgan mitseliy ildiz markaziy tsilindriga qarab o`shida davom etadi.

Topshiriq. Gerbariy namunalari va plakatlardan foydalanib, qulupnay ildizining fitoforozi bilan kasallanish simptomlarining rasmini chizing. Birlamchi infeksiya manbaini qayd qiling.

Qulupnayning virusli kasalliklari.

Qulupnayning viruslari tufayli kelib chiqadigan kasalliklari ko`pchilik hollarda shunga yarasha simptom hosil qiladi.

Barglarning g`adir-budirligi. Ushbu kasallikda qulupnay barglari g`adir budir bo`lib, kichrayib qoladi va rangsizlanadi. Zararlangan barg tomirlari atrofida qo`ng`ir nekrotik dog`lar yuzaga keladi. Barg tomirlari oqish, biroz shishasimon bo`ladi.

Ksantoz (sariqlik, mozaika). Barglar yaxshi rivojlanmaydi, yon barglar kaltalashadi. Barg plastinkasi sarg`ayadi yoki mozaik ranga ega bo`ladi. Barg chekkalari markaziy tomir tomonga qarab buralib ketadi. Gulbandlari kaltalashadi.

Olachiporlik. Barglarda olachipor xlorotik dog`lar paydo bo`ladi. O`simlik o`shidanda orqada qoladi. YOsh barglarning qismlari asimmetrik holatga keladi.

Gultojibarglarning yashil bo`lishi. O`simlik rivojlanishdan kechikadi, barglari mayda, och-yashil tusli, g`adir-budir va burmalanib ketadi. Gulning kosachabarglari juda kattalashib ketadi, tojibarglarda yashil dog`lar paydo bo`ladi. O`simlik o`shib borgan sari unda juda ko`p mayda bargar hosil bo`ladi. O`simlik g`uj bo`lib qoladi. Gullar yaxshi rivojlanmaydi yoki ipsimon formaga kiradi va meva bermaydi.

Qulupnayda viruslarni aniqlash diagnostikasi haddan tashqari qiyin. Turli viruslar o`xshasha simptomlar keltirib chiqarishi mumkin. Aniq diagnostik tadbirlar olib borish uchun indikator-o`simliklar zarur bo`ladi. Bunday o`simliklardan ko`proq o`rmon ertuti – *Fragaria vesca* ishlatiladi. Virus tashuvchilar – shira bitlari, tsikadalar va nematodalar hisoblanadi.

Topshiriq. Qulupnayda virusli kasalliklarni simptomlarining jadval vositasida va gerbariy namunalari asosida rasmlarini chizing.

*Laboratoriya
mashq'ulotlari*

**1- Laboratoriya ishi: O`SIMLIK KASALLIKLARINING ASOSIY TURLARI.
Laboratoriya mashg`ulotining ta`lim texnologiyasining modeli**

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	O`simlik kasalliklarining asosiy turlari.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda mavzu to`grisida bilim hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarda fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma`lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta`lim usullari:	BBB, "Klaster", ma`ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta`lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabaning
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min)	1.1 Fitopatologiya fanining predmeti. Mavzu bo`yicha ma`lumotlar beriladi. O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. Mavzu bo`yicha asosiy ma`lumotlar beriladi. Ma`ruza davomida mavzu bo`yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo`yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to`ldirish taklif etiladi, va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg`ulotga tayyorlanish.	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma`lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Ish rejasi: (o`simlik kasalliklarini tashqi belgilari bilan tanishish)

1)Dog`lanish – Masalan:

1.Bodring mozaikasi-Cicimis mosaic.

2. O`rikning klyasterosporioz kasalligi-Clasterosporium karpophilum
 3. G`o`za gommozi-Xanthomonas malvacearum
 4. Tok xlorizi
- 2) G`uborlarni hosil bo`lishi - Masalan:
1. Olmaning un-shudring kasalligi-Podesphaera lencovricha
 2. Bedaning soxta un-shudring kasalligi-Peronospora aestivalis
 3. Olmaning kalmaroz kasalligi-Venturia ungalis
- 3) Yastiqchalarni hosil bo`lishi – Masalan:
1. Bug`doyning targ`il poya zang kasalligi-Piccinia graminas
- 4) So`lish – Masalan:
1. G`o`za vilti – Verticillium dahliae
 2. Pomidor raki-Corynobacterium michiganense
- 5) Shishlarning hosil bo`lishi – Masalan:
1. Tokning bakteriya raki-Agrobacterium tumefaciens
 2. Karam kilasi-Plasmodiophora brassicae
- 6) Chirish – Masalan:
1. Kartoshkani ho`l chirishi-Erwinia carotovare
 2. Sabzini oq chirishi-Sclerotina sclerotiorum
- 7) O`simlik a`zolarini o`zgarishi (deformatsiya). Masalan:
1. Olxo`ri mevasining danaksizlanish kasalligi-Taphrina pruni
 2. Shaftoli bargini bujmayishi-Taphrina defarmans
 3. Kartoshka barglarini buralib qolish kasalligi-Virus 1
- Dars o`simlik kasalliklarining tashqi belgilari asosida o`zlashtiriladi.

Zaruriy jihozlar: O`simlik kasalliklarini tashqi belgilari bilan tanishtirish bo`yicha o`tqaziladigan darsga kasalliklarni turlariga talluqli gerbariy materiallari, lupalar tayyorlanadi va tanlangan gerbariy o`simliklarning poyasi, bargi, ildizi, guli hamda mevalaridan olingan bo`lishi kerak.

Topshirik: 1. Kasallikni tashqi belgilari bilan tanishish.

2. Mikroskopda ko`rish va rasmlarni chizish.

Dog`lanish: O`simlik to`qimalarining nobud bo`lishi tufayli uning a`zolarida dog`lar yuzaga keladi, bunday holni qo`shimcha barg va mevalarda kuzatishimiz mumkin. Dog`lar shakli jihatidan yumaloq, cho`ziq, ma`lum shaklsiz, burchakli, xoshiyali va boshqa turda; ularning rangi – oq, qo`ngir, qora, sariq, kul rang, qizil xoshiyalari ham turli rangda bo`ladi; dog`larni zamburg`lar, bakteriyalar, viruslar va atrof muxitning noqulay sharoitlari yuzaga keltirishi mumkin.

Dog`lanish bilan tanishishda o`zida shu belgini yaqqol namoyon qilgan o`simlikni qo`yidagi kasalliklari bilan tanishish kerak: o`rik klyasterosporiozi, kartoshka fitoftorozi, qulupnay oq dog`lanish kasalligi (zamburg` keltarib chiqargan kasalliklar), bodring bakteriozi, g`o`za gommozi (bakteriya keltirib chiqargan kasalliklar), bodring mozaikasi, loviya mozaikasi (virus kuzgatgan kasalliklar), tok va g`o`za xlorozi (yuqumsiz kasallik).

G`uborlarning hosil bo`lishi. O`simlik kasalligini bu turi zamburg`lar uchun xos bo`lib, zararlangan barg, poya va mevalarda zamburg`ning mitseliysi va sporalarining to`plami yuzaga keladi. Bu g`uborlar turli rangda bo`lib, zararlangan o`simlik yuzasidan osonlik bilan sidiriladi. Ayrim hollarda g`uborlar to`qimalarda o`zgarishlarni vujudga keltirmaydi. g`uborlarning hosil bo`lishiga yaqqol misol qilib un-shudring kasalligini olish mumkin. G`alla donli ekinlarning barglarida, poyasida, bodringning bargi va ayrim holda mevasida oq yoki kul rang osonlik bilan sidiriladigan g`uborlarni kuzatishimiz mumkin.

Yastiqchalarni hosil bo`lishi. Kasallikning bu turi ham zamburg`lar uchun xosdir. Yastiqchalar zararlangan o`simlik sirtida zamburg`ning sporalar to`plami tufayli yuzaga keladi. Sporalar etilgunga qadar sirtidan epidermus bilan qoplanib turadi, epidermus yorilib, tashqariga chiqqan etuk sporalar shamol va yomg`ir orqali atrofga tarqaladi. Yastiqchalarning shakllari xujayin o`simlikning xususiyatiga bog`liqdir. Yastiqchalar bilan tanishish uchun g`alla donli

ekinlarning targil poya zang kasalligini olishimiz mumkin. Zararlangan o'simlikning poyasida va barg qo'ltigida epidermisning yorilgan qismidan qo'ngir yoki qoramtir rangli kukunsimon sporalar to'plamini ko'ramiz.

So'lish. O'simlik kasalliklarining ko'p tarqalgan turlaridan biri bo'lib, bunda o'simlik butunlay yoki uning ayrim qismi turgor holatini yuqotadi. Bu kasallik turi bir yillik o'simliklarda ham va ko'p yillik o'simliklarda ham, shu bilan birga mevali daraxtlarda ham uchraydi. Zararlangan o'simlikning ko'pincha yuqori qismi so'lishi va o'tqazuvchi to'qima naylari qo'ngir tusga kirishi kuzatiladi. Buni g'o'zaning vertitselliyozi so'lish kasalligi misolida ko'rishimiz mumkin. **Shishlarni hosil bo'lishi.** O'simlik a'zolarida shishlarni hosil bo'lishi, ko'pincha zararlangan to'qima hujayralarining hajmining kattalashishi natijasida o'simlik a'zolarining noto'g'ri rivojlanishi sababli (gipertrofiya-karam kilasi) yoki to'qima hujayralarini sonining oshishi tufayli (giperplaziya-mevali daraxtlarining rak kasalligi) yuzaga keladi. Shishlarni hosil bo'lishini karam kilasi va mevali daraxtlarning bakteriya raki misolida ko'rish mumkin.

O'simlik a'zolarini o'zgarishi (deformatsiya). O'simlik kasalligining bu turiga ayrim xaltali zamburg'lar, viruslar va boshqa sabablar tufayli yuzaga keladigan o'simlik a'zolaridagi (barg, poya, mevada) o'zgarishlarini olish mumkin. O'simlik a'zolarini o'zgarishlarining quyidagi turlari mavjud: «**Bujmayish**» (tirishish, burishish, buralish) barglarning parenxima hujayralarini barg tomirlariga nisbatan tez rivojlanishi tufayli ularning oraliq qismi bo'rtib chiqadi, masalan shaftoli bargini bujmayish kasalligi. «**Danaksizlanish**» danakli meva daraxtlarining gul tugunchasini zararlanish natijasida noto'g'ri rivojlanishi tufayli danaksiz meva qopchasi yuzaga keladi (olxo'ri mevasining danaksizlanishi).

«**Supurgining hosil bo'lishi**» o'simlik poyalarini noto'g'ri rivojlanishi oqibatida yuzaga keladi. Buni zamburg'ning ayrim avlodlari (olchada-Tarhgina avlodiga mansub zamburg'lar) yoki mikoplazmalar (tolda) yuzaga keltiradi. Kasallik tufayli poyalar mayda va to'planib o'sib, ko'rinishi supurgini eslatadi.

Barg va mevalarni shaklini o'zgarishi virus keltiradigan kasalliklar tufayli yuzaga keladi (g'o'zaning bargini bujmayishi, kartoshka va pomidorning stolbur, barglarni paportniksimon bo'lish kasalliklari). **Elimlarning hosil bo'lishi.** Bu kasallik turi ko'pincha daraxtsimon ayrim hollarda boshqa o'simliklarning poya, novda va mevalarida tashqi muhitning noqulay sharoiti yoki mikroorganizmlar ta'sirida yuzaga keladi. Zararlangan o'simlik a'zosining hujayrasi va hujayra devorlarini gidrolizlanishi tufayli sargish yoki qo'ngir rangli, ayrim holda qotib qoladigan elimsimon modda ajralib chiqadi.

Chirish. Kasallikning bu turi ko'p tarqalgan kasalliklardandir. O'simlikning etli, ozuqa moddaga va suvga boy qismi (ho'l meva, tukanaklar, ildiz mevalar) ko'pincha chiriydi. Ko'pincha o'simlikning asosida ham bu holni kuzatish mumkin. Chirish 2 xil bo'ladi - ho'l va quruq chirish. Ho'l chirishda zamburug' va bakteriya ta'sirida to'qima yumshab qoladi. Quruq chirishda esa hujayra devorining emirilishi tufayli to'qima uqalanuvchi kukunsimon massaga aylanadi.

Chirishga misol qilib kartoshkani quruq va ho'l chirishini hamda sabzavotlarni omborxonada saqlash davridagi chirishlarini (sabzini oq va kulrang chirishi) olishimiz mumkin.

2 – Laboratoriya ishi: O`simliklarning yuqumsiz va yuqumli kasalliklari

O`quv vaqti: 80 minut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	O`simliklarning yuqumsiz va yuqumli kasalliklari
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda mavzu to`grisida bilim hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarda fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma`lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta`lim usullari:	BBB, “Klaster”, ma`ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta`lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabaning
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashg`ulotiga kirish (10min)	1.1 Fitopatologiya fanining predmeti. Mavzu bo`yicha ma`lumotlar beriladi. O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. Mavzu bo`yicha asosiy ma`lumotlar beriladi. Ma`ruza davomida mavzu bo`yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo`yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to`ldirish taklif etiladi, va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg`ulotga tayyorlanish.	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma`lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Aneridiy - Oomitsetlar sinfiga oid tubon zamburuglarining erkaklik jinsiy organi

Ask - Askomitsetlar sinfiga mansub yukori zamburuglarning xaltacha shaklidagi jinsiy kupayish organi.

Askomitsetlar - Jinsiy kupayish xaltacha (ask) lar ichida rivojlanuvchi spora (askospora)lar vositasida amalga oshuvchi mitseliysi kup xujayrali, yukori zamburuglar sinfi
Inkubatsion davr - Kasallikning «yashirin» dpvri-usimlik parazit bilan zararlanishi xamda kasallikning birinchi tashki belgilari paydo bulishi orasida utgan davr.

Usimliklar uygunlashgan ximoyasi. Zararli organizmlar bilan kurashda barcha mumkin bulgan usullarni (agrotexnika kimyoviy biologik va xakozo xamda tabiiy tartibga solishni) birgalikda kullanishga muxim yondashiv, zararkunanda, kasallik kuzgatuvchilar yoki begona utlar populyatsiyasini iktisodiy zarar keltiradigan darajaga etkazmaslik uchun, kam xarajat kilib, muntazam ravishda olib boriladigan xavfsiz ximoya tizimi.

Yuqumli kasalliklar deb o`simlikdan o`simlikka yuqish hususiyatiga ega bo`lgan kasalliklarga aytiladi. Yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchilari: zamburug`lar, bakteriyalar, viruslar, aktinometsetlar, mikoplazmalar va gullik parazitlar bo`lishi mumkin. Yuqumli kasalliklarning kelib chiqishida o`simlik va parazit orasidagi asosiy munosabat- oziqlanishning parazit (tekinxo`r) lik yuli bilan amalga oshishi asosida bo`ladi.

O`simliklardagi yuqumsiz kasalliklar quyidagi faktorlar ta`sirida vujudga keladi: noqulay tuproq sharoiti; noqulay metereologik sharoit; o`simlik to`qimalarining mexanik parchalanishi; havodagi zararli moddalar; rengen nurlar ta`siri.

Tuproqda uchraydigan patogen mikroorganizmlar saprofit organizmlardan o`simliklarga ta`sir etish hususiyatiga qarab farq qiladi. Saprofit mikroorganizmlar o`zi hayot kechirayotgan xujayra hayotiga salbiy ta`sir ko`rsatadi va uni rivojlanishini to`xtatadi. Patogen mikroorganizmlar esa xujayra rivojlanishini to`xtatib qo`yadi, uning xisobiga hayot kechirib uni xalok qiladi yoki boshqa patologik jarayonni keltirib chiqaradi. Tabiatda uchraydigan mikroorganizmlar hayot kechirish usuliga qarab ularni quyidagi guruxlarga bo`lish mumkin:

- *Xaqiqiy parazitlar;*
- *Shartli saprofitlar;*
- *Fakultativ parazitlar.*

Ko`rsatilgan hususiyatlarning namoyon bo`lishi zamburug`larning patogenlik, virulentlik va agressivlik hususiyatlari bilan bog`liqdir. Patogenlik-mikroorganizmlarning kasallik keltirib chiqarish hususiyatidir. Uning zarari va ta`sir tezligi patogenlik darajasi va hususiyatiga qarab ortib boradi. Virulentlik-mikroorganizmlarning ma`lum turdagi yoki navdagi o`simlikni kasallantirish hususiyatiga aytiladi. Masalan, g`o`za o`simligida vilt kasalligini keltirib chiqaradigan V.dahlia zamburug`i faqat o`rta tolali g`o`za navlarini kasallantiradi. Bu zamburug` g`o`zaning ingichka tolali navlarini kasallantirmaydi. Agressivlik (tajovuskorlik) - patogenning kasallikka chidamli bo`lmagan o`simlik organlarida ko`payish hususiyati nazarda tutiladi. Agressiv turlar uzoq masofaga tarqalish, noqulay sharoitga moslanish hususiyatiga ega bo`ladi. Kasallik qo`zg`atuvchisining o`simlikka kirib kelishi, tarqalishi va kasallik belgilarning namoyon bo`lishi patologik jarayon deyiladi. Patologik jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshadi: o`simlikka kasallikning yuqishi, patogenning inkubatsiya davrini o`tishi, kasallikni davom etishi, kasallik belgilarining namoyon bo`lishi va tarqalishi. Kasallanish (zarajenie) deb infektsiyaning kasalga beriluvchan navdagi o`simlikka kirib kelishi, sporasining o`sib, uning xujayrasi ichida rivojlanib, o`simlikning himoya qilish hususiyatini g`olib chiqishga aytiladi. Kasallanish jarayonini mexanik zararlanishdan farq qila bilish zarur. Kasallanish jarayonini tasavvur qilish uchun qattiq qora kuya zamburug`ining bug`doy urug`ini kasallantirish mexanizmini qurib chiqamiz. ~alla ekin dalalaridagi qora kuya zamburug`ining spora qopchalari yorilib, spora urug` yuzasiga tushadi. Lekin, bu kasallanish jarayoni hisoblanmaydi. Tuproqqa ekilgan urug` unish jarayonida tuproqdagi qora kuya zamburug`i sporasi ham unib hosil qilgan mitseliy o`simlik o`simtasi ichiga kirib u bilan birga rivojlana boshlaydi. Bu jarayonga kasallanish deyiladi. O`simlikning kasallanishi uchun turli ekologik sharoit zarurdir. Ko`pchilik zamburug`lar 100% namlikda rivojlansa, virus kasalliklarini qo`zg`atuvchilari uchun 30-60 % namlik miqdori etarli hisoblanadi.

Kasallikning kelib chiqishida kasallikni tezashtiruvchi yoki chegaralovchi faktorlarham muhim rol o`ynaydi. Masalan, ayrim o`simliklar xujayrasidan biologik aktiv moddalar yoki antibiotiklar

ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek o`simlikning navi, yoshi ham kasallik miqdoriga ta`sir ko`rsatadi. YOrug`lik zamburug`lar tarqalishiga ta`sir ko`rsatmasada, bakteriyaga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Kislorodning mavjudligi barcha mikroorganizmlar uchun zarur hisoblanadi. Kislorod miqdori etarli bo`lgan sharoitda ular tez rivojlanadi. Kasallik qo`zg`atuvchisining o`simlikka kirib kelishi. Ko`pchilik patogen mikroorganizmlar o`simliklardagi tabiiy yo`llar -ustitsalar, chechevichkalar orqali kirib keladi. Masalan, mevali o`simliklarning soxta un shudring zamburug`i, karamning bakteriozi kasalligini qo`zg`atuvchilari asosan ustitsalar orqali kirib keladi. Fakultativ parazitlar o`simlikning mexanik zararlangan joylardan kirib keladi. Patogenlik mexanizmining kelib chiqishida -ko`pchilik mikroorganizmlar hosil qilgan fermentlar, toksinlar biologik aktiv moddalar ham muhim rol o`ynaydi. Fermentlardan - tsellyulaza, pektinaza, ksilanaza patogen mikroorganizmlarning o`simlik xujayrasiga kirib kelishida va o`simlik qoldiqlarini tuproqda parchalashda asosiy vosita hisoblanadi. Fitotoksinlar xujayrani xalok bo`lishiga sabab bo`ladi va kasallikning ichki, tashki belgilarining hosil qiladi. Kasallik qo`zg`atuvchilarning o`simlikda yashash joyiga qarab tashki parazitlar, ichki parazitlarga bo`linadi. Masalan, g`o`zaning vilt kasalligini qo`zg`atuvchisi o`simlik poyasidagi to`qimalarda, mevali o`simliklarning un shudring, galla ekinlarining zang kasalliklari o`simlik bargining ustida hayot kechiradi.

Kasallik qo`zg`atuvchisining inkubatsion davri -ko`pgina o`simliklarda kasallik qo`zg`atuvchisi uni kasallantirilgandan keyin ma`lum davrdan boshlab belgilari namoyon qiladi. Inkubatsion davr deb - kasallik qo`zg`atuvchisining o`simlikka kirib kelgandan boshlab dastlabki belgilarni hosil qilgan davrgacha o`tgan muddatga aytiladi. Inkubatsiya davri bir hafta, oylab, ba`zan undan ko`p muddatda bo`lishi mumkin. Inkubatsiya davrining uzun - qisqaligi patogenning agressivlik darajasiga, o`simlikning chidamliligik hususiyatiga bog`liqdir. Yuqumli kasalliklarni namoyon bo`lishi uni keltirib chiqaruvchi patogenga bog`liqdir. Natijada o`simlikda o`ziga xos tashki va ichki belgilar ko`zga tashlanadi. So`lish kasalligi - o`simlik ildizidagi, poyasidagi patogen mikroorganizmning xujayra devorini parchalab, o`tkazuvchi naylarni tusib quyishi natijalarida kutarilish oqimidagi suv miqdori bargda parlanayotgan suv miqdoridan kamayib ketadi. Patogenning ta`sirida poyada nekroz hosil bo`lsa, toksinlar ta`sirida bargda qizgish dog`larni hosil qiladi. Dog`lanish kasalligi bargda, mevada hosil bo`ladi. Masalan, bodiring bargining burchakli dog`lanishi, olmaning qo`ng`ir dog`lanishi, nokning oq dog`lanishi, kulupnayning oq va qo`ng`ir dog`lanishi. Pufaklanish kasalligi barg va mevalarda ko`rinadi. Masalan, un shudring kasalligi shaftoli, olmada, kul tushish uzumda va karamda kuzatiladi. Pufaklarni hosil bo`lishida zamburug` mitseliysi va hosil qilgan sporalari yig`indisi asosiy rol o`ynaydi. Chirish mevalarda, poliz ekinlari va sabzavot ekinlarida kuzatiladi. U yumshoq va qattiq, quruq va ho`l chirish bo`lishi mumkin. Ho`l chirishga misol qilib, xujayra po`sti parchalanishi natijasida uning tsitoplazmasi ham parchalab ketadi. Masalan, kartoshkaning bakterial chirishi. Quruq chirishga kartoshkaning fuzarioz chirishi, yog`ochlarning turtoviklar ta`sirida chirish misol bo`ladi. Shaki o`zgarish natijasida kasallangan o`simlik qismi g`adir-budir bo`lib, barglar ipsimon shaklga kiradi, gullarning, mevalarning shakli o`zgarib ketadi.

YOstiqchalar hosil bo`lishi zang zamburug`i sproralarining yigilishidan o`ziga xos bo`rtiqlar hosil bo`ladi. Bo`rtiqlar epidermisning tagida hosil bo`lib uning ichida ko`p miqdorda zamburug` sprorasi joylashadi. Kasallangan to`qimalarning xalok bo`lishi -g`alla ekinlarining qattiq va chang qora kuya kasalligi bilan kasallanishidan namoyon bo`ladi.

Mevalardagi yaralar (qovun, tarvuz, loviya, uzumda) antroknos kasalligi tufayli hosil bo`ladi. Xloroz - kasallik qo`zg`atuvchisining salbiy tasiri natijasida bargdagi xloroplastlar miqdorining kamayib ketishi natijasida barg zararlanib sarg`ayib qoladi. Bunda kasallik viruslar yoki mikoplazmalar vositasida, ba`zan temir, marganets etishmasligidan kelib chiqadi. Bunday belgilarni aniqlashda ularning topovutini bilish muhim ahamiyatga ega.

Har qanday infeksiyon kasallikning inkubatsion davri kasallik belgilarining namoyon bo`lishi bilan tugallanadi. Kasallikni namoyon bo`lishi chirish, dog`lanish, so`lish, bujmayish, pukaklanish holida namoyon bo`ladi. Kasallikni namoyon bo`lishi zamburug`ning spora hosil qilish bilan tugallanib, o`simlikda tashqi va ichki belgilarni hosil qiladi. Masalan, g`o`zadagi vilt

kasalligi tufayli o`simlikning mahsuldorligi pasayib, xatto ayrim qismlarini xalok bo`lishiga olib keladi.

Ko`pchilik o`simliklarni kasalliklarining manbayi tuproq, o`simlik qoldiqlari hisoblanadi. Ayrim kasalliklar urug`lar, ko`chatlar vositasida tarqaladi: alternarioz, bakterioz karam ko`chatlari, fitoftora, qora son kartoshka tuganagi orqali tarqaladi. Ko`pchilik zamburug`lar tuproqda bir necha yildan, 10 yilgacha saqlanishi mumkin.

Birlamchi infektsiya kasallikning dastlab paydo bo`lishiga, mavsumda ayrim o`simliklarda yangidan hosil bo`lishiga olib keladi. Olma parshasi askosporasini qolgan barglarda hosil qiladi va boshqalariga tarqaladi. Ikkilamchi infektsiyaning namoyon bo`lishi zang zamburug`i misolida quyidagichadir. Birlamchi infektsiya teleytosporalarda hosil bo`lgan bazidiosporalar vositasida zararlaydi. Ikkilamchi infektsiya - etsidiya va uredosporalarda hosil bo`lgan spora vositasida amalga oshadi. O`simliklarning kasalliklari ma`lum xududda, ayrim muddatlarda tarkaladi. Kasallik areali deb - kasallikning tabiiy tarqalish chegarasiga aytiladi.

Bunday kasalliklarning kelib chiqishi ekologik sharoit bilan o`zviy bog`liqdir. Ular miqdorining ko`pligi yoki ozligi o`simlik uchun o`ziga xos salbiy ta`sir ko`rsata boshlaydi.

Oziq moddalarning etishmasligidan kelib chiqadigan kasalliklar mevali daraxtlarning temir etishmasligidan xloroz, azot etishmasligidan o`shishdan qolish, barglari maydalashib, och yashil rangga kirib, poyasining nimjon bo`lib, tezda sinib ketishiga sabab bo`ladi.

Fosfor etishmasligidan mevali daraxtlarning generativ kurtaklari etilmaganligidan meva shoxlari hosil bo`lmaydi, barg tomiri qizg`ish rangga kiradi, barglar kichrayib qoladi, rangi bronza rangida bo`ladi. Kartoshkaning tuganagida zangga o`xshash dog`lar hosil bo`lsa, dukkaddoshlarda urug`lar to`liq pishib etishmaydi.

Kaliy etishmasa barg plastinkasi qirralari sarg`ayib, keyin jigar rangga kiradi. Barg yuzasida sarg`ish dog`lar hosil bo`ladi. Mevali o`simliklarda hosil bo`lgan kurtaklari kichrayib qoladi. Uzunlikda barglar kung`ir rangga kirib, qurib qolishiga olib keladi.

Magniy etishmasa pastki yarusidagi o`simlik barglarining barg tomiri orqa tamoni sarg`ayadi. Keyinchalik ular tushib ketadi.

Kaltsiy etishmasa o`simlik ildizi o`smay uning uchi rivojlanmay qoladi. Er ustida barglar shakli maydalashib, yuzasida sarg`ish dog`lar paydo bo`ladi.

Rux etishmasa mevali daraxtlar qisqa, ipchasimon barglar hosil qiladi. Kasallik erta bahorda kuzga tashlanadi.

Bor etishmasa o`simlik o`shish nuqtasi o`shishdan qoladi. Barglari ingichkalashib, buralib ketadi. Bunday kasallik olma, nok, karam, kungaboqarda yaqqol seziladi. Lavlagining o`zagi chirib ketadi. Mis etishmasa, barg so`liydi, poya o`smaydi, urug` hosil qilmaydi.

Iqlim va tuproqdagi noqulay sharoitdan kelib chiqadigan kasalliklar. Respublikamiz sharoitida havo harorati va tuproqdagi namlik undagi o`simliklarga turlicha ta`sir ko`rsatadi. Tuproqda namlikning kam bo`lishi, haroratining yuqori bo`lishi g`alla ekinlariga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Oziq moddalarning o`simlikka kam kirib kelishi hosil miqdorini pasayishiga, urug`larning nimjon bo`lishiga olib keladi. Urug`larning sut pishishi davrida namlik miqdorining ko`p bo`lishi o`simliklardagi fermentativ jarayonga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Natijada kraxmal o`rniga qand moddasi to`planib urug` po`sti erilib ketadi. Er osti suvlari er yuzasiga yaqin joylashsa ildiz sistemasi mevali daraxtlar ildiz sistemasini qurib qolishiga sabab bo`ladi. Tuproqda namlikning kamayib ketishi o`simlik o`shishini chegaralab quyadi. Pomidorda poya chirishi kasalligini keltirib chiqaradi. Namlikning keskin o`zgarib turishi meva va daraxt poyalarining erilib ketishiga sabab bo`ladi.

Ekologik sharoitning yomonlashishi tufayli turli o`simliklarda o`ziga xos kasalliklar salbiy ta`sir ko`rsatuvchi moddalar miqdorining ko`pligi natijasida ta`sir ko`rsatadi. Masalan, Orol dengizi atrofidagi Na va Cl tuzlarining ko`payishi. M. Tursunzoda shahridagi Aluminiy zavodining Sariosiyo rayonidagi o`simlik va xayvonlarga ta`siri, Oxangaron rayonidagi tsement zavodining atrof muhitga ta`siri, Morjonbulok, Zarafshon shaharlaridagi sulfat kislotasining o`simliklarga salbiy ta`siri.

3 – Laboratoriya ishi: O`simliklarda virus, bakteriya va mikoplazmalar qo`zg`atadigan kasalliklar

Laboratoriya mashg`ulotining ta`lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	O`simliklarda kasallik qo`zg`atuvchi viruslar va mikoplazmalar.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda o`simliklarda kasallik qo`zg`atuvchi viruslar va mikoplazmalar to`grisida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarda fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma`lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta`lim usullari:	BBB, “Klaster”, ma`ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta`lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabaning
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min)	1.1 Fitopatologiya fanining predmeti. Mavzu bo`yicha ma`lumotlar beriladi. O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. Mavzu bo`yicha asosiy ma`lumotlar beriladi. Ma`ruza davomida mavzu bo`yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo`yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to`ldirish taklif etiladi, va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg`ulotga tayyorlanish.	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma`lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Ish rejasi: (o`simliklarda viruslar va mikoplazmalar qo`zgatadigan kasalliklarning asosiy turlari bilan tanishish).

I. O`simliklarda viruslar keltirib chiqaradigan kasalliklar.

1. Mozaika - bodring va tamaki mozaikalari.
2. Qo`ng`ir dog`larni hosil bo`lishi - pomidorning strik kasalligi.
3. O`simlik a`zolarini o`zgarishi (deformatsiya) - pomidor bargining paporotniksimon yoki ipsimon bo`lib kolish kasalligi.

II. O`simliklarda mikoplazmalar keltirib chiqaradigan kasalliklar.

1. Sarg`ayish - shaftolini sarg`ayish kasalligi.
2. Pastbuyilik - sulining pastbuyilik kasalligi.
3. Supurgilarni hosil bo`lishi - tolda supurgilarni hosil bo`lish kasalligi.
4. O`simlikning generativ a`zolarini o`zgarishi - pomidorning stolbur kasalligi.

Zaruriy jihozlar: O`simliklarning viruslar va mikoplazmalar keltirib chiqargan kasalliklaridan va sog`lom o`simlikdan namunalar (tamaki, pomidor, bodring, kartoshka, suli, tol). Kasallikning tashqi ko`rinishini o`rganish uchun gerbariy va fiksatsiya qilingan materiallardan va rangli jadvallardan foydalaniladi.

Topshiriq: 1. Viruslar bilan zararlangan o`simliklarni tashqi kurinishiga qarab aniqlash

2. Kasallik belgilarini chizish.

O`simliklarda viruslar va mikoplazmalar qo`zgatadigan kasalliklarning umumiy tavsifi. Viruslar xaqidagi ta`limotning asoschisi rus olimi D.I.Ivanovskiy bo`lib hisoblanadi. O`simliklarda filtrlanuvchi viruslar kasallikni keltirib chiqaradi.

Fitopatogen viruslar tirik organizmga xos xususiyatga egadir. Viruslar ximiyaviy tarkibiga ko`ra oqsil va nuklein kislotalardan iboratdir. Viruslar tirik hujayrada ko`payadi.

Fitopatogen viruslar zararlangan o`simlikning hujayrasida kristallar hosil qiladi. Viruslar hosil qiladigan kristallarni birinchi bo`lib 1902 yili D.I.Ivanovskiy tomonidan topilgan.

Viruslarning shakli juda ham turli tumandir (tayoqchasimon, ipsimon, yumaloq), ularni faqat elektron mikroskop orqali ko`rish mumkin.

Fitopatogen viruslar (virionlar) oqsil qobigi (kapsula) bilan o`ralgan nuklein kislotaning bir yoki ikkita ipchasidan iborat. Ko`pchilik fitopatogen viruslar tarkibida esa DNK (dezaksiribonuklein kislota) mavjud. Viruslar faqat nuklein kislotalardan iborat bo`lib, kapsulaga ega bo`lmasa viroidlar deyiladi. Viruslarning shakli nanometrlarda o`lchanadi.

Viruslarning hayotiy faoliyati xujayin o`simlikning hujayrasi bilan chambarchas bog`langandir va ular faqat shu hujayra ichida ko`payadi. Viruslar ko`pincha bir o`simlikdan ikkinchi o`simlikka suruvchi hashorotlar orqali o`tadi.

Shuni ta`kidlash kerakki, ilgari viruslar keltirib chiqaradigan kasalliklarning (sarg`ayish va supurgilarning hosil bo`lishi) hozirda mikoplazmalar keltirib chiqarishi aniqlanilgan (V.Doy va boshqalar, 1967, K.Maramorom, 1968 va boshqalar).

Mikoplazmalar yumaloq, ellipsimon yoki ma`lum shaklsiz bo`lib, ularning diametri 26-1000 NM, membrana bilan o`ralgan, lekin hujayra qobig`i yo`q. Mikoplazmalar, viruslarga nisbatan murakkabroq tuzilishga egadir. Ularning tarkibida 2 xil nuklein kislota-DNK va RNK bor. Mikoplazmalar zararlangan o`simlikning floemasida (tursimon nay, floema parinximasi, yo`ldosh hujayra) hujayrasining tsitoplazmasida kuzatiladi. Bu mikroorganizmlar sog` o`simlikka tsikadka hashorati, zarpechak orqali hamda payvandlash davrida o`tishi mumkin. Hozirgi vaqtda 60 ga yaqin ekinlarda mikoplazmalar keltirib chiqaradigan kasalliklar ma`lum. Mikoplazmalar keltirib chiqaradigan kasalliklarni aniqlashning asosiy usuli bo`lib, elektron mikroskop yordamida kuzatish hisoblanadi. Mikoplazmalar viruslardan farqli ravishda sun`iy oziqa muhitlarida rivojlanadi.

Tetratsiklin guruhiga mansub bo`lgan antibiotiklarning mikoplazmalarga ta`siri juda sezilarli. Ularni kasallikka qarshi qo`llanilganda o`simlik ma`lum miqdorda ayrim holda

butunlay sog`ayib ketadi. Bunday holat mikoplazma keltirib chiqargan kasalliklarni aniqlashda ham foydalanishi mumkin. Oxirgi vaqtda o`simliklarda mikoplazmalardan tashqari, rikketsiya va spiroplazmalarga yaqin bo`lgan organizmlar ham kuzatilgan.

Viruslar va mikoplazmalarni o`simliklarda yuzaga keltiradigan kasalliklarining belgilari. O`simliklarda viruslar keltirib chiqaradigan kasalliklarning tashqi belgisiga qarab mozaika, o`simlik a`zolarining o`zgarishi va qo`ng`ir dog`larni hosil bo`lishi turlariga bo`linadi.

Mozaika tufayli zararlangan o`simlikning barglari, poyasi, guli va mevasida ranglar gallanib joylashadi. Mozaikada o`simlikni sog` a`zosidagi rang bilan oq-sargish, och yashil yoki boshqa ranglar bilan gallanib joylashadi.

Misol tariqasida bodringning mozaika kasalligini olish mumkin. Zararlangan o`simliklarning barglari sog`ga nisbatan mayda bo`lib, unda to`q yashil, och yashil va sariq yashil qismlar yaqqol ajralib turadi. Barg u yoki bu darajada tirishgan bo`ladi. Kasallikning bunday belgilari o`simlikning yuqorigi barglarida yaqqol ko`rinadi. Mevalarda ham shunday mozaikani kuzatish mumkin. Zararlangan mevalarning sirti notekis bo`lib, to`q yashil qismi bo`rtib chiqqan bo`lib, ko`pincha mevalar ko`rimsiz bo`lib qoladi.

O`simlik a`zolarining o`zgarishi (deformatsiya). Viruslar ta`sirida o`simlik a`zolarini o`zgarishi barglarni ipsimon, paporotniksimon, maydalangan yoki kattalashib ketishi tariqasida namoyon bo`lishi mumkin. Barg, gul va mevalarning shaklini o`zgarishi zararlangan to`qimalarning ayrim qismini noto`g`ri rivojlanishi tufayli yuzaga keladi. Bu esa barglarda tirishish yoki boshqa o`zgarishlarni, mevalarda esa shaklini o`zgarishiga olib keladi.

Buning uchun pomidor barglarini paparotniksimon yoki ipsimon bo`lib qolish kasalligini olishimiz mumkin. Birinchi holatda zararlangan o`simlikning barglarining plastinkalari kundalangiga qirqilgan bo`lib, ko`rinishi paparotnik bargiga o`xshaydi. Bargni ipsimon tusga kirishi yaqqol ko`rinadi. Bunda barg plastinkasi ensiz bo`lib, uning uchun mo`ylov singari ingichkalashib cho`zilgan bo`ladi. Ayrim holda barg plastinkasi ensizlanib ipsimon tusga, hatto butunlay emirilib ketishi mumkin.

Qo`ng`ir dog`larni hosil bo`lishi yoki to`qimalarni nobud bo`lishi. Barglarda yakka va halkasimon dog`lar, poya, meva va barg bandida esa qo`ngir uzunasiga ketgan chiziqlar tariqasida namoyon bo`ladi.

Kasallikning bu turi bilan tanishish uchun pomidor poyasi va barg bandida uzunasiga ketgan qo`ng`ir, ayrim holda yaltiroq dog`lar kuzatiladi. Barg plastinkasida burchakli yoki ma`lum bir shaklsiz qoramtir dog`lar hosil bo`ladi. Zararlangan mevalarda yoriqlar yoki qo`ng`ir dog`lar yuzaga keladi. Mikoplazmalar o`simliklarga qo`zg`atadigan kasalliklarni tashqi ko`rinishi quyidagi turlarga bo`linadi: sarg`ayish, pastbuylilik, supurgilarni hosil bo`lishi va o`simlikning generativ a`zolarini o`zgarishi.

Mikoplazma keltirib chiqaradigan kasalliklarning sarg`ayish turi o`simlikning butunlay yoki ayrim shoxlarini sariq tusga kirishi kuzatiladi, bunda zararlangan a`zolarining floemasiga o`zgarish sodir bo`lmay, balki o`suv jarayoni buzilganligi kuzatiladi. Kasallikning sarg`ayish turiga shaftoli va astrani sarg`ayishini, sholini past bo`yli sarg`ayish kasalliklarini hamda boshqa bir qator misollarni keltirishimiz mumkin.

Mikoplazma keltirib chiqaradigan pastbuylilik va supurgilarni hosil qilish kasallik turlari ham keng tarqalgandir.

Pastbuylilik kasallik turini ko`proq g`alla donli ekinlarda kuzatiladi. Kasallikni bu turi bilan tanishish uchun sulini pastbuylilik kasalligini olish mumkin. Bunda zararlangan sulining buyi past bo`lib, uning poyasi rivojlanmay, butun barglari ildiz atrofiga to`plangan bo`ladi, poyalar soni ham bir qanchaga etadi. Bunday o`simlikning ildizi rivojlanmay, bir tutam bo`lib qoladi.

Supurgilarni hosil bo`lishida zararlangan o`simlikning shoxlarini o`suv nuqtasidan bir novdaning o`rniga bir qancha novdalar rivojlanishi tufayli ular mayda bo`ladi, buni chetdan qaraganda supurgilarga o`xshatiladi.

Mikoplazma keltiradigan kasallikni bu turiga misol qilib tolni supurgi hosil qilish kasalligini olishimiz mumkin.

Ish rejasi: (o`simliklarda bakteriyalar keltirib chiqaradigan asosiy kasallik turlari)

I. Parenximali kasalliklar:

1. Dog`lanish -g`o`za gommози, bodring bakteriozi.
2. Chirish - kartoshkaning ho`l chirishi.
3. Shishlarni hosil bo`lishi - olmaning ildiz raki, tokning bakteriya raki.

II. Parenmixali - o`tqazuvchi to`qima kasalliklari:

1. So`lish - kartoshkaning halqali chirishi, pomidorning bakteriya raki.

Zaruriy jihozlar: Gerbariydan namunalar; bodring va g`o`zaning zararlangan barglari, zararlangan olma ko`chatlarining ildizi, tokning zararlangan poyasi. Konservalangan ko`rgazmalar: chirigan kartoshka.

- Topshiriq: 1.** Bakteriyalar bilan zararlangan o`simliklarni tashqi kurinishiga qarab aniqlash.
2. Kasallik belgilarini rasmini chizish.

Bakteriyalarning umumiy tavsifi. Bakteriyalar bir hujayrali xlorofilsiz organizmlardir. Bakteriyalar juda yupqa qobiq bilan o`ralgan protoplazmadan iboratdir. Ularning o`lchami 0,06-0,3 dan 3,5 mikrongacha bo`lishi mumkin. Bakteriyalar ko`pincha sharsimon, tayoqchasimon shaklga ega bo`ladi. Deyarli hamma bakteriyalar xivchinga ega bo`lib, bu xivchinlar hujayraning bir yoki ikki uchiga, ayrim hollarda esa butun hujayra bo`ylab joylashgandir. Xivchinlar yordamida bakteriyalar harakatlanadi. Xivchinga ega bo`lmagan bakteriyalar harakatlanmaydi. Fitopatogen bakteriyalarda bir qator fermentlar: proteaza, amilaza, tsrotopektinaza va boshqalar bor. Mavjud fermentlarning yuqori darajali faolligi tufayli bakteriyalar o`simlik ichiga kirib, hujayra devorlarini emiradi, hujayrani nobud bo`lishi tufayli patologik jarayon kuzatiladi, bu esa kasallikni turli xil ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.

Bakteriyalar o`simlik ichiga turli yoriqlar, qirilgan joy va boshqa mexanik shikastlangan qismidan hamda tabiiy tirqishlar ustida, chechevichka orqali kiradi.

O`simliklarda bakteriyalar keltirib chiqaradigan kasalliklarni parenximali va parenximali-o`tqazuvchi to`qima kasalliklarga bo`lish mumkin.

Parenmixali kasalliklar tufayli parenxima to`qimalari zararlanadi. Bunda kasallik dog`lanish, chirish va shishlarni hosil bo`lishi bilan namoyon bo`ladi.

Dog`lanish. Kasallikni bu turi zararlangan o`simlik a`zolarida noaniq shaklli yoki burchakli dog`larni hosil bo`lishi bilan tavsiflanadi. Bakteriyalar uchun xos bo`lgan dog`lar zamburg`larnikidan farq qilib, ularning sirtida g`ubor yoki qora nuqtalar kuzatilmaydi. Bundan tashqari dog`larni hosil bo`lish davrida ular yog`simon ko`rinishda bo`ladi. Misol qilib, 1) g`o`zani gommozini; 2) bodring bakteriozini; 3) tamakini bakteriya keltiradigan kasalligini olishimiz mumkin.

Chirish. O`simlikning ozuqa moddasiga boy bo`lgan a`zolari -piyozboshi, tuganak, ildizmeva va boshqa qismlarida bakteriyalar chirishni yuzaga keltiradi. Bunda avval hujayra oralig`idagi modda keyinchalik hujayra pusti emiriladi. Zararlangan o`simlik a`zosi oldin yumshaydi, so`ngra yokimsiz hid chiqarib ho`l chirish yuzaga keladi. Bunga misol qilib kartoshkaning ho`l chirish kasalligini olish mumkin.

Shishlarning hosil bo`lishi. Ayrim fitopatogen bakteriyalar o`zidan hujayrani bo`linishini tezlashtiradigan moddalarni ajratadi, bu esa o`simlikning zararlangan a`zolarida turli xil shishlarni yuzaga kelishiga sababchi bo`ladi.

Kasallikning bu turiga misol qilib meva daraxtlarining ko`chatlarini ildiz rakini va tokning rak kasalligini olishimiz mumkin.

Parenximali-o`tqazuvchi to`qima kasalliklari. Kasallikni bu turi o`simlikning o`tqazuvchi to`qima naylarini hamda parenxima to`qimasini zararlanishi tufayli kelib chiqadi. Kasallik o`simlikni qisman yoki butunlay so`lishi bilan, dog`lar va chirishni yuzaga kelishi bilan namoyon bo`ladi.

So`lish. O`simlikning o`tqazuvchi to`qima naylarini zaralanishi tufayli o`simlik qisman yoki butunlay so`lishi, o`tqazuvchi naylari esa qo`ng`ir tusga kirishi mumkin. Bunga misol qilib, pomidor rakini va kartoshkaning xalqali chirishini olamiz.

Fitopatogen bakteriyalar ichida faqat dog`lar yoki chirish ko`rinishidagi kasallik turini keltirib chiqaradigan vakillari ham uchrab turadi. Lekin shunday bakteriyalar ham borki, o`qazuvchi to`qima naylarni zararlash bilan birgalikda parenxima to`qimalarini ham zararlaydi. Bunday kasallik ko`rinishi kasallikning aralash turi deb atalsa ham bo`ladi. Zararlangan o`simlikning er ustki qismi so`liydi hamda meva va tuganaklarida dog`lar yoki chirish kuzatiladi (pomidor raki, kartoshkaning halkali chirishi). Laboratoriya mashg`uloti davomida gerbariy, fiksatsiyalangan jihozlar, jadvallar bilan tanishish davomida rasmlarni ham chizish zarur. Kasallikni ko`rinishiga qarab uni turlarga ajratish kerak.

O`SIMLIKLARDA KASALLIK QO`ZG`ATUCHI ZAMBURUG`LAR.

Ish rejasi:

I. Mitseliy

1. Bir xujayrali (Mucor)
2. Ko`p xujayralijayrali (Rhizoctonia)

II. Mitseliyning shakl o`zgarishlari

5. Oidi yalar (hamirturush)
6. Xlamidosporalar (bug`doyning qattiq qora kuya kasalligi)
7. Sklero tsiyalar (javidardagi sporo`nya kasalligi)
8. Rizomorflar (pukaklar)

II. Zamburug`larning ko`payishi.

I. Vegetativ ko`payish:

1. Mitseliy bo`laklarga bo`linishi bilan;
2. Mitseliy shakl o`zgarishlari bilan;

II. Jinsiz ko`payish:

1. Ekzogen sporalar bilan;
2. Endogen sporalar bilan;

III. Jinsiy ko`payish:

1. Planogamiya yo`li bilan;
2. Oogamiya yo`li bilan;
3. Zigogamiya yo`li bilan;
4. Xaltachali zamburg`larni ko`payishi;
5. Bazidiyali zamburg`larni ko`payishi;

Zaruriy jihozlar: Gerbariydan namunalar (bug`doyning qattiq qora kuyasi, javdarning sporo`nya kasalligi va pukaklar). *Mucor* va *Rhizoctonia* zamburug`larini sof kulturasi, hamirturush. Mikroskop, qoplag`ich va buyum oynalari, sirtmok, spirt lampasi.

Topshiriq: 1. Bir xujayrali va ko`p xujayrali mitseliylar bilan tanishish.

1. Mitseliy shakl o`zgarishi (oidiya, xlamidospora, sklerotsiya, rizomorflar) bilan tanishish.
2. Mitseliylarni mikroskopda ko`rish va ularni rasmini chizish.

Mitseliy -bir necha giflardan tuzilgan.

Gifalar – bu mitseliyani iplaridan tashqil topgan.

Bir xujayrali mitseliyalarning (xujayrali) tanasi bo`g`imlarga bo`linmagan bo`ladi. (*Mucor*).

Ko`p hujayrali – mitseliylarni tanasi bug`imlarga bo`lingan bo`ladi (*Rhizoctonia*).

Sklerotsiyalar- gifalarni bir-biri bilan birlashishi natijasida paydo bo`ladi. Ularni tanasi qattiqlashgan va har xil shaklda bo`ladi. Ular ozuqaga boy bo`ladilar . Misol – javdarni sporo`nya kasalligi.

Oidiyalar - bu mitseliyalarni bo`linishi natijasida paydo bo`ladigan hujayralardir. Bu hujayralarni tashqi qobiqlari ingichka va ularni tashqi ko`rinishi dumaloq shakldi bo`ladi. Misol – hamirturush.

Xlamidosporalar - mitseliyalarni bo`linishi natijasida paydo bo`lgan hujayralar yoki hujayralarni to`plamlaridir. Xlamidosporalarni qobiqlari qattiqlashgan bo`ladi. Bunday qobiqlar yordamida xlamidosporalar uzoq muddatgacha noqulay sharoitida saqlanadi. Misol – bug`doydagi qattiq qora kuya kasalligi.

Rizomorflar – qora rangli iplardan tashkil topgan bo`lib, baquvvat shoxlangan uzunligi bir necha metrgacha borishi mumkin, lekin qalinligi esa bir necha mm ga teng keladi. Rizomorflar giflardan paydo bo`lib tashqi tuzilishi bilan boshqalardan farq qiladi.

Zamburug`larning ko`payishi.

Vegetativ ko`payishi - 1) *Bu ko`payishda zamburug`larning mitseliyalari bo`laklarga bo`linadilar. Mitseliyaning bulaklari o`sib mustaqil individlarga aylanadi.* 2) *Zamburug`larning mitseliyasi noqulay sharoitda o`zining tanasini o`zgartirishi mumkin. Shuning uchun zamburug`larning vegetativ ko`payishi shakli o`zgargan mitseliyalar yordamida ham o`tishi mumkin (xlamidosporalar, oidiyalar, sklerotsiyalar va rizomorflar).*

Jinssiz ko`payish – 1) Ekzogen yoki tashqi sporalar yordamida o`tadi. Ekzogen sporalarga konidiya va kanidiya bandlari kiradi. Kanidiyalarning rangi va shakli har xil bo`lishi mumkin (sharsimon, tayoqchasimon). Konidiya bandning ichidagi hujayra dumoloqlanib nozik tizimchaga o`xshash zanjircha hosil qiladi. U etilgandan keyin tizimchalar bir biridan uzilib tarqalib ketadi. Ularning ko`payishi konidiyaning shoxlanishi hisobiga bo`ladi. 2) Endogen ichki sporalar bularga zoosporangiy va sporangiyalar kiradi.

Sporangiy – bu sharsimon bo`lib uning ichida harakatsiz sporalar to`plangan bo`ladi. Agar sporalar voyaga etgan bo`lsa (pishgan) shu vaqtda ular bo`shliqdan tashqariga chiqib tarqaladi (Mucor).

Zoosporangiy – bu kolbasimon bo`lib uning ichida harakatli sporalar (zoosporalar – bir yoki ikki xivchinli) to`plangan bo`ladi. Agar muhit qulay bo`lsa zoosporangiydan tashqariga zoosporalar chiqadi va o`simliklarni zararlashi mumkin.

Jinsiy ko`payishi - bu ko`payishda ikkita xo`jayra qo`shiladi va sporalar hosil bo`ladi.

6. **Planogamiya** – *ikkita bir xil gameta qo`shiladi natijada harakatlanuvchi xivchinli planozigota yoki tsista hosil bo`ladi. Bu yo`l bilan xitridiomitsetlar sinfiga oid zamburug`lar ko`payadi.*

7. **Oogamiya** – *bu ko`payishda hujayra qo`shiladi (otalik-anteridiy hujayra va urg`ochi ooganiy hujayra). Bularni qo`shilishi natijasida oospora hosil bo`ladi. Shuning uchun bu protsess oogamiya deyiladi. Oosporalar tuproqda va o`simlik qoldigiga 5 yilgacha saqlanishi mumkin.*

8. **Zigogamiya** – *bu ko`payisha morfologik bir xil ikkita mitseliya qo`shiladi natijada zigospora hosil bo`ladi.*

9. **Askomitsetlarni ko`payishi** - *bunda ikkita hujayralar qo`shiladi. Bitta hujayra-otalik hujayra-anteridiy deyiladi. Ikkinchi hujayra-onalik hujayra-arxikarp deyiladi. Arxikarp uchta qismdan – askogen, trixogena va askoganiy asosidan iborat . Jinsiy ko`payishda ya`ni protsessda anteridiy askogenga yaqinlashib trixogenaga yopishadi va qushilish natijasida antrediyning ichidagi suyuqlik askogenga o`tadi. Yadrolar yaqinlashadi va qo`shiladi natijada askogendan gifalar o`sib chiqadi. Ularni ichida sporali xaltachalar hosil (askosporalar).*

10. **Bazidiomitsetlarni ko`payishi** – *bunda ikki xil mitseliy (birlamchi gaploid) qo`shiladi va diploid mitseliy hosil bo`ladi, diploid mitseliydan o`simta hosil bo`ladi ya`ni (bazidiyalar) bo`ladi.*

Bu o`simta ikkita yadroli bo`ladi.

Bazidiya ustida turtta bir xil o`simta hosil bo`ladi. Bo`lingan yadrolar bittadan o`simtalarga o`tadi va bazidiyasporalar hosil bo`ladi.

Bu sporalar etilib uziladi va atrofga tarqaladi.

4- Laboratoriya ishi:

G`o`za kasalliklarning namoyon bo`lishi, tashqi belgilari va qo`zg`atuvchilari

Laboratoriya mashg`ulotining ta`lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi	G`o`za kasalliklari bilan tanishish.
Ma`ruza rejasi	

<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda go`za kasalliklari to`grisida tushuncha hosil qilish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Talabalarda fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari xaqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma`lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta`lim usullari:	BBB, "Klaster", ma`ruza
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta`lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O`quv mashg`ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabanning
1 bosqich 1.1 O`quv xujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O`quv mashgulotiga kirish (10min)	1.1 Fitopatologiya fanining predmeti. Mavzu bo`yicha ma`lumotlar beriladi. O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to`ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilganidan so`ng ma`ruza boshlanadi. Mavzu bo`yicha asosiy ma`lumotlar beriladi. Ma`ruza davomida mavzu bo`yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs-munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo`yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to`ldirish taklif etiladi, va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg`ulotga tayyorlanish.	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma`lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

Ish rejasi:

1. G`o`zaninig vilt kasalligi.
2. G`o`zaning ildiz chirish kasalligi.
3. G`o`zaning gommoz kasalligi .

Zaruriy jihozlar: Gerbariydan namunalar (g`o`zaninig vilt kasalligi, ildiz chirish, gommoz kasalligi). Mikroskop, qoplag`ich va buyum oynalari, sirtmok, spirt lampasi.

Topshiriq: 1. Mikroskopda vilt kasalligi qo`zg`atuvchisini ko`rib rasmini chizib olish.

2. Ildiz chirish kasalligi qo`zg`atuvchisini mitseliylarini mikroskopda ko`rish va ularni rasmini chizish.

4. G`o`zaning gommoz kasalligi tashqi belglari bilan tanishish va rasmini chizib olish

Vertitsillioz vilt kasalligini qo'zg'atuvchisi Takomillashmagan zamburug'lar sinfi, Hyphomycetales tartibi, Verticillium dahliyal turiga mansub zamburug' keltirib chiqaradi.

Zamburug' mitseliysi rangsiz, konidiyalar tarmoqlangan konidiya bandlarida hosil bo'ladi. Tuproqda hosil qilgan mikrosklerotsiyalar va xlamidosporalar hosil qiladi. Zamburug'ning rivojlanishiga zarur bo'lgan minimal harorat 5-7 S, optimal harorat 23-26 S, maksimal harorat 31-32 S ni tashkil qiladi. Tuproqdagi namlik miqdori 60-70 % bo'lganda zamburug' tez rivojlanadi. V.dahliyal zamburug'i 38 oilaga mansub bo'lgan 700 ortiq o'tsimon, daraxt o'simliklarni kasallatiradi. Respublika sharoitida V.dahlia zamburug'ining 2 ta rassasi mavjud bo'lib, I-rassasi g'ozaning 108-F va Toshkent navlarini, II-rassasi esa barcha chidamli navlarni kasallantiradi. Vertitsillioz vilt kasalligi paxtachilik uchun zararli kasallik hisoblanib, uning ta'sirida 22-70 % hosil nobud bo'ladi.

Fuzarioz vilti - Takomillashmagan zamburug'lar sinfi, Fusarium turkumi, F.oxysporum. f.vasinfestum zamburug'i keltirib chiqaradi.

Kasallik ingichka tolali g'ozaning ko'chatlar paydo bo'lgan davridan boshlanib, butun vegetatsiya davomida kuzatiladi. Kasallik belgisi ko'chatlarning barglarida sarg'ish dog'lar paydo bo'lib, barg tomiri to'rga o'xshab ko'rinadi. Dastlab kasallangan o'simliklarning bo'g'in oralari qisqarib, ildiz bo'g'izi yo'g'onlashadi, uchki barglari zararlanmay saqlanib qoladi. G'uncha hosil qilish davrida kasallangan o'simliklarning bargi - g'unchasi, guli tushib ketadi, poyasi nozik bo'lib qoladi. Ko'sak hosil qilish davrida kasallangan o'simliklar poyasi qurib qolmasada, ko'saklar to'liq pishib etilmaganligidan ochilmay qoladi. Kasallikning ichki belgilari poyaning qorayishi-nekroz hosil qilish bilan xarakterlanadi. Zamburug' tuproqda yarim saprofit xayot kechirsada, o'simlikka ildiz orqali kirib uni zararlaydi.

G'ozaning ildiz chirish kasalligi.

Kasallik qo'zg'atuvchisi tuproqdagi turli mikroorganizmlar bo'lib ular orasida eng keng tarqalganlari qatoriga Rhizoctonia solani, Thielavtopsis basicola, Sclerotium bataticola zamburug'lari asosiy rol o'ynaydi. Bu zamburug'lar mitseliysi tuproqdan o'simlik ildiz bo'g'izi orqali ildizga kirib keladi. Infeksiya manbayi asosan tuproqda va kasallangan o'simlik qoldiqlarida xayot kechirayotgan zamburug'lar hisoblanadi.

Gommoz kasalligi. Kasallik o'simlikning barcha er usti a'zolarini, barg, yonbargchalar, poya, gul, ko'sak va tolasini kasallantiradi. Kasallikning asosiy belgisi, o'simlikning zararlangan organlarida yog'simon tomchilarning hosil bo'lishidan boshlanadi. Bargda dastlab burchakli dog'lar paydo bo'ladi. Barg yuzasi shakli o'zgarib, barg bandida ko'ng'ir dog'larni hosil qiladi.

Kasallik qo'zg'atuvchisi - Xanthomonas campestris malvacearum bakteriyasi bo'lib minimal harorat 10, optimal xarorat 25-28 S da normal rivojlanadi. Kasallikning tarqalishi uchun o'simlik organlari ustida hosil bo'lgan yog'simon moddadagi to'plangan bakteriyalarning suv va shamol vositasida va xashoratlar yordamida amalga oshadi.

5- Laboratoriya ishi: Boshqoqli-don ekinlarining kasalliklari, kasalliklarining namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari

Ish rejasi:

1. Bug'doyning qattiq qora kuya kasalligi tashqi belgilari bilan.
2. Makkajo'xorining pufakli qora kuya kasalligi.
3. Bug'doyning qo'ng'ir zang kasalligi tashqi belgilari bilan tanishish.
4. Bug'doyning un shudring kasalligi tashqi belgilari bilan tanishish.

Zaruriy jihozlar: Gerbariydan namunalar (bug'doyning qattiq qora kuya kasalligi, bug'doyning qo'ng'ir zang kasalligi, bug'doyning un shudring kasalligi). Mikroskop, qoplag'ich va buyum oynalari, sirtmok, spirt lampasi.

Topshiriq: 1. Mikroskopda qattiq qora kuya kasalligi qo'zg'atuvchisini ko'rib rasmini chizib olish.

2. Bug'doyning qo'ng'ir zang kasalligi qo'zg'atuvchisini mitseliylarini mikroskopda ko'rish

va ularni rasmini chizish.

5. Bug`doyning un shudring kasalligi tashqi belgilari bilan tanishish va rasmini chizib olish.

Bug`doyning qattiq qora kuya kasalligi.

Kasallik qo`zg`atuvchisi: Bazidiomisetlar sinfi- Basidiomicetes. qora kuyalar tartibi Ustilaginales kiradi.

Qattiq qora kuya kasalligi belgilari o`simlikda don etilish davrida namoyon bo`ladi. Kasallangan boshloqlar shakli kichikligi, donlar shaklining notekisligi, cho`zinchoq shaklda bo`lishi bilan xarakterlanadi. Tosh(qattiq) qora kuya kasalligini ikki turga mansub zamburug` keltirib chiqaradi. *Tilletia caries* (DC.) Tul (sin. *T. tritici* Wint). Kasallik qo`zg`atuvchisining sporalari sharsimon diametri 14-22 mkm (1 mkm=0,001mm) . Zamburug` turi boshloqni zararlaydi. Boshloqda don o`rniga kulrang qobiq bilan o`ralgan teliosporalardan tashkil topgan qorakuya xaltachasi shakllanadi. Qorakuya xaltachasi yorib ko`rilganda to`q jigarrang sporalarningi moysimon massasi namoyon bo`ladi. O`simlikning zararlanishi tuproqda sodir bo`ladi. Ular o`simtaga koleoptil orqali kiradi.

Makkajo`xorining pufakli qora kuya kasalligi. Bu kasallik makkajo`xorining er usti a`zolarini-poyasini, so`tasini, maysasini zararlaydi. Kasallikning asosiy belgisi zararlangan a`zolda pufakchalar hosil qiladi. Dastlab bu pufakchalar kung`ir -oqish yoki binafsha rangda bo`lib, ustki tamonidan yupqa parda bilan qoplangan bo`ladi. Pufakcha etilgach u qora ranga kiradi. Bu kasallik tuproqqa urug` ekilgan kundan boshlab to urug` pishib etilgan kunga kadar davom etadi. Maysa vaqtida o`simlikning ildiz bo`g`izi yoki ildizi zararlanadi. Keyinchalik bargi va poyasi zararlanadi. Bargda kasallik barg tomiri orasida hosil bo`ladi. Poyada pufakchalar shakli yirik, dumaloq, bo`g`in atrofida hosil bo`ladi. So`tada esa ayrim donlar zararlanadi. Kasallik qo`zg`atuvchisi *Ustilago zaeae* zamburug`idir. Zamburug` mitseliysi o`simlikning to`qimalarida pufakchalar hosil qiladi. Pufakchalar yorilib unda etilgan sporalar tuproqqa tushadi va bazidiylarni hosil qiladi. Bazidiylar kurtaklanib ko`p miqdordagi konidiylarni hosil qiladi. Bu konidiylar shamol vositasida tarqalib sog`lom o`simliklarni zararlaydi. Pufakli qora kuya kasalligi havoda nisbiy namlik miqdori kamaygan vaqtlarda keng tarqaladi.

Bug`doyning qo`ng`ir zang kasalligi. Kasallik qo`zg`atuvchisi bazidiomisetlar sinfi, *Uredinalas* tarkibi vakillaridir. G`alla ekinlarida *Puccinia avlodivakillari* kasallik qo`zg`atadi. Kasallik qo`zg`atuvchilari ikkita xujayinli parazit bo`lib do`lanada etsidiya bosqichini, madaniy o`simlik-bug`doyda teleytosporani hosil qiladi.

Qo`ng`ir zang- *Puccinia triticina* Eriks. Bargda va barg bandida notekis joylashgan aylanasiimon yostiqlar hosil bo`ladi. Bu yostiqlar uredinosporali uredinolardir. Uredinosporalari yorqin qo`ng`ir , bir g`ujayrali aylanasiimon diametri 19-20 mkm.

Bug`doyning un shudring kasalligi. Kasallik qo`zg`atuvchisi *Ascomycetes* sinfi, *Erysiphales* tartibi vakili *Erisiphe graminis* DC zamburug` turi hisoblanadi. G`alla ekinlarining xar qaysi turi uchun zamburug`ning ixtisoslashgan formasi mavjud . Kasallik belgilari bargda, poyada shuningdek boshloqda oq unsimon g`uborlar bo`ladi. Bu g`uborlar zamburug` tanasi va konidial sporalardan iborat . Sporalari (konidiyalari) ovalsimon yoki tsilindsimon bo`lib zanjircha shaklida joylashgan 16-30*8-14 mkm. Zanjir etilgandan so`ng uziladi va sporalar yangi xo`jayin o`simlikda kasallik qo`zg`atadi. Vaqt o`tgandan so`ng g`uborlar kulrang tus oladi.

5-LABORATORIYA MASHG`ULOTLARI

Boshloqli-don ekinlarining kasalliklari, kasalliklarining namoyon bo`lishi, tashqi belgilari va qo`zg`atuvchilari

Laboratoriya mashg`ulotining ta`lim texnologiyasining modeli

O`quv vaqti: 80 minnut	Talaba soni
O`quv mashg`ulotining tuzilishi Ma`ruza rejasi	
O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda amaliy mashg`ulot mavzusi haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar:	O`quv faoliyatining natijalari:

Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	Talabalarda fanining predmeti, metodlari va tarmoqlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar, asosiy ma'lumotlarni konspektlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	BBB, "Klaster", ma'ruza
O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta'lim vositalari	Slaydlar, marker, jadval, turli rasmlar
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol javob

O'quv mashg'ulotining texnologik haritasi

Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabanning
1 bosqich 1.1 O'quv xujjatlarini to'ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2 O'quv mashg'ulotiga kirish (10min)	1.1 <i>urug'li va danakli meva daraxtlarining yuqimli va yuqumsiz kasalliklari</i> mavzu bo'yicha ma'lumotlar beriladi. O'quv mashg'ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga BBB jadvali taklif etiladi va uning <i>Bilaman, Bilishni xoxlayman</i> grafalari to'ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Mavzu bo'yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar
2 bosqich Asosiy 50 min	2.1. Jadvalning ikkita grafasi to'ldirilganidan so'ng ma'ruza boshlanadi. Amaliy mashg'ulot mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlar beriladi. Ma'ruza davomida mavzu bo'yicha turli topshiriq va savol-javoblar hamda baxs- munozara olib boriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Mavzu rejasi bo'yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo'yicha savollar beradilar.
3 bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo'yicha xulosa qilish. Mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 Talabalarga BBB jadvalini bilib oldim grafasini to'ldirish taklif etiladi, va o'quv mashg'ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o'quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg'ulotga tayyorlanish.	O'rganilgan mavzu bo'yicha olgan ma'lumotlarni BBB jadvalini yakuniy grafasiga tushiradilar.

BOSHOQDOSH O'SIMLIKLAR KASALLIKLARI

1.1.BOSHOQDOSHLAR KORAKUYASI

Korakuya – keng tarqalgan va zararli kasallik bo'lib, barcha madaniy va yovvoyi boshqodoshlarni zararlaydi. Korakuyani Bazidiomitsetlar (Basidiomycetes) sinfi, korakuyalilar (Ustilaginales) tartibiga mansub zamburug'lari keltirib chikaradi.

Korakuya zamburug'lari– obligat parazitlardir. Ular Kasallik kuzgatuvchisi zararlanishning asosiy tipi -xlamidosporalardan iborat ko'mirsimon massa xosil qilishi va natijada to'qimalarni buzilishidir.

Korakuya zamburug'lari –tor doirada moslashgan bulib, xar biri aloxida ekin zararlaydi.

Galla ekinlarida korakuyaning bir necha turlari uchraydi, ulardan kuyidagilarni kurib chikamiz.

Bug`doydagi korakuya turlari

Qattiq korakuya. Kasallik kuzgatuvchisi *Tilletia caries* (D.C.) Tul. (*Tilletia tritici* Wint.) – sporalar sharsimon, toʻrsimon qobiqli, diametri 14-22 mkm⁶ va *Tilletia levis* Kühn. [*Tilletia foetida* (Wallr.) Ziro] – sporolari chuzik shaklda, 15-23 mkm diametrli, oʻlchamlari 17-25x14-19 mkm, silliq qobiqli. Asosan boshokni zararlaydi. Don oʻrniga kulrang qobiq bilan qoplangan, xlamidosporalardan iborat korakuyali xaltacha hosil boʻladi (rasm 1.1.). Korakuyali xaltachani ezganda yopishqoq, yogʻsimon, toʻq-jigarrang badbuy xidli massani koʻrish mumkin.

Oʻsimlik tuproqda urugʻ sirtidagi sporalar unib chiqishida zararlanadi. Murtaklar koleoptil orqali zararlanadi. Qattiq qora kuya kasalligida urugʻning epidermis kismi zararlanib urugʻ pusti butunligicha qoladi. Urugʻ poʻstning ichi zamburugʻning xlamidosporalari bilan toʻlgan boʻladi.




Rasm-***Bugdoyning kattik va karlik korakuya kasalligi: 1-sogʻlom boshok, 2-kattik korakuya bilan kasallangan boshok, 3-4-kattik korakuya sporalari, 5-karlik korakuya bilan zararlangan usimlik, 6-karlik korakuya bilan kasallangan usimlik boshogʻi, 7-karlik korakuyani sporalari.

Poya korakuyasi. Kasallik kuzgatuvchisi – *Urocystis tritici* Körn. (*Tubercinia tritici* Liro). Sporolari spora tuplarida etishadi, ularning oʻlchamlari 14-16x12 mkm boʻlgan bir, ikki yoki uchta toʻq-jigarrang sporalardan va diametri 7-10 mkm boʻlgan ochiq-jigarrangli oʻsmaydigan xujayralardan iborat boʻladi. Poya, barg qini va barglarni zararlaydi.

Zararlangan organlarda dastlab kulrang chiziqlar paydo boʻladi, keyin ushbu chiziqlar parchalanadi va xlamidosporalarning toʻq, deyarli qora massasi koʻrinadi. Boshogʻ toʻliq etilmaydi, uning poyasi xam zararlangan boʻladi. Oʻsimliklar ular sirtlaridagi yoki tuproqdagi sporalar oʻsishida zararlanadi. CHiziq yuzasidagi qoplovchi toʻkimasining yorilishi natijasida sporalar shamol yordamida tarqala boshlaydi. Kasallangan barglar rangsizlanib buraladi, oʻsimlik oʻsishdan orqada koladi, boshok hosil kilmaydi yoki mavjudlarining shakli oʻzgarib ketadi.

Karlik korakuya. Kasallik kuzgatuvchisi – *Tilletia controversa* Kühn. Sporolari yumaloq, toʻrsimon sirtli, koʻpincha rangsiz shilimlik qatlam bilan oʻralgan, diametri 19-28 mkm. Toʻq boʻyalgan xlamidosporalar bilan birgalikda rangsiz, silliq qobiqli sporalar (gialinli) xam uchraydi. Qattiq korakuya kabi boshokni zararlaydi. Boshogʻda don oʻrniga mayda, yumaloq, yuqori konusli va kichik oʻsimtali, korakuya xaltachalari hosil boʻladi (rasm 1.2.).

⁶ Микрометр; 1 мкм = 0,001 мм. Колеоптиль-галладошларнинг ердан униб чиккан биринчи барги.



Rasm 1. Bug`doydagi korakuya:

1 – qattiq korakuya: a – zararlangan boshq; b – korakuya xaltachalari; v – kasallik kuzgatuvchisi sporalari; 2 – karlik korakuya : a – zararlangan boshq; b – korakuya xaltachalari; 3 – chang korakuya : a – zararlangan boshq; b – korakuya xaltachalari.

Karlik korakuyaga chalingan o`simlik past bo`yli, shoxlari ko`p bo`ladi. O`simliklar tuproq sirtida zararlanadi. Unib chiqqan o`simlik 1-2-3 barg fazasida zararlanadi. Kasallik qo`zg`atuvchilari *Tilletia caries*, *Tilletia foetida* zamburug`lari. Bu turlar sporalari (xlamidosporalari) bilan bir-birdan farq qiladi. Birinchi turning sporalari yumaloq, to`rli, ikkinchi turniki cho`ziq, silliq bo`ladi. Har ikkala tur ham bir xil zararlaydi.

CHang korakuya. Kasallik kuzgatuvchisi – *Ustilago tritici* (Pers.) Jens. Sporalari mayda, sharsimon yoki cho`ziq, diametri 5-9 mkm. Boshqolarning barcha qismi zararlanib, faqat boshokning uki shikastlanmay qoladi. Kasallikning birinchi belgilari boshqolash dastlabki davrida paydo bo`ladi. Boshqo o`rniga barg qinidan sporalarning ko`mirsimon massasi chiqib turadi (rasm 1.3). Sporalar xavo oqimida tarqaladi. O`simliklar gullash davrida qo`shni kasallangan o`simliklardan tushayotgan sporalar bilan zararlanadi. Boshqoda don o`rnida qora to`zondek chang qora kuya sporalari vujudga keladi. Kasallangan o`simliklarning boshqoqcha va gul kosabarglari buzilib, chang qora kuya sporalariga aylanadi. Sporalar qo`sh yadroli mitseliyning ayrim xujayralarga bo`linishi natijasida paydo bo`ladi va xlamidosporalar deyiladi. Ular diploidli mitseliydan xosil bo`lganligidan qo`sh yadrolari avval qo`shilib, keyin bir yadroli bo`ladi, shu xolda tinim davrini utaydi.

Bug`doyning gullagan vaqtida sporalar shamol vositasida kasallangan o`simlikdan sog`lomlarning guliga ilashib, urug`chining tumshuqchasidan tuguncha ichiga kiradi. U erda o`shib tugunchani kasallantiradi. Xlamidospora o`shisdan oldin reduksion bo`linib, turt xujayrali fragmobazidiyalarga aylanadi. Bazidiya xujayralari o`zaro qo`shilib, zigotaga aylanadi. Zigotalar o`shib, qo`sh yadroli mitseliy xosil qiladi. Mitseliy o`shib tugunchadan urug`kurtakka o`tadi va don ichida qishlaydi.

Bugdoyning xind qora kuyasi kasalligi. Kasallik Xindistonning ik-kita shtatida 1931 yilda aniklangan bo`lib, keyinchalik boshqa shtatlarga tarkalgan. Kasallangan o`simlik boshog`idagi donlar qora rangdagi teliosporalardan tashkil topgan kukundan iborat bo`lib, chirib kstayotgai balik xidini beradi. Kasallik asosan boshqning birinchi va beshinchi boshokchalarida kuzatiladi. Donning murtak kismi kasallanadi. Ba`zan kasallangan donlar unib chikish imkoniga ega bo`ladi. Kasallangan o`simlik kipiklari yorilib, tushib ketgandan keyin donlar tuproqqa tushadi.

Bug`doyning xind qora kuyasi qasalligi qo`zgatuvchisi *Neovossia indica* Mundkyr zamburug`i xisoblanadi. Zamburug`ning teliosporalari ellipssimon yoki sharsimon shaklda, o`lchami 18-40 mkm kattalikda bo`lib, to`q kizil jigar rangga ega bo`ladi. Teliosporalar tinim davrini utagandan keyin 15-25 S xaroratda unib, yo`g`on bazidiya va bazidiosporani xosil kiladi. Bazidiosporalar bug`doy gullagan vaktida uni kasallantiradi. Infektsiya manbai zararlangan teliosporalar va urug`lar xisoblanadi. Kasallik tufayli 10-20 % bugdoy xosili nobud bo`lsa, urug`lik donlar unuvchanligi kamayishi natijasida kuchatlar soni keskin kamayib ketadi.

1-topshirik. Zararlangan bugdoy boshogini kuzdan kechiring. Usimlik a`zolariga karab tashki kurinishini ta`riflang. Usimlikning kaysi kismi zararlangan? Olingan spora massasining

rangi va xidini aniklang. Ushbu kasallik korakuyaning kaysi turiga kiradi. Kasallik kuzgatuvchilarning latincha nomlang va sistematikaga soling.

2-topshirik. Korakuya sporasining biror turini mikroskopda urganish. Korakuya kuzgatuvchilarining sporalari mikroskopda kuriladi. Buning uchun bugdoyni kattik va chang korakuyasi vav javdarning poya korakuyasi bulgan bitta preparat tayyorlanadi. Preparat mikroskopning katta ob'ektivida karalib, korakuya ayrim turlari sporasining tuzilishi solishtiriladi.

3-topshirik. Kattik korakuya sporasi buyum oynachasi ustidagi bir tomchi suv ustiga kuyamiz. Sungra petri likopchasini olib unga namlangan filtr kogoz kuyamiz, uning ustiga tayyorlagan buyum oynachasini kuyib namlik kamerasiga kuyamiz. Zamburug sporalari 10-17 S da usib chikadi. Oradan 4-7 kun utgandan keyin usgan sporalar xisoblanadi. Preparatdan bazidiya, bazidiosporalar topiladi. Bazidiosporalarning ulchamlari olinadi va rasmga chiziladi.

Javdardagi korakuya turlari

Qattiq korakuya. Kasallik kuzgatuvchisi – *Tilletia secalis* Kühn. Boshokni zaralaydi, boshqda don o`rniga xlamidosporalarning qora surtiluvchi massasi bilan to`lgan korakuya xaltachasi xosil bo`ladi. Xlamidosporalar to`rsimon qobiqli, diametri 18-23 dan 26,3 mkm gacha buladi. O`simliklar unib chiqayotganda , don sirtidagi sporalar bilan zararlanadi.

Poya korakuyasi. Kasallik kuzgatuvchisi – *Urocystis occulta* Rabh. (*Tubercinia ocellata* Liro) (rasm 2).

Barg, barg qinlari va poyani zararlaydi, ularda nozik, uzun, kulrang chiziqlar paydo bo`ladi. To`qima buzilib, darz ketadi, darzlardan zamburug` xlamidosporasining changsimon qora massasi chiqadi. Zamburugning sporalari juda uziga xos bulib, ular tudaga yigilgan bir nechta sporadan tashkil topganga uxshaydi. Tudaning urtasida joylashgan sporalar ancha yirik bulib, pusti kora, chetlari ok rangda, ichi xavo bilan tulgan buladi. Xlamidosporalar spora tuplarda, o`lchamlari 14,4-35,5x11,2-26,3 mkm, bir, ikki, kamdan-kam xollarda uch-to`rt markaziy to`q-jigarrang spora va sariq-jigarrang qobiqli periferik yarimsharsimon yoysimon xujayralardan iborat. O`simlik unib chiqish vaqtida don va tuproq sirtidagi sporalar bilan zararlanadi. Kattik zararlenganda boshokda don tugilmay, u erta sargayib, egilib koladi.



***rasm.Bugdoy va javdarning poya korakuyasi, javdarning nam korakuya kasalligi.1-javdarning poya korakuyasi bilan zararlangan kismi,2-bugdoyning poya korakuyasi bilan zararlangan kismi,3-javdarning poya korakuyasi sporalari,4-bugdoyning poya korakuyasi kasalligi sporalari,5-javdarni kattik (namli) korakuyasi, 6- javdarni kattik (namli) korakuyasi sporalari

CHang korakuya. Kasallik kuzgatuvchisi – *Ustilago vavilovii* Jacz. Boshoqlarni pastki qismini zaralaydi, ularni ko`mirsimon changlanuvchi sporalar massasiga aylantiradi (xlamidosporalar sharsimon, to`q-jigarrang, diametri 15 mkm gacha). Boshoqning ust qismida

odatda xosil bo'lmaydi. Rivojlanish biologiyasiga ko'ra bu korakuya bug'doyning chang korakuyasiga o'xshash. O'simlik gullash davrida zararlanadi.

1-topshirik. Talabalarga zararlangan gerbariy namunalari tarkatiladi. Zararlangan usimliklarning tashki kurinishiga karab, korakuya turlarini aniklash.

2-topshirik. Poya korakuyasi sporalaridan preparat tayyorlash. Buning uchun preparaval igna yordamida ozgina korakuyaning kora massasidan olib, uning mikroskopni kichik va katta ob'ektivida kuruladi. Sporalarining tuzilishini urganish va rasmini chizish. Bu rasmni kattik korakuya va chang korakuya sporalari bilan solishtirish.


Arpadagi korakuya turlari

Tosh korakuya. Kasallik kuzgatuvchi – *Ustilago hordei* Kell. et Sw. Boshqning asosidan tashqari, barcha qismlarini -don, uning pusti va tangachalarini zararlaydi. Tangacha tukimalarining tashki kavati yupka parda kurinishida saklanib koladi, zamburugning sporalari ana shu pardadan kurinib turadi. Sporalar mayda, lekin changlanib ketmay, kattik bulakcha shaklida bir-biriga yopishgan buladi, shuning uchun kasallik toshkuya deyiladi. Gul va boshq tangachalarining qoplama to'qimalari qoldiqlari bilan yopilib, qattiq massa shaklida qoladi (rasm 3.1.). Sporalari silliq, ochiq-jigarrang, o'lchami 5,5x7,5 mkm. O'simlik tuproqda unib chiqayotganda zararlanadi.

CHang korakuyasi. Kasallik kuzgatuvchisi – *Ustilago nuda* Kell. et Sw. Bug'doyning chang korakuyasi kabi boshqni zararlaydi, uni qora massaga aylantiradi, u esa gullash davrida changga aylanadi. Xosil yig'ish davriga kelib boshqdan faqat poya qoladi. O'simlik gullash davrida qo'shni kasallangan o'simliklardan tushayotgan sporalar bilan zararlanadi. Sporalar sharsimon, kamdan-kam xollarda ovalsimon yoki burchakli, ochiq-jigarrang, tukchali, o'lchami 4-5x6,5 mkm (rasm 3.2.). Qorakuya kasalligi arpaning boshq xosil kilish boskichidan boshlab namoyon bo'ladi. O'simlik to'pguli va don tuguni parchalanib qora rangdagi massa bilan to'lgan plyonka bilan qoplanadi. O'simlikning kasallanishi gullash davrida zamburug' teleytosporalarining gulning urug'chi tumshuqchasiga yoki tugunchasiga tushib ungandan keyin to'rt xujayrali bazidiya va ellipssimon bazidiyasporalarni xosil qilishidan boshlanadi. Bazidiyasporalar rivojlanib ko'p xujayrali sporalarni xosil qiladi. Bazidiyasporalar urug'ning perikarp qismida to'planib urug' ekilgungacha gamma xolida saqlanadi. Urug'lar tuproqqa ekilganda gammalar yangi mitseliy xosil kilib, mitsellalar o'sayotgan poyaning o'sish nuqtasigacha kirib keladi. O'simlik boshq xosil qilish davrida uning gul tugunchasiga borib urug' o'rniga tepeytosporalarni xosil kiladi.



Arpadagi korakuya kasalligi: 1-toshkuya, a)zararlangan boshogi, b)kasallik kuzgatuvchi sporalari, 2-chang korakuya a) zararlangan boshogi,b)kasallik kuzgatuvchi sporalari 3)sporalarning rivojlanishi, chapda- korakuya, ungda soxta korakuya bilan boshqning zararlanishi.



***rasm. Bugdoy va arpaning chang korakuya kasalligi. 1-bugdoyning soglom boshogi, 2-arpaning soglom boshogi, 3-boshokning zararlanishi, 4-bugdoy chang korakuya sporalari, 5-arpaning chang korakuya sporalari, 6-sporalarining rivojlanishi.

Qora (soxta chang) korakuya. Kasallik kuzgatuvchisi– *Ustilago nigra* Tapke. Zararlashining tashqi ko`rinishiga ko`ra bundan oldingi korakuyani eslatadi (boshonqning barcha qismlarini zararlaydi), ammo sporalar ancha yirik (6 dan 8,5 mkm gacha). O`simlik tuproqda unib chiqqandan murtak paydo bo`lguncha zararlanadi



Arpadagi toshkuya va korakuya kasalligi: 1-soglom boshok, 2-toshkuya, 3-xaltachalari, 4-sporalari, 5-soglom doni, 6-kora korakuya, 7-toshkuya sporalarining rivojlanishi, 8-kora korakuyasining sporalarini rivojlanishi.

1-topshirik .Arpadagi toshkuya va chang korakuya kasallik belgilarini ayting.

2-topshirik. CHang korakuya zamburugidan preparat tayyorlash. Buning uchun buyum oynasi agarli ozika muxidan yupka katlam xosil kilinadi. Uning ustiga 1-2 tomchi arpadagi korakuya sporalari suspenziyasidan setiladi. Sungra preparat nam filtr kogozli Petri likopchasiga kuyiladi va termostatda 20 soat 18-20 Sda kuyiladi. Bir kundan keyin sporalari kuzatiladi .CHang korakuya sporalari uzun ipsimon shaklda, soxta korakuya esa 4 shoxchali bazidiospora xosil kilishi kuzatiladi.

Sulidagi korakuya turlari

Qattiq korakuya. Kasallik kuzgatuvchisi – *Ustilago levis* Magn. (U. kollerii Wille). Boshloqlarida donni zararlab , fakat kipigini koldiradi.(rasm 4.1.). Sporalari silliq, tuksiz, diametri 3,6x8,3 mkm, tukcha tangachalari bilan qoplangan bo`laklarda joylashadi . Ezish paytida bo`lakchalar bo`linadi va sog`lom donlarni zararlaydi. O`simlik don tuproqda unib chiqayotganda zararlanadi. Murtak tuproq sirtiga chiqishdan oldin zararlanadi. Sulining qattiq qora kuya kasalligi belgilari xam o`simlikda cypypgi xosil kilish davrida namoyon bo`ladi. Kasallangan o`simlik to`pgulidagi donlarning qipig`i parchalanmasdan kumushsimon plyolka bilan qoplanadi, plyonkaning ichida zamburug` teliosporalari joylashganligidan don qora rangda ko`rinadi.

Don ichida to'plangan teliosporalar donni yig'ishtirib olishda urug' ustiga, tuprokka, mexnat qurollariga tarkaladi. Qulay sharoitda teliosporalardan gemmilar xosil bo'lib, uning xosil kilgan mitsellasi vositasida urug' kurtakdan xosil bo'lgan poyani, murtagini zararlaydi. Zararlangan poya bo'ylab zamburug' mitseliysi boshokka kadar o'sib boradi. Boshokda gul bandi orqali tugunchaga kelib, u erda ko'p mikdorda teleytosporalar xosil kila boshlaydi.



Sulidagi korakuya. 1-kattik(chapda kuzgatuvchi sporalari), 2-chang korakuya (ungda kuzgatuvchi sporalari).

CHang korakuya. Kasallik kuzgatuvchisi – *Ustilago avenae* Jens (rasm 4.2.). Ruvak boshog'ining barcha qismlarini buzadi, ularni to'q-zaytun rang spora massasiga aylantiradi. Sporalar yumaloq yoki ellipssimon, ochiq-jigarrang, tukli, diametri 4-8 mkm. Sulining vegetatsiya davrida chang bo'lib uchib ketadilar. Qo'shni sog'lom o'simliklar ruvaklariga tushgach, o'sadilar va ularni gul tangachalarini zararlanshiga olib keladilar. O'simlik unib chiqayotganda don sirtidagi sporalar yoki tangacha ostidagi sporalar va gemmlardan zararlanaadi. CHang qora kuya kasalligi sulining supurgi xosil qilish boskichida namoyon bo'ladi. O'simlik to'p guli va doni qora rangdagi massa bilan qoplanadi. Gullayotgan davrida zamburug' teleytosporalari gulning urug'chi tumshukchasiga yoki tugunchasiga tyshib ungandan keyin to'rt xujayrali bazidiya va ellipssimon bazidiyasporalarni xosil qiladi. Bazidiyasporalardan ko'p xujayrali sporalari urug'ning perikarp qismida gammi xolida saqlanadi va ular yanga mitseliy xosil qilib, poyaning o'sish nuqtasiga kirib keladi. O'simlik supurgi xosil qilish davrida uning gul tugunchasiga borib urug' urniga teleytosporalarni xosil qiladi.



Suli korakuyasi. 1-soglom ruvak, 2-kattik korakuya bilan kasallangan suli ruvagi, 3-chang korakuya bilan kasallangan suli ruvagi, 4-kattik korakuya sporalari, 5-chang korakuya sporalari, 6-plyonka ostidagi gemmilar.


1-topshirik. Zararlangan sulidagi korakuya kasalliklarni asosiy xususiyatlarini yoritng. Sporalarni kuzating, kaysi korakuyaga kirishini aniklang.

2-topshirik. Kattik va chang korakuya sporalaridan mikroskopik preparat tayyorlash. Mikroskopda sporalaning kobigini tuzilishiga aloxida e'tibor bering.

Tarikning chang korakuyasi. Kasallik o'simlikning boshog'ini, poya va bargini zararlaydi. Bunday kasallangan ruvaklarning ukidan boshka xamma kismi buziladi. Ba'zan ruvakning ayrim kislari zararlanaadi. Tarik etilishi oldidan sporalarni urab turgan, xira ok rangli parda yorilib ketadi, natijada sporalar changib, kushni usimliklarga yukadi. Kasallik tarikning supurgi xosil kilish bosqichida namoyon bo'ladi, o'simlik to'pdagi kora massa bilan qoplanadi. Zamburug' teliosporalari urug'ga tushib ungandan keyin to'rt xujayrali bazidiya va ellipssimon bazidiyasporalarni xosil qiladi. Sporalar unib bir-biriga qo'shilgandan keyin o'suvchi mitseliy

xosil qiladi. Mitseliy rivojlanib unayotgan murtakka kirib keladi. Urug`lar tuproqqa ekilganda yangi mitseliy o`sayotgan poyaning o`shish nuktasigacha kirib keladi va uning gul tugunchasiga borib urug` urniga ko`p miqdordap teleytosporalarni xosil qiladi.

Kasallik ko`zg`atuachisi: Baziomitsetlar sinfi- Basidiomicetes, korakuyalar tartibi- Ustilaginales , Sphacelotheca panicumiliacei Bub turi xisoblanadi. Tariqning kasallanishi donning unish davryada sodir bo`ladi.



Tarik korakuyasi

1-ruvak butunlay zaralanishi,2-ayrim kismlarini zararlashi.

1-topshirik. Tarikning korakuya bilan zararlangan kismini ta`riflang, sporalarning rangiga e`tibor bering.

2-topshirik. Mikroskopda preparat tayyorlab sporalarni kuzatish. Ularning ikki kobikliligini kuzating

Donli usimliklardagi korakuya kasalligining umumiy belgilarini aniklang.

Tablitsa-1

№	Korakuya turi	kuzgatuvchisi	Kaysi usimliklarni zararladi	Asosiy belgilari	Sporalarining uziga xosligi	Sporalarning shakli va ulchami	Zararlash vakti	Asosiy kurash chorolari

Donda korakuya sporalari borligini aniqlash usullari

Donli o`simliklarning barcha korakuya kasalliklarini Kasallik kuzgatuvchisilar don bilan tarqaladi. Keyinchalik don bilan boshqa zamburug`li, bakteriyali va virusli kasalliklar xam tarqalishini ko`ramiz. SHuning uchun don sifatini, ularni zamburug`li, bakterial infeksiyalar bilan zararlanganligini va sporalar borligini aniqlash, ya`ni bir donga to`g`ri keladigan sporalar sonini (korakuya va boshqa kasalliklar Kasallik kuzgatuvchisilar) aniqlash kerak. Donni sporalanganligini aniqlashni bir nechta usuli mavjud.

I. Tashqi kuzatuv usuli (vizual). Tekshirilayotgan don namunasi rangi va xidi sinchkovlik bilan o`rganiladi. Bunda korakuya xaltachalarini, kuchli zararlanihida esa don kipiklari, ayrimlarida esa kipiklardan tashqari, don sirti, murtak qismi ifloslanganligini ko`rish mumkin. Korakuya sporalari bilan kuchli zararlangan (ifloslangan) dondan tuzlangan baliq xidi keladi. Bunday kuchli sporalanish hozirgi kunda juda kam uchraydi.

Korakuya xaltachalarini aniqlash uchun tekshirilayotgan dondan 20 g namuna olinadi, ulardan korakuya xaltachalari ajratiladi va o`lchab ko`riladi va 0,01 aniqlikda foizlarda ifodalanadi. Bug`doy, javdar, arpa, sulining 1-va 2-sinflarida korakuya xaltachalari bo`lishi man qilinadi, 3-sinfida esa qo`shimchalar 0,002% dan oshmasligi kerak.

II. tsentrifugalash va yuvish suvini mikroskopik taxlil qilish quyidagi boskichlarni o`z ichiga oladi.

1. Dondan sporalarni yuvish va yuvish suvini tseñtrifugalash. Buning uchun dondan 100 donadan ikkita namuna tanlab olinadi va xar bir namuna probirka solinadi, keyin donlar ustiga 10 sm^3 suv solinadi va 5 minut davomida chayqatiladi. Bu vaqtda sporalar dondan yuviladi va yuvish suvida suspenziya shaklida bo`ladi. YUvish uchun distillangan yoki vodoprovod suvini olish mumkin. CHayqatilgandan keyin yuvish suvi tseñtrifuga probirkalariga solinadi va 3 minut davomida minutiga 50 aylana tezlikda tseñtrifugalanadi.

2. TSentrifugalashdan keyin suvni filtrlab olish va cho`kmani suyultirish. TSentrifugalashda sporalar suspenziyadan tseñtrifuga probirkasi tubiga cho`kadilar. CHo`kma ustida shaffof suv qoladi. Bu suv tashlanadi, devoridagi tomchilar filtr qog`oz bilan quritiladi, cho`kmaga esa $0,5 \text{ sm}^3$ (15 tomchi) toza (distillangan) suv solinadi. Pipetka yoki shisha tayoqcha bilan suv loyqalantiriladi va bir tomchisi buyum shishasiga o`tkaziladi.

3. Sporalarni sanash. Mikroskopni kichik kattalashtiruvida 10 ta nigox maydonlarida sporalar sanaladi, bunda mikroskopik stoli chapdan o`ngga, keyin esa o`ngdan chapga bir tekis buyum shishasi bo`ylab maydon taqsimlangan xolda suriladi (sxemaga qarang).

1 2 3
 5 4
6 7 8
 10 9

Sanashlar natijalari jadvalga yoziladi va 10 ta sanashdan o`rtacha chiqariladi. Masalan:

Kurish maydoni		Sporalar		
1	»	»	4	»
2	»	»	3	»
3	»	»	6	»
4	»	»	5	»
5	»	»	4	»
6	»	»	7	»
7	»	»	2	»
8	»	»	4	»
9	»	»	5	»
10	»	»	6	»

Jami 46 spora

Bir kurish maydonidagi sporalarning o`rtacha soni

$46:10=4,6$ spora

4. Bir nigox maydoni yuzasini aniqlash. Okulyar mikrometr mikroskop stoliga joylanadi va kichik kattalashtirishda okulyar mikrometr bo`limlari sanaladi. Kurish maydoni diametrida joylashadigan bo`limlar soni sanaladi. Keyin diametr va radius millimetrlarda xisoblanadi, bunda mikrometrning bir bo`limi 0,1 mm ekanligi inobatga olinadi. Masalan, mikroskopda diametr bo`ylab 18 bo`lim joylashdi, bunda

$D_0=0,1 \text{ mm} \times 18=1,8 \text{ mm}$;

$R=1,8:2=0,9 \text{ mm}$.

Kurish maydoni yuzasi πR^2 formuladan topiladi. Bizning misolda u teng bo`ladi $3,14 \times 0,9^2=3,14 \times 0,81=2,54 \text{ mm}^2$.

5. Bir buyum shishasidagi kurish maydonlari sonini xisoblash. Buning uchun buyum shishasining umumiy maydonini (standart buyum shishasi $18 \times 18=324 \text{ mm}^2$) bitta kurish maydoni yuzasiga bo`lish kerak – $324:2,54=127,5$ nigox maydoni.

6. Bir tomchidagi sporalar sonini xisoblash. Buning uchun bir kurish maydonidagi sporalarning o`rtacha miqdorini buyum shishasining kurish maydonlari soniga ko`paytirish kerak. Bizning misolda $4,6 \times 127,5=585,5$ spora.

7. $0,5 \text{ sm}^3$ yoki 15 tomchi suspenziyadagi sporalar sonini xisoblash. TSentrifugalashdan keyin cho`kmani suyultirish uchun 15 tomchi olingan. SHuning uchun bir tomchidagi sporalar

sonini 15 ga ko'paytirsak, 100 dondan yuvilgan sporalarning umumiy sonini aniqlaymiz. Bizning misolda $585,5 \times 15 = 8797,5$ spora.

8. Sporalarni bir donga mos kelishini aniqlash. Donni spora bilan sporalanganlik darajasi bitta donga mos keladigan sporalarning soni bilan belgilanadi. Bizning misolda $8797,5 : 10 = 879,75$ (88 spora).

Urug'larning sporalanganlik darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$X = \frac{AK}{100},$$

Bu erda: A – bir kurish maydonidagi sporalarning o'rtacha soni;
K – koeffitsient (buyum shishasidagi kurish maydonlari sonini tsestrifugalashdan keyin cho'kmaga qo'shilgan suv tomchilariga ko'paytmasi);
100 – namunadagi donlar soni.

III. Membranali filtrlar usuli (M.S. Dunin va T.I. Rogovskaya). Dastlab bu usul 1928-1930 yillarda prof M.S. Dunin tomonidan taklif qilingan bo'lib, u G.Gentner (Germaniya) ning usulini rivojlanganidir. Uning moxiyati quyidagicha: bug'doy urug'lari (50 g namuna) kolbaga solinadi, ustidan 100 ml suv (18-20°S xaroratli) quyiladi va 3 minut davomida chayqatiladi. YUvish suyuqligi g'ovak tubli, nitrokletchatkaning spirt-efirli va atsetonli eritmalaridan tayyorlangan membranali filtr o'rnatilgan tsilindrga quyiladi.

Qurilma (membrana filtrlil tsilindr) suv nasosiga ulanadi va suspenziyani filtrlash jarayoni tezlashtiriladi. Donlarning xar bir namunasidan ketma-ket ikki-uch yuvish qilinadi. Keyin membrana filtri xalqasi tsilindrdan olinadi, bir tomchi kedr moyi bilan buyum shishasiga joylanadi. Kedr (immersion) moyi filtrning barcha g'ovaklarini to'ldiradi, u bunda shaffof bo'lib qoladi. Mikroskopda korakuya sporalari yaqqol ko'rinib qoladi. Ularni 10 ta nigox maydonida sanaydilar.

Urug'larning sporalanganligini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$N = A_1 K_1,$$

Bu erda N – urug'larning sporalanganligi (mikroskopning bir nigox maydonidagi sporalarning soni);
A₁ – birinchi yuvishdagi sporalarning soni;
K₁ – yuvilish koeffitsienti (tajriba yo'li bilan xisoblangan va 1,189 ga teng).
Davomi bor

Kerak asbob va uskunalari Dars metodi

Galla urugining korakuya bilan zararlanganligini aniqlash.

Buning uchun qorakuyaning j'poya formasi yoki bug'doyning qattiq qorakuyasi kabi keng tarqalgan turlarini olish mumkin. Har biri 5 grammdan ikkita sof urug' namunasi olib yo'g'on probirkalarga solinadi. Ustiga 12-13 ml issiq (30 C°li) suv quyib sporalarning urug'dan ajralishi uchun 15 min tinch qo'yiladi. 15 minutdan keyin urug'li probirkalarni chayqatib, suvi sentrifuga probirkalariga quyiladi va suv tiniguncha 3 minut davomida sentrafugalanadi. Shundan keyin suv tez quyib olinsa, probirka tagida qorakuya sporalari cho'kmasi qoladi. Keyin unga 0,5 ml toza suv qo'shib aralastiriladi. So'ngra har qaysi namuna mikroskopda analiz qilinadi. Buning uchun probirkalardagi sporalarning sporalil suvdan buyum oynasiga 1 tomchi tomisiladi. Mikroskopda preparatning 10 ta joyi qaraladi. Har gal qaralgandagi ko'rish maydonidagi sporalarni sanab, avval bitta namuna uchun (1 preparatniki), so'ngra ikkala namuna uchun o'rtacha miqdor olinadi. Agar har bir namunadagi sporalarning o'rtacha soni bir-biridan keskin farq qilsa (masalan, bitta namunani 2 ta spora, boshqasini 15 ta spora bo'lsa), yangi preparat tayyorlab sporalarni qaytadan sanash kerak. Urug'larning zararlanganlik darajasi quyidagi ko'rsatgichlarga qarab aniqlanadi: ko'rish maydonida 2tagacha spora bo'lsa (namuna uchun o'rtacha miqdor), kuchsiz 3tadan 10 tagacha spora bo'lsa, o'rtacha 10 tadan ortiq spora bo'lsa, kuchli zararlangan hisoblanadi.

1.2.DONLILARNING ZANGI

Donlilarning zang kasalligini bazidiomitsetlar (Basidiomycetes) sinfi, zanglilar tartibi (Uredinales) zamburug`lari chaqiradi. Donlilarni zararlovchi zamburug`larga uchta bosqich (baxorgi, yozgi va kuzgi), beshta turli spora tashish shakliga (spermatsiya, etsidiosporalar, uredosporalar, teleytosporalar va bazidiosporalar) ega bo`lgan murakkab rivojlanish tsikli Puccinia turkumi kiradi. Ularni barchasi turli xo`jayinli, ya`ni ikkita xo`jayin – o`simlikda rivojlanadi (donlilarda va oraliqlarda). Zararlashni asosiy tipi – zararlangan to`qimalarda pustulalar xosil bo`lishi. YOzgi pustulalar (yostiqlar) sariq, pushti-sariq yoki qo`ng`ir rangli bir xujayrali uredosporalardan iborat bo`lib, boshoqlilarda butun vegetatsiya davri davomida xosil bo`ladi, ular bir nechta avlod bo`lishi mumkin. Ular zamburug`ni ko`payishi va o`simliklarning yalpi zararlanishi uchun xizmat qiladi. To`q-jigarrang va qora rangli qishqi pustulalar zararlanadigan organlarga (barg poyalari, barg qini) yoz oxirida qo`yiladi va ular teleytosporalardan iborat bo`ladi, u esa zamburug`ni saqlanib qolishini ta`minlaydi. Baxorda yoki kuzda o`sib chiqib ular bazidiosporali to`rt xujayrali bazidiyalalar xosil qiladi. Bazidiosporalar oraliq xo`jayinni zararlaydi, ularda spermatsiyali spermagoniyalar (bargning yuqori tomonida) va etsidiosporali etsidiyalalar (bargning pastki tomonida) xosil bo`ladi. Etsidiosporalar baxorda (yoki zangning ayrim turlarida kuzda) o`simliklarni birlamchi zararlanishiga sababchi bo`ladi.

Boshoqlilarda zang zamburug`lari boshqa o`simliklardagi kabi shart bo`lgan, nozik yo`nalgan parazitlar. Ular ma`lum tur va navli madaniy o`simliklarni zararlash va ularga sezilarli zarar etkazishga moslashganlar.


Boshoqlilardagi zang kasalligining asosiy turlarini ko`rib chiqamiz.

Bug`doyda zang kasalligi

CHiziqli, yoki poya zangi. Kasallik qo`zg`atuvchisi – Puccinia graminis Pers. f. tritici Erikss, et Henn. (rasm 7). Poya, barg qini, ayrim xollarda boshoq asosini zararlaydi. Ularda dastlab sariq (zang) cho`ziq yozgi pustulalar (uredopustulalar) xosil bo`lib, epidermis buziladi. Ularda uredosporalar bandli, ellipssimon, bir xujayrali, o`lchami 20-42x14-22 mkm, sariq tikanchali qobiqli. Keyin yoz oxirida qora kukunsimon cho`zinchoq pustulalar (teleytosporali teleytopustulalar) xosil bo`ladi. Teleytosporalar ikki xujayrali, bog`langan, bandli, o`lchamlari 35-60x12-22 mkm.

Baxorgi (etsidial) bosqichi zirkda to`q-jigarrang nuqtali spermogoniylar shaklida bargning yuqori qismida va och-sariq pustulalar (etsidiylar) shaklida bargning pastki qismida xosil bo`ladi. Etsidiosporalar yumaloq-o`tmash qirrali, o`lchami 14-22x12-18 mkm, ichidagisi sariq. Etsidiyasporalar etilib, shamolda tarkaladi va galla ekinlarini zararlaydi, ularda bir necha bugin uredosporalar-zang kungir rangli kukunlanadigan yostikcha yoki bir xujayrali uredosporalardan tuziogan pustulalar xosil buladi..Pustulalar uzaro kushilib ketib , chizik yoki yul xosil kiladi.Zamburugning nomi xam shundan kelib chikkan.

Zamburug` zirk bargining yuzasida sharsimon spermagoniy xosil kilib, uning o`lchami 120-130 mkm ni tashkil qiladi. Spermagoniyda mayda, rangsiz, bir xujayrali spermatsiyalar etiladi va boshqa spermagonlarni otalantiradi. Oradan 5 kun o`tgandan keyin zirk bargning orqa tamonida etsidiylar xosil bo`ladi. Etsidiylarning shakli tsilindsimon botiq bo`lib, chetlari bukilgan, rangi ok-sarik,o`lchami 2-5 mkmni tashkil qiladi. Xosil bo`lgan etsidiyasporalar o`lchami 14-22x12-18 mkmni tashkil qiladi. Etsiliya sporalar 5-24 ° S xaroratda una boshlaydi.Etsidiyasporalardan mitseliy unib chiqib, ulardan uredinlar xosil bo`ladi. Uredinlar qizg`ish-qo`ng`ir, cho`zinchok, chiziqchaga o`xshash bo`lib, poyada, bargda, barg qo`ltigi va qipiqlarda teliosporalarni xosil qiladi .Urediniosporalar cho`zinchoq, ellipsimon, bir xujayrali bo`lib, o`lchami 20-42x14-22 mkm nn tashkil qilaai. Urediniooporalalar 1.-30 ° S xaporatda una boshlasa, rivojlanishi uchun optimal xarorat 18 -20° S ni tashkil qiladi. Vegetatsiya oxiriga kelib, barg va poyada teliosporali teliopustulalar xosil bo`ladi. Teliosporalar uzun oyoqchali, ikki xujayrali cho`zinchoq-to`g`nog`ichsimon shaklda bo`lib, o`lchami 35-60x12-22 mkm ni tashkil kiladi.



Bug'doydagi poya(chiziqli) zang kasalligi. 1-zirkdagi baxorgi stadiyasi,2-zirk bargining kundalang kesimi(yukorida)spermogoniylar va (pastda) etsidiyalar,3-poyadagi yozgi stadiyasi va uredosporalar,4- poyadagi kishgi stadiya va teleytosporalar



Bug'doydagi poya(chiziqli) zang kasalligi.1- bugdoy poyasidagi Puccinia graminisning uredostadiyasi,2-donlilar poyasidagi R.gramminisning teleytostadiyasi, 3-donlilar poya zangi uredosporalari,4-donlilar poya zangi teleytosporalari,5-zirk barglaridagi R.gramminisning etsidiyali boskichi. **Bargning qo'ng'ir zangi. kasallik kuzgatuvchi**– Puccinia triticina Erikss. Barg va barg qinlarini zararlaydi, ularda tartibsiz joylashgan qo'ng'ir yumaloq yostiqlar paydo bo'ladi. Bu uredosporali uredopustulalar. Uredosporalar yumaloq, och-qo'ng'ir, bir xujayrali, tikanli, diametri 19-20 mkm, (rasm 8.1.).

Keyinchalik eskirayotgan barglarda, ko'pincha pastki tomonida bargning epidermis bilan qoplangan, qora yaltiroq yostiqlar shaklidagi teleytopustulalarni xam ko'rish mumkin.

Bu zangning etsidial bosqichi ayiktovondoshlar oilasiga mansub sanchkiutda juda kamdan-kam rivojlanadi. SHunday kilib rivojlanish tsiklida etsidiyali stadiya, spermogoniy va teleytostadiya, shuningdek oralik xujayinning axamiyati yuk, zamburugning butun xayoti fakat uredosporada kechishi mumkin.

Teliosporalari ikki xujayrali,to'q jiggar rangda bo'lib, to'g'nog'ichsi-mon, qora rangda bo'lib, o'lchami 32-49x15-22 mkm. Uredinosporalar 100% namlik va 15-25° S da ipsimon o'simta xosil kilib, uni uredinomitseliy deyiladi va u o'simlik to'qimasiga kirib boradi. Yangi urediniylar xosil kilish uchun 10-15 °Sda 15-18 kun davomida inkubatsiya davri o'tadi.

Kuzda xosil bo'lgan uredinomitseliy va uredinosporalar past xaroratga chidamli bo'lib, baxor faslida keng tarqaladi. Bug'doy donining sut pishish davrida katta zarar etkazadi. Xavo

xaroratining ko'tarilib ketishi va nisbiy namlikning kamayishi kasallikning zararini keskin kamaytiradi.

****8-rasm bor(_ruscha kitob)

Sariq zang. Kasallik kuzgatuvchisi – *Puccinia striiformis* West. (*Puccinia glumarum* Erikss, et Henn.). u bugdoy , ARPA, javdarni va bir kancha yovvoyi galladoshlarning barcha er usti qismlarini (barg qini, barg, boshqoq tangachasi, don) zararlaydi. Ularda to'g'ri cho'ziq chiziq shaklida joylashgan mayda, och-sariq yozgi spora tashish pustulalari xosil bo'ladi (rasm 8.2.). boshqoq tangachalari va gul kobiklarida ular och-sarik rangli kalta chizikcha shaklida buladi. YOz davomida zamburug' uredosporalarning bir nechta generatsiyasini beradi. Uredosporalar sharsimon, tikanli, och-sariq rangli. Teleytopustulalar ko'pincha bargning pastki tomonida epidermis ostida xosil bo'ladi. Teleytopustulalar ikki xujayrali, , qo'ng'ir, kiska bandli, o'lchamlari 30-40x16-24 mkm. Zamburug' qishqi ekinlarda uredobosqichda qishlaydi. Orlik xujayini aniklanmagan, zamburug uredomitselliy shaklida kuzgi ekinlarda va kup yillik yovvoyi galladoshlarda –yaltirboshda , ajrikda kishlaydi.



Bugdoydagi sarik zang kasalligi. 1-bugdoy barglaridagi uredosporalarning xosil bulishi, 2-bugdoy boshogini sarik zang bilan zararlanishi, 4-sarik zangni uredosporalari, 5-sarik zangni teleytopustulalari.

1-topshirik. Bugdoydagi poyadpgi chizikli, bargdagi kungir va sarik zang kasalligining tashki belgilarini ta'riflang. Kungir va sarik zang kasallik belgilarini takkoslang. Pustulalarning ulchami, buyalishi, joylashishi kuzating va rasmini chizib oling.

2-topshirik. Zang kasallik kuzgatuvchilari zang zamburuglardir. Gallalarda zamburugning fakat 2 boskichi yozgi va kishgi boskichi rivojlanadi. Zang zamburugining biror turi uredosporalari bilan teleytopustulalarini, xususan, poya zangini mikroskopda kurib tanishish kerak. Uredosporalar bilan teleytopustulalar bita preparatda kurib urganiladi. Buning uchun galla usimliklari poyasidan kungir va kora dumbokchalar ajratib olinadi. Preparat mikroskopda karalganda 2 xil spoolralar : chuzik 1 xujayrali (sarik yoki kungirrangli) uredosporalar va uzun oyokchali 2 xujayrali (kora rangli) teleytopustulalar kurinadi.

3-topshirik. Oralik xujayin usimliklaridan zirkda zangni kaysi boskichlari utishini urganish.

4-topshirik. Donli galla ekinlari kasalliklarini aniklash.zang zabmburugining biror turi sporasini mikroskopda urganish.talabalarga gerbariy namunalari ulashib beriladi. Ular tabitsaga muvofik aniklanadi.

Javdardagi zang turlari

CHiziqli, yoki poya zangi. Kasallik kuzgatuvchisi – *Puccinia graminis* f. *secalis* Erikss, et Henn. (rasm 7). Paydo bo'lishini tashqi belgilari, uredo- va teleytopustulalar tuzilishi bug'doydagi shakliniki kabi.

Bargning qo'ng'ir zangi. Kasallik kuzgatuvchi – *Puccinia dispersa* Erikss, et Henn. Uning oraliq xo'jayinlari gavzabonguldoshlar oilasiga mansub xorok, volovik, va dorivor rummyanka xisoblanadi. Paydo bo'lishini tashqi belgilari bug'doydagi bargning qo'ng'ir zangi

bilan bir xil. Bunda barglarda va barg novida uredosporalarning zang-kungir yostikchasi massasi xosil buladi, ular tartibsiz joylashadi. Barglarda uredosporali uredopustulalar rivojlanadi. Ular bir nechta avlod bo`ladi. Keyin yoz oxirida teleytosporali koramtir yostikchalar paydo bo`ladi va rivojlanadi. Teleytopustulalar bug`doydagi bargning qo`ng`ir zangidan ko`ra ertaroq va ko`proq xosil bo`ladi. Ko`pchilik teleytosporalar kuzda o`sib chiqadi va oraliq xo`jayinlarni zararlaydi. Odatda zangning bu turi oraliq xo`jayinsiz qishqi ekinlarda yozgi bosqichida qishlashi mumkin.

Sariq zang.kasallik kuzgatuvchisi– *Puccinia striiformis* West. (*Puccinia glumarum* Erikss, et Henn.). Ushbu kasallikning namoyon bo`lishi va rivojlanishi bug`doydagidek kabi.



Bugdoy va javdardagi barg kungir zangi. 1-bugdoydagi barg kungir zang uredosporalari, 2-3-boshokdoshlarda kungir zangni kuzgatuvchi uredo va teleytosporalar, 4-boshokdosh barglaridagi teleytostadiya boskichi, 5-kulrang zang kuzgatuvchi oralik xujayini-vasilistnik

1-topshirik Berilgan tarkatma materialni kuzatib, javdarni kaysi kasallik bilan zararlanganini aniklash(chizikli zang, kungir zang va sariq zang). Javdardagi bu kasallik belgilarini bugdoydagi shu kasalliklar bilan takkaoslang. Venn diagrammasi yordamida

2-topshirik. Kungir zang zamburugning uredo- va teleytosporalaridan preparat tayyorlash. oldin kichik sungra kata ob`ektivda kuzatish. Uridosporalar 1 xujayrali, s shipovatoy obolochkoy, pushti rangdagi yogsimon kiritma saklaydi, teleytosporalar 2 xujayrali, tugnagichsimon, kalta rangsiz oyokchali, tashki kobigi yumalok shanlda kungir-kizil kobikli. Javdarning kungir zang zamburugi sporalarini Bugdoyning kungir zang sporalari bilan takkoslang

3-topshirik. Javdar barglaridagi kungir zang kasalligini oralik xujayinlarida zamburugning kaysi rivojlanish boskichlari bulishini aniklang.

Arpadagi zang turlari

CHizikli (poya) zangi. Kasallik kuzgatuvchi – *Puccinia graminis* Pers. f. *secalis* Erikss, et Henn. Arpada yuqorida ko`rilgan donlilar – bug`doy va javdardagi kabi namoyon bo`ladi. Poya va barg qinlarida dastlab zang rangli cho`ziq yostiqlar – yozgi spora tashish (uredosporalar) xosil bo`ladi, keyin yoz oxirida poya va barg qinlari bo`ylab cho`zilgan qora pustulalar (qishqi spora tashish) xosil bo`ladi.

Sariq zang. Kasallik kuzgatuvchi – *Puccinia striiformis* West. (*Puccinia glumarum* Erikss, et Henn.). uredo- va teleytosporalarning joylashishini tashqi tipi bug`doy va javdardagi shu kasallikniki kabi.

Karlik zang. Kasallik kuzgatuvchi – *Puccinia hordei* Oth. (*Puccinia anomala* Rostr., *Puccinia simplex* Erikss. et Henn.). Bargda tartibsiz joylashgan mayda, yumaloq, sariq yostiqlar shaklida namoyon bo`ladi. Bu uredosporali uredopustulalar. Uredosporalar och-sariq, qo`ng`ir tikanli qobiqli, diametri 19-22 mkm. Teleytopustulalar qora, ko`pincha bargning pastki qismida va barg qinlarida xosil bo`ladi, epidermis bilan qoplangan, changlanmaydilar. Ulardagi teleytosporalar qo`ng`ir, ikki yoki bir xujayrali, qisqa rangsiz badda. Bir xujayrali sporalarning ustki qismi kesilgan. Teleytosporalar o`lchami 25-30x16-18 mkm.

Karlik zangning oraliq xo`jayini – liliyadoshlar oilasiga mansub *Ornithogalum* usimlidir. Bu erda etsidial bosqichi rivojlanadi. Qishqi arpa ekiladigan viloyatlarda bu zang oraliq xo`jayinsiz, qishqi ekinlarda uredobosqichda qishlashi mumkin.



Arpadagi karlik zang kasalligi. 1-arpa barglarida xosil bulgan uredosporalar, 2- *Puccinia anomala* uredosporalari, 3-*Puccinia anomala* teleytosporalri, 4- arpadagi karlik zang oralik xujayini-pritsemlechnik.

1-topshirik. Berilgan tarkatma materialni kuzatib, arpadagi zang kasalliklarinng turlari bilan tanishish(chizikli zang, kungir zang va sarik zang).Ularni bir-biri bilan solishtirish. Poya zang kishgi stadiyasi va karlik zangni na listovix vlagalishax e`tibor bering, shuningdek,sarik va karlik zangni pustularini joylashidagi farkni (yozgi va kishgi spora xosil kilishini) aniklash.

2-topshirik. Karlik zang yozgi va kishgi sporalaridan preparat tayyorlash. Preparaval igna yordamida uredosporalaridan preparat tayyorlanadi. Zararlangan barg tukimasidan skalpel yordamida mayda bulakcha kesib olinadi.buyum oynasidagi bir tomchi suvga kuyilib yaxshilab aralastiriladi. Mikroskopning kichik va kata ob`ektivlarida kuzatilib rasmi chizib olinadi.

Sulidagi zang turlari

O`simlikning zararlanishi vegetatsiyaning turli davrlarida ro`y beradi. Kasallangan o`simlik barg yaprog`ining assimilyatsion yuzasi kamayadi, nafas olishi va suv bug`lanishi ko`payadi. Kasallangan o`simlik o`shidan orqada koladi, don va boshog`ining soni kamayadi. Zang kasalligi kasallik ko`zgatuvchining turiga karab kuyidagi turlarga bo`linadi: chizikli zang - *Puccinia graminis*, *P. Graminis* f. *secalis*, *P.g.f tritici*, *P.g.f avenae*; qo`ng`ir zang-*Puccinia triticina* ; sarik zang-*Puccinia striiformis*, Zang kasalligi sulining er usti organlarini zararlaydi. Kasallik o`simlik organlarida zang rangidagi yostikcha shaklida ko`zga tashlanadi.

CHizikli (poya) zangi. Kasallik kuzgatuvchi – *Puccinia graminis* Pers. f. *avenae* Erikss. et Henn. Zararlanishning tashqi ko`rinishi: yozgi spora tashishda cho`zinchoq zang rangli pustular va bug`doy, javdar, arpaning ushbu kasallikka chalinganidagidek epidermis buzilishi bilan boradigan qora, poya va barg qini bo`yicha tarqalgan qishqi spora tashish pustulari. Kasallangan o`simliklardagi yozgi yostiqlar-uredosporalar sulining -vegetatsiyasi davomida bir necha nasl berib, bir xujayrali sariq, qizg`ish- sariq yoki kizil rangda bo`ladi. Qishgi yostiqlar o`simlik poyasida, bargida, barg qo`ltig`ida yoz faslining oxirida xosil bo`lgan tediosporalar zamburug`ning qishda saqlanishi uchun xizmat qiladi, Teliosporalar baxor faslida unib to`rttadan bazidiosporaga ega bo`lgan bazidiyaga aylanadiyu Bazidiosporalar oraliq xo`jayin-zirkni kasallantirib bargning yuza kismida spermogoniyln spermogoniyni, bargning ostki yuzasida etsidiylar etiladigan etsiosporani xosil qiladi.

Zamburug`ning mevanalari o`simlik epidermisi ostida joylashgan diploid mitseliydan xosil bo`lgan teleytosporadan etiladi. Zamburug`ning xayotiy tsikli 5 ta boskichda o`tadi: baxorda 1-spermogoniy va 2- etsidiy bos-tsichi, yozda-3 -uredoboskichi, kishda-4 teleytoboskichi va nixoyat, 5-bazidio-sporalardagi bazidiyning xosil bo`lishi.

Tojsimon zang. Kasallik kuzgatuvchi – *Puccinia coronifera* Kleb. f. *avenae* Erikss. Barg va barg qinlarini zararlaydi, ularda dastlab yozgi bosqich sariq changlanadigan yostiqlar

shaklida rivojlanadi, ular etarlicha yirik (diametri 20-30 mkm), yumaloq, tikanchali qobiqli uredosporalardan iborat bo`ladi. Keyin yozgi pustulalar atrofida (xalqasimon) qishqi bosqich qora rangli yaltiroq yostiqliklar shaklida rivojlanadi, ular jigarrang qobiqli va yuqori xujayrasida tugnagichsimon (toj shaklida), cho`ziq, ikki xujayrali teleytosporalar iborat bo`ladi (rasm 8.3.). Teleytosporalar qisqa, rangsiz bandda, ustidan barg epidermisi bilan qoplangan, ularni o`lchami 35-60x12-25 mkm.

Baxorda teleytosporalar unib chikib, bazidiyasporalar xosil kiladi. Bazidiyasporalar oralik xujayini –slabitel'naya krushinani zararlaydi, uning pastki barglarida tezda etsidiyasporalarni sarik rangli kosachasi xosil buladi. Ular sulining zararlanib, unda uredo va teleytosporalar xosil kiladi. SHunday kilib, sulining tojsimon zang zamburugi barcha boskichda rivojlanadi.

Togjumrut suli zang kasalligi bilan zararlanadigan eng asosiy manba xisoblanadi. Odatda, tojsimon zang zamburugi oralik xujayin bor joyda tarkaladi.

Krushina barglari va rezavorlarida qora nuqtalar (tugunlar) shaklida spermagoniyalar va yorqin-malla pustulalar shaklida etsidial spora tashishlar xosil bo`ladi. Xar bir pustula zamburug`ning etsidiosporalari tutgan etsidiyalar (yacheykalar) guruxidan iborat.

62 ,betdagi tsvetnoy rasm

1-topshirik. Zararlangan suli usimligidagi poya zangi va tojsimon zangni asosiy belgilarini ta`riflang. Ularni bir-biri bilan takkoslang.

2-topshirik. Poya va tojsimon zang kasallik kuzgatuvchilarini uredo va teleytosporalaridan preparat tayyorlab mikroskopda kurish. Ularni rasmini chizish.

Boshokdoshlarda uchraydigan zang kasalligining turlari tablitsa2

Zang turi	Kuzgatu- tuvchisi	Usimliklarni zararlashi	Zararlaydigan organi	Uziga xos belgilari	Uredosporalar shakli va tuzilishi	Teleytosporalar tuzilishi va shakli	Prome- jutochnik


1.3 BOSHOKLILARNING ILDIZ CHIRIGI

Boshoklilarning ildiz chirigi – infeksiyon kasallik, u Helminthosporium, Fusarium, Ophiobolus, Cercospora va boshqa turkumga mansub yarim parazit zamburug`lar tomonidan chaqiriladi. Bunda o`simlik larning zararlangan kislari, odatda, tuprokka kumilgan buladi, shuning uchun ularning er usti kislari xech kanday zararlanish belgilari xosil bulmaydi. Ildiz chirish kasalliklarida ildizlar va ildiz atrofi qislari chiriydi, buziladi. Natijada o`simlik rivojlanishi sekinlashadi, barglar sarg`ayadi va quriydi, oq poya paydo bo`ladi, boshqoq oq rangga kiradi, boshqoqlash to`xtaydi, don puch bo`ladi, maxsuldor poyalar nobud bo`ladi. Ildiz chirigining infeksiyasi tuproqda o`simliklar qoldig`ida (ayniqsa almashlab ekish bo`lmasa) to`planadi; ayrim xollarda infeksiya urug`dan o`tishi mumkin. Kuyida kup uchraydigan ildiz chiriklarini kurib chikamiz.

Gelmintosporioz ildiz chirigi. Kasallik kuzgatuvchilar – Helminthosporium turkumi, ko`pincha Helminthosporium sativum P. K. et B. (Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibi) zamburug`lari.

Zamburug` konidial bosqichda rivojlanadi, sumkali bosqichi yo`q. H. sativum mitseliylari to`q bo`yalgan, konidiya tashuvchilar tupda, tirsakli, qo`ng`ir. Konidiyalar teng yonlimas, ozgina egri, to`q-zaytun rangli, 2-13 to`siqli, o`lchamlari 60-134x16-30 mkm (rasm 9.1.).

Kasallik namoyon bo`ladi: unib chiqayotganlarda – koleoptil qo`ng`irlashadi, barglar sarg`ayadi va deformatsiyalanadi, o`simlik rivojlanishi sekinlashadi; etuk o`simlikda – birlamchi va ikkinlamchi ildizlar, boshqoq va poyaning pastki qismi chiriydi, qo`ng`irlashadi va qorayadi, buning natijasida o`simlik o`sishda orqada qoladi, oq poya va oq boshqoqlik, boshqoqdagi donlar puch bo`lishi, maxsuldor poyalar nobud bo`lishi kuzatiladi. Ayrim xollarda don boshqoqda qo`ng`ir rangli bo`ladi, bujmayadi va murtak zonasida qo`ng`irlik bo`ladi – “qora murtak”.



**rasm.Boshoklildagi ildiz chirish kasalligi.1-gelmintasporiiozli:a-zararlangan usimlik ,doni, vsxodы,b-kuzgatuvchi sporalari,2-fuzariozli:a)zararlangan usimlik,b)soglom va zararlangan usimlik,v)spora kuzgatuvchisi,3-ofibolez:a-zararlangan usimliki,b-pepetsitiy,kuzgatuvchi xaltachasi va spora xaltachasi,4-tserkosporozli doglanish:a-zararlangan poya,b-zamburug sporalari



***rasm.bosholdoshlardagi gelmintosporiozlar:1- arpaning yul-yul doglanish bilan zararlanganligi2- Helmonthosporium gramineum konidiyalari,3-arpadagi tursimon doglanish,4-Helmonthosporium teres konidiyalari 5-bugdoy barglaridagi gelmintosporioz,5-Helmonthosporium sativum konidiyalari

Fuzarioz ildiz chirig`i. Kasallik kuzgatuvchi fuzarium turkumi zamburug`lari: Fusarium culmorum (W. G. Sm.) Sacc., Fusarium avenaceum (Fr.) Sacc., Fusarium graminearum Schw., Fusarium gibbosum App. et Wr. emend Bilai, Fusarium sambucinum Fuck., Fusarium solani (Mart) App. et Wr., Fusarium nivale Ces va b. (Deuteromycetes sinfi, Acervulales tartibi). Kuchsizlangan o`simliklarda rivojlanganda ular ildiz, boshoq tugunlari va poya asoslarini zararlaydi. O`simliklarning zararlangan qismlari qo`ng`irlashadi, buziladi, ayrim xollarda quruq chirik paydo bo`ladi. Nam sharoitlarda zararlangan organlarda mitseliy va oq-pushti rangli qoplam shaklida zamburug`ning spora tashuvchisi xosil bo`ladi (rasm 9.2.).

Fuzariumlar konidiyalari o`roqsimon yoki burtikcha-o`roqsimon, to`siqli. Fusarium ning ayrim turlarida bir xujayrali yoki bir to`siqli, ovalsimon, ellipssimon yoki tuxumsimon shaklli mikrokonidiyalari uchraydi.

Fuzarioz traxeomikoz – kasallik kuzgatuvchilar Fusarium turkumi zamburug`lari, ko`pincha Fusarium oxysporum Schlecht, F. sporotrichiella Wr. emend Bilai va b. Kasallik barglar qurishida, o`simlikning rivojlanishi sekinlashishida va maxsuldor poyalarning muddatidan oldin nobud bo`lishida namoyon bo`ladi, bu esa o`simliklar intoksikatsiyasida, asosan tomir o`tkazuvchi tizimning buzilishida, tomirlarda mitseliylar rivojlanishida suv balansining buzilishi natijasida sodir bo`ladi.

Ofiobolez ildiz chirigi. Kasallik kuzgatuvchi – *Ophiobolus* turkumi zamburug`lari, asosan *Ophiobolus graminis* Sacc. (Ascomycetes sinfi, Sphaeriales tartibi). Qishqi bug`doy va arpani zararlaydilar. Ildiz va ildiz bo`yinchasi qo`ng`irlashadi, qorayadi va chiriydi, o`simlik o`shida to`xtaydi, boshqoqlash kechikadi, boshqoqda puch donlar bo`ladi. Poya asosining korayib ketishi kasallikning xarakterli belgisi bulib, u erda zamburug`lari va meva tanasi -peritetsiyalar tuplanadi. Boshqoqlash oldidan va undan keyin poyaning birinchi bargining qini ostida poya qorayadi va qora, oson ajraluvchi qavat bilan qoplanadi (mitseliy va xaltali spora tashuvchi) (rasm 9.3.). Meva tana – peritetsiy. Ular silliq, sharsimon, gurzisimon xaltali va ularda joylashgan tsilindrik, ko`ndalang to`siqli, 70-90x3-4 mkm o`lchamli sporalari (*Ophiobolus graminis*) yoki tukli, qisqa xartumli, tsilindrsimon xaltali va 170-190x2,5-3 mkm o`lchamli ipsimon och-zaytun rangli sporalari (*Ophiobolus herpotrichoides* (Fr.) Sacc.) bo`lishi mumkin. *Ophiobolus graminis* ning rivojlanish tsiklida *Phoma* tipidagi piknidlar, xlamidosporalar sklerotsiyalar xam xosil bo`lishi mumkin, ular zamburug`ning ko`payishida va saqlanib qolishida muxim rol o`ynaydilar.



Donlilardagi ofiobolezli va TSerkosporellezli ildiz chirishi: **1-ofiobolez bilan zararlangan bugdoy poyalari, 2-zamburug` peritetsiyalari, 3-sporali xaltachalari, 4-TSerkosporellez bilan zararlangan bugdoy poyalari, 5-zamburug`ning spora xosil qilishi**

TSerkosporellez yoki ildiz atrofi chirigi (poyalarni oson sinishi). Kasallik kuzgatuvchi – *Cercospora herpotrichoides* Fron. (Deuteromycetes sinfi, Hyphales tartibi) zamburug`i. Kasallik poyaning pastki qismida dog`lar paydo bo`lishi bilan namoyon bo`ladi. Dog`lar ellipssimon, kora rangli chiziqlar bilan chegaralangan va markazida ochiq-jigarrang. Zararlanish joyida to`qima buziladi, poyalar egiladi, yotib qoladilar yoki sinadilar. Zararlangan poyada ichida zamburug`ning och kulrang miyelliysini topish oson. Kasallangan usimlik sinib ketib yotib koladi. kuchsiz kasallangan bulsa, boshok maydalashib, doni puch buladi. zamburug`ning kata konidiyabandlari ninasimon, ozgina egilgan rangsiz, 4-8 to`siqli, 28-53 mkm uzunlikli konidiyalardan tashkil topgan bo`ladi (rasm 9.4.).

1-topshirik. Tarkatilgan materialdan usimliklardagi (bugdoy, ARPA, javdar) ildiz chirishi kasalligini kuzatib, ularning aloxida xususiyatlarini ayting.

2-topshirik. Oddiy ildiz chirish kuzgatuvchisini preparat yordamida kuzatish. Buning uchun poyaning zararlangan pastki kismidan 1 sm bulakcha kesib olinadi. va uzunasiga 2 bulakka bulinadi. sungra gorelkada yoki 0,5% li kaliypermanganatda dezinfektsiyalanadi va namlik kamerasidaga petri likobchasida (namlangan filtr kogos ustiga) kuyiladi. Petri likopchasi termoatda 5 kun 18-22 S da koldiriladi. 5-6 kunlari analiz kilinganda zamburug`ning spora xosil qilishi kuzatiladi. Mikroskopning kichik va kata ob`ektivlarida sporalari kuzatilib, rasmi chizib olinadi.

FUZARIOZLAR VA GELMINTOSPORIOZLAR. URUG`LARNING «QORA MURTAGI»

Fuzariozlar – boshqoqlilar kasalligi bo`lib, *Fusarium* turkumi (Deuteromycetes sinfi, Acervulales tartibi) zamburug`lari chaqiradi. Fuzariozlarni namoyon bo`lish shakllari

turlicha. Ildizning kasallangan qismining yuzasida qizg`ish-binafsha rangdagi pigmentlar ta`sirida yog`ochlik to`kimasining bo`yalganligini, uning ustida ok rangdagi zamburug` mitseliylari qoplab olganligini ko`rish mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
 - umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
 - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
 - ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
 - davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
 - ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
 - bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
 - ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

4-modda. Bilim olish huquqi

Jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqdar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
 - ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
 - barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
 - oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda Uzbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

6-modda. Ta'lim muassasasining huquqiy maqomi

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasaei yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquklari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmualariga hamda o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqsh.

Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga haqli.

7-modda. Davlat ta'lim standartlari

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasinyng barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

8-modda. Ta'lim berish tili

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

II. TA'LIM TIZIMI VA TURLARI

9-modda. Ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot mshlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'lim soxasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

10-modda. Ta'lim turlari

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
maktabdan tashqari ta'lim.

11-modda. Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qa'tiy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

12-modda. Umumiy o'rta ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

1. boshlang'ich ta'lim (1-1V sinflar);
2. umumiy o'rta ta'lim (1-1X sinflar).

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yotgi yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

13-modda. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

14-modda. Oliy ta'lim

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir,

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

15-modda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari

va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab ko'yiladi.

18-modda. Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lim olish tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

19-modda. Ta'lim to'g'risidagi hujjatlar.

Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiklangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat tomonidan tasdiklangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha ekstern tartibida imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta'lim muassasalarida o'qitilishi shart bo'lgan va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan mutaxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo'yilgan baholar yozilgan varaqa ilova qilinadi.

Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot to'g'risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o'zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisos bo'yicha ishlash huquqini beradi.

III. TA'LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOY HIMOYA QILISH

20-modda. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

21-modda. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish

Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

22-modda. Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish

Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

IV. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

3. ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
 4. ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
 5. ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
 6. ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
 7. ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
 8. boshqa davlatning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
 9. qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
- davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;
10. davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
 11. davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
 12. davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash;
 13. ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;
 14. qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

26-modda. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;
- ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
- o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;
- o'quv va o'quv-uslubiyat adabiyotlarini yaratish va nashr etishni tashkil qilish;

- ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;
- davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlari tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;
- pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari

Maxalliy davlat hokimiyati organlari:

- 1) ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;
- 2) ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;
- 3) o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar;
- 4) ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar;
- 5) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

28-modda. Ta'lim muassasasini boshqarish

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

29-modda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan takdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli.

Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

V. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari

Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqdari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar.

31-modda. Ta'limni moliyalash

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy budjetlar mablag'lari, shuningdek budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

32-modda. Ta'limni rivojlantirish fondlari

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

33-modda. Xalqaro hamkorlik

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

34-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING QARORI

«TA'LIM TO'G'RSIDA» GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNINI AMALGA KIRITISH TARTIBI HAQIDA

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi

QAROR QILADI:

- “Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni e'lon qilingan kundan e'tiboran amalga kiritilsin.
- Belgilab quyilsinki, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning umumiy o'rta ta'lim olishga, uch yillik akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda o'qishga hamda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga taalluqli 12, 13 va 14-moddalaridagi qoidalar Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan muddatlarda joriy etiladi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hukumat qarorlarini «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiqlashtirsin, vazirliklar va idoralar mazkur Qonunga zid bo'lgan o'z normativ hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.
- Belgilab quyilsinki, qonun hujjatlari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiqlashtirilgunga qadar O'zbekiston Respublikasi amaldagi Qonun hujjatlarining mazkur Qonunga zid bo'lmagan qismi qo'llaniladi.
- 1992 yil 2 iyulda Qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 yil, № 9, 342-modda; 1993 yil, № 6, 268-madda) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

O'zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisining Raisi

E. XALILOV

Tashkent shahri, 1997 yil 29 avgust

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT

Bekchanov Muzaffar Xudayberganovich 1986 yil 1 fevralda Sarapoyon qishlog'i, Xonqa tumani, Xorazm vil., O'zbekiston Respublikasida tavallud topgan. 2006 yilda Toshkent Davlat Agrar Universitetining Seleksiya urug'chilik va o'simliklar himoyasi fa'kulteti o'simliklar himoyasi yo'nalishini tugatgan. 2008 yilda mazkur Oliy o'quv yurtining Entomologiya yo'nalishi bo'yicha Magistraturasini tugatgan.

2009-2011 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Zoologiya institutining Entomologiya va arahnologiya bo'limi stajer – tadqiqotchi – izlanuvchisi bo'lgan.

ANNOTASIYA

«Fitopotologiya» fani o`simlik kasalliklarini, kasallik belgilari kelib chiqish sabablari, tarqalishi va rivojlanishi hamda ularga qarshi kurash choralarini to`g`risida bilimlarni beradi. O`simliklarda kasallik kelib chiqish sabablarini har tomonlama o`rgatish, kasallikni oldini olish choralarini tushuntirish hamda ularga qarshi kurash kurash tadbirlarini amalga oshirishini o`rgatishdan iborat.

Talabalar o`simliklarda zamburug`lar, bakteriyalar va viruslar qo`zg`atadigan kasalliklar va ularning tuzilishi, o`simliklar immuniteti, o`simlik kasalliklari rivojlanishi va ko`payishi, qishloq xo`jalik ekinlari kasalliklari rivojlanishini oldini olish usullari haqida tasavvurga ega bo`lishi kerak. Qishloq xo`jalik ekinlarining kasalliklari tashqi belgilari kasalliklarga qarshi kurash choralarini biologik va iqtisodiy samarasini aniqlash usullarini bilishi va qishloq xo`jaligida qo`llay olishi zarur. O`simlik kasalliklari turlarini aniqlash, kasalliklarga qarshi yangi preparatlarni qo`llash kasalliklarga qarshi uyg`unlashgan kurash choralarini ishlab chiqish bo`yicha ko`nikmaga ega bo`lishi kerak.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta`lim islohotlarining hozirgi bosqichidagi muhim vazifalar qatorida quyidagilarni aloxida ko`rsatish lozim:

- ta`lim sifatini oshirish,
- o`quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni kengroq joriy qilish,
- o`quv va uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish.

Oliy ta`lim tizimidagi o`quv jarayoni sifatini ta`minlovchi asosiy omillardan biri – bu o`quv va uslubiy adabiyotlar bilan ta`minlanganlik darajasi, ularning sifati va pedagogik xamda metodik talablarga muvofiqligidir.

Yuqoridagilarni amalga oshirish maqsadida ushbu o`quv uslubiy majmua ishlab chiqildi.

Maskur o`quv uslubiy majmua: 5620200–Agronomiya (yo`nalishi bo`yicha) ta`lim yo`nalishi talabalar uchun 8-semestrda o`qitiladi.

O`quv uslubiy majmua professor-o`qituvchini muayyan fan bo`yicha yaxlit, to`liq va barcha o`quv ishi turlarini qamrab oladigan uslubiy qo`llanmadir. O`quv kursini o`tkazish jarayonida rejali va ongli tarzda yondashuvini ta`minlaydi. O`quv kursi mazmuni va uni o`qitish jarayonini ta`lim standartlariga to`liq muvofiqlashtirishga erishish mumkin. Muayyan fan bo`yicha o`quv-uslubiy adabiyotlar tanqisligi muammosini xal qilishga yordam beradi.

GLOSSARIY

Diagnostika -kasallikning tashqi belgilarni aniqlash.

Etologiya - kasallik sabablarini aniqlash.

Profilaktika - kasallikni oldini olish.

Terapiya - kasallikni davolash.

Xlamidospora -don ichida to`plangan sporalar

Fungistatik modda - Zamburuglarning usishi va kupayishini tuxtatuvchi modda.

Xloroz - Usimlik organlari, asosan barglarida parazit mikroorganizmlar bilan zararlanganida xamda ekinlarga ba'zi element (misol uchun temir, mis, kaliy) yetishmasligida xosil buladigan ok, okish-sargish va sarik doglar.

Ekzotoksinlar - Ayrim mikroorganizm (bakteriya)ning usuv davrida tashki muxitga ajratib chikargan toksin.

Makrokonidiyalar - Ba'zi ikki xil konidiyalar xosil kiluvchi yukori zamburuglar (kupincha Fusarium turkumi namoyandalari) ning ulchami kattarok va kup xujayrali konidyalari (II mikrokonidiya bilan solishtiring).

Aneridiy - Oomitsetlar sinfiga oid tubon zamburuglarining erkaklik jinsiy organi

Askomitsetlar - Jinsiy kupayish xaltacha (ask) lar ichida rivojlanuvchi spora (askospora)lar vositasida amalga oshuvchi mitseliysi kup xujayrali, yukori zamburuglar sinfi

Inkubatsion davr - Kasallikning "yashirin) dpvri-usimlik parazit bilan zararlanishi xamda kasallikning birinchi tashki belgilari paydo bulishi orasida utgan davr.

Planogamiya – ikkita bir xil gameta qo`shiladi natijada harakatlanuvchi xivchinli planozigota yoki tsista hosil bo`ladi. Bu yo`l bilan xitridiomitsetlar sinfiga oid zamburug`lar ko`payadi.

Oogamiya – bu ko`payishda hujayra qo`shiladi (otalik-anteridiy hujayra va urg`ochi ooganiy hujayra).

Zigogamiya – bu ko`payisha morfologik bir xil ikkita mitseliya qo`shiladi natijada zigospora hosil bo`ladi.

Spora - Zamburuglar (odatda vegetativ) kupayish uchun xosil buladigan maxsus mikroskopik xujayra yoki tanaga usib va rivojlanibb yetilgan zamburugga aytiladiyu

Epifitotiya - Usimlik kasalligining bitta xujalikb tumanb viloyat yoki mamlakatda keng tarkalishiyu

Peretesiy - Askomitsetlar sinfiga mansub ba'zi yukori zamburuglarning usimlik tukimalari ichida rivojlanadiganb odatda kuzab nok yoki butilka shakllib jinsiy kupayishiga xizmat kiluvchi meva tanachasi (psevdotesiy bilan solishtiring)yu

Zoosporo - Ba'zi tubon zamburuglarning jinsiz kupayishi uchun xizmat kiladigan xivchinchasi yordamida suvda xarakatlanadigan maxsus xujayra (spora)yu

Zoosporongiy - Ba'zi tubon zamburuglarning ichida zoosporalar xosil buladigan jinssiz kupayish organiyu

Inokulyum - Kasallik kuzgatuvchi mikroorganizmning ekinlarni zararlash va yangi ekinlarga tarkatish uchun xizmat kiluvchi maxsus xujayra va tanachalari (sporab konidiya sklerotsiyb mikrosklerotsiy va xyuzu)

Mitseliy - Zamburuglarning juda mikroskopik uzun iplari (gifarlar) dan iborat vegetativ tanasij rivojlangan paytda oddiy kuzga kurinadigan xolga keladi (misol uchunb barg ustidagi un-mudring katlamlarib xar xil mogorlarb toza muxitdagi koloniyalari va xyuzu)



Oogoniy - Oomitsetlar sinfiga mansub tubon zamburuglarining ichida bir yoki bir nechta tuxum xujayrasi rivojlanadiganb odatda bir xujayrali urgochi jinsiy organiyu



Oomitsetlar - Jinsiy kupayish oogomiya tipida va jinssiz kupayish zoosporalar yordamida amalga oshiriladigan tubon zamburuglar guruxiyu



Osmofil zamburug - Nisbiy nomligi past bulgan muxitda xam yashay oladigan zamburugyu


Pestitsid - Usimliklarni yoki xayvonlarni zararli organizmlardan ximoya kiluvchi kimyoviy yoki biologik modda; uz ichiga insektitsid, akaritsid, fungitsid, gerbitsid va x.z.

TARQATMA MATERIALLAR









REFERAT MAVZULARI

1. Sholining pirikulyarioz kasalligi va unga qarshi kurash choralari.
 2. Kanop kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 3. Dukkakli don ekinlari kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 4. Kungaboqar kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 5. Sabzavot ekinlarini omborxonalarda saqlash jarayonidagi kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 6. Ukrop va petrushka kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 7. Zig'ir kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 8. Kunjut kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 9. Sitrus ekinlari kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 10. Manzarali daraxtlar kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 11. Issiqxonadagi bodring kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 12. Issiqxonadagi pomidor kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari
 13. Sabzi va piyozning saqlash davridagi kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari.
-
14. G'o'za kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari.
 15. Boshqoli don ekinlarining kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari
 16. Bada kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari.
 17. Kartoshka va pomidor kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari
 18. Baqlajon va bolgar qalampiri kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari.
 19. Karam, piyoz va sabzi kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari
 20. Lavlagi kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari
 21. Poliz ekinlarining kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari
 22. Mevali daraxtlarning kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari
 23. Tok va rezavor mevali ekinlarning kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari
 24. Tut kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishi, tashqi belgilari va qo'zg'atuvchilari

Adabiyotlar ro'yhati

1. Peresipkin V.F. Selskoxozyaystvennaya fitopatologiya .M., «Kolos» 1989.
 2. Demenova M. I. "Fitopatologiya" .M., «Kolos» 1977
 3. Popkova K.V. Obhaya fitopatologiya.M.Agropromizdat, 1989.
 3. Cheremsinov N.A. Obhaya patologiya rasteniy. M., Visshaya shkola.1973.
 4. Sheraliev A. Va boshqalar "Qishloq xojalik fitopotologiyasi" Toshkent 2008
 5. Hasanov B. O. Va boshqalar „Sabsavot, kartoshka va poliz ekinlari kasalliklari hamda qarshi kurash“ Toshkent 2009
 6. Vlasov V. I., Larina E. I. "Selxozyastvennaya virusologiya" M., «Kolos» 1987.
 7. Gorlako M. B. „Bakteraleinni balezni rasteniy“ M. 1996
 8. Dospexov B. A. „Metodika polovego opita“ M 1987
 9. Popkova K.V. Obhaya fitopatologiya.M.Agropromizdat, 1989.
 10. Karimov M. A. Bolezniy xlochatnika T., O` qituvchi 1976
 11. Peresipkin V.F. Bolezni zernovii i zernovix kultur. Kiev. «Urojay»198
 12. Xoxryakov M.K. idr. Opredelelitel bolezney rasteniy. M., «Kolos».1966.
 13. O`zbekiston qishloq xo`jaligi, Karantin i zahita rasteniy jurnallari. Cheremsinov N.A. Obhaya patologiya rasteniy. M., Visshaya shkola.1973.
 14. Sattarova R.K .va boshqalar. Umumiy fitopatologiya. (ma`ruza matnlari) T.1999.
 15. Sattarova R.K .va boshqalar. Fitopatologiya. (Uslubiy qo`llanma) T.2002.
 16. A.Sh.Xamraev va boshqalar g`alla va sholini zararkunanda, kasalliklar va begona himoya qilish. T. 1999
- Saytlar:
17. www.toucansolutions.com
 18. www.fi.edu/tfi
 19. www.rcmp-learning.org

Xorijiy manbalar

1. http://www.greeninfo.ru/protection_plants/index.html
2. <http://www.florets.ru/pravila-uhoda/zashita-rastenii.html>
3. <http://kurdyumov.ru/knigi/zaschita/zaschita09.php>
4. <http://www.profermer.ru/zashrast.html>
5. http://myflo.ru/index/zashhita_rastenij_ot_vreditelej_i_boleznej_biologicheskaja_zashhita_rastenij_khimicheskaja_zashhita_rastenij/0-87
6. <http://www.piante.ru/metody-zaschity-rastenii.html>
7. <http://www.agroxxi.ru/gazeta-zashita-rastenii>

Tayanch konspekt

БАҚЛАЖОН КАСАЛЛИКЛАРИ

- Помидорда учрайдиган ниҳол касалликлари, мева қора моғори, ризоктониози ва кулранг чириши, бодринг ва тамаки мозаикаси, стрик, олачипор сўлиш, сарик (столбур) ва мелойдогиноз Ўзбекистон шароитида бақлажоннинг ҳам муҳим касалликлари ҳисобланади. Уларга қарши кураш чоралари ҳам бир хил. Фузариоз ва вертициллёз сўлиш ҳам қайд этилган, бироқ уларнинг бақлажонда тарқалиши ва зарари ўрганилмаган. Бақлажонга хос касалликлардан Ўзбекистонда фомопсис чириш ва халқасимон доғланиш қайд этилган.

ФОМОПСИС ЧИРИШ

- **ФОМОПСИС ЧИРИШ**
- Касалликни *Phomopsis vexans* пикнидали замбуруғи қўзғатади. Бақлажондан бошқа экинлар зарарланмайди. Ўсимликлар уруғ унишидан ҳосил йиғиб олгунча бўлган даврда зарарланади. **Уруғбарг ва ниҳолларнинг илдиз бўғзи** ва поясининг пастки қисмларини замбуруғ ўраб олиб қисиб қўйганда, улар ингичкалашиб, **ўсимлик ётиб қолади ва сўлади**. Баргларда чегаралари аниқ, думалоқ, диаметри 2,5 см гача келадиган, қўнғир, кулранг-қўнғир, тор ва тўқ-қўнғир ҳошияли **доғлар** пайдо бўлади. Кейинроқ уларнинг маркази кулранг тус олиб, устида **концентрик** шаклда жойлашган қора нуқталар – **пикнидалар** ривожланади.
 - Бақлажон вертициллёз сўлишини *Verticillium dahliae* ва *Verticillium albo-atrum* замбуруғлари қўзғатади; бу экин ВВ га жуда чидамсиз. ВВ ўсимлик ўсишининг барча фазаларида намоён бўлиши мумкин, аммо кўчат экилгандан кейинги 6-8 ҳафта ичида кўпроқ учрайди. ВВ нинг 1-нчи белгилари – пастки барглар сарғаяди, янги чиққан новда ва барглар кулранг-яшил тус олади. Вақт ўтиши билан пастки баргларда некрозлар ривожланади, ўсимлик сўлийди ва нобуд бўлади. Ўсимликларнинг ўтказувчи тўқималарида, аста-секин тепа қисмига тарқалувчи қорайиш ривожланади.
 - Кураш чоралари. Янги экин кўчатларини экишдан олдин иссиқхона тупроғини буғ ёки кимёвий усул ёрдамида зарарсизлантириш; ҳар 3-4 ҳафтада 1 марта бирорта бензимидазол фунгициди қўшилган сув билан суғориш тавсия қилинади.

ҚАЛАМПИРНИНГ ВИРУС КАСАЛЛИКЛАРИ

-
- ● Қалампирда бодринг мозаикасини вирус (*Cucumis virus 1*) қўзғатади. Белгилари кўрсатилган.
- ● Қалампирда беда мозаикасини вирус (*Medicago virus 2*) қўзғатади.
- ● Қалампирда тамаки мозаикасини ТМВ (*Nicotiana virus 1*) қўзғатади (7 расм).
- ● Қалампирда картошканинг Y-мозаикасини картошка Y-вируси (*Solanum virus 2*) қўзғатади ● Қалампирда картошканинг X-мозаикасини картошка X-вируси (*Solanum virus 1*) қўзғатади.
- ● Қалампир меваси тепаси чириши мева шаклланиши даврида тупроққа кальций моддаси етишмаслиги сабабли ривожланади.
- Мева тепасида (гул бўлган жойда) олдин қайноқ сувга куйганга ўхшаш, сўнгра оч-қўнғир, қуруқ, қоғозсимон доғлар пайдо бўлади, мева ярмигача чириб кетиши мумкин .
- **САБЗИНИНГ УН-ШУДРИНГ КАСАЛЛИГИ**
-

- Касалликни *Erysiphe umbelliferarum* f. *dauci* ва *Leveillula umbelliferarum* f. *dauci* аскомицет замбуруғлари қўзғатади. Улар сабзидан бошқа ўсимликларни зарарламайди. Ўсимлик барг, барг банди, тўпгуллари ва пояларида оқ, юпқа, майин моғор ривожланади. Кейинчалик моғор устида қора нуқталарга ўхшаш мева таначалари – клейстотецийлар пайдо бўлади. Зарарланган органлар қаттиқ ва мўрт бўлиб, осон синиб кетади. Касаллик Ўзбекистон ва бошқа М. Осиё мамлакатларида тарқалган, зарари кам ва махсус химоя чоралари қўлланмайди.
- Касалликни базидиомицет *Uromyces scirpi* замбуруғи қўзғатади. Ўзбекистонда қайд этилган, аммо тарқалиши ва зарари ўрганилмаган, махсус химоя чоралари қўлланилмайди.
- САБЗИНИНГ ФОМОЗ КАСАЛЛИГИ
- Касалликни пикнидали целомицет замбуруғи *Phoma rostrupii* қўзғатади. Ўсимликларнинг барг, барг томирчалари ва бандларида кулранг-қўнғир чизикчалар ва узунчоқ доғлар пайдо бўлади. Илдизмевалар устида бироз ботиқ, кулранг-қўнғир доғлар, улар остидаги тўқималарда қурук чириш ривожланади (10 расм). Тўқималар тўқ кулранг-қўнғир тус олади, ичи оқ моғор билан тўлган ғоваклар пайдо бўлади.
- САБЗИНИНГ ҚОРА ЧИРИШ КАСАЛЛИГИ
- Касалликни *Alternaria radicina* гифомицет замбуруғи қўзғатади. Касаллик дунёнинг барча мамлакатларида, жумладан Ўзбекистонда ҳам тарқалган. Сабзидан ташқари шивит, кашнич, сельдерей, петрушка ва бошқалар ҳам зарарланади.
- Қўзғатувчининг белгилари. Ўсимлик тўқималарида ҳосил бўлган яшил-қорамтир моғор қатлами замбуруғнинг мицелийси, конидиофоралари ва конидияларидан иборат (11 расм). Гифалар қўп хужайрали, эни 2,5-10 мкм. Конидиофоралар кам шохланган, тўғри ёки буралган, оч-кулранг, оч-қўнғир, тўқ-қўнғир, зайтун ранг-қўнғир ёки тўқ-зайтун рангли, гифалардан кам фарк қилувчи, узунлиги 200 мкм, эни 3-9 мкм. Конидиялар эллипсоид, тўқмоқ, тескари-тўқмоқ, тескари-нок ёки тескари-тухум шаклли, олдин оч-қўнғир, сўнгра тўқ-қўнғир ёки тўқ-зайтун-қўнғир тусли, энига 2-8, бўйига 1-3 тўсиқчали, ўлчами 25-57x9-27 мкм, ўртача 38-19 мкм.
- КАРАМ НИХОЛ КАСАЛЛИКЛАРИ
- Қўзғатувчиларнинг белгилари
- *Plendomus lingam* қўзғатган касалликни илмий адабиётда, замбуруғнинг синонимик номи асосида, “фомоз” деб аташади. Пикнидалар зарарланган тўқималарда гуруҳ-гуруҳ бўлиб ривожланади ва бир-бири билан бирикиб, қорақўтирга ўхшаш структураларни пайдо қилади. Конидиофоралар цилиндр шаклли, рангсиз, узунлиги 8 мкм. Конидия (пикноспора) лар 1 хужайрали, узунчоқ-цилиндр, эллипсоид ёки деярли тухум шаклли, баъзан бироз эгилган, ўлчами 3,5-6x0,8-2 (3) мкм, ичида 2 та ёғ томчиси мавжуд.
- *Rhizoctonia solani* нинг белгилари “Картошка касалликлари” маърузасида келтирилган.
- Ниҳол касалликлари дунёнинг барча минтақаларида, айниқса иссиқхоналарда кенг тарқалган. Ўзбекистон ва қўшни давлатларда бу замбуруғлар (асосан *R. solani* ва *P. lingam*) туфайли кўчатларнинг 50 фоизи ва ундан ҳам кўпроғи чириб кетиши кузатилади.
- Қўзғатувчиларнинг кўпчилиги карамдан ташқари помидор, сабзи, бодринг, лавлаги ва бошқа экинларни ҳам зарарлайди. Касалликка

карамнинг айниқса янги униб чиққан уруғпалла ва ёш ниҳоллари чидамсиз. Зарарланган ниҳоллар сарғаяди, сўлғин бўлиб қолади, поянинг пастки қисми ва илдиз бўғзи қораяди, ингичкалашади, буришади ва чирийди (22 расм). Ниҳоллар заифлашади, йиқилганлари бутунлай чирийди, тупроқдан осон суғурилиб чиқади.

- **Ризоктониоз** карамни бутун ўсув даврида зарарлайди. Зарарланган кўчат далага кўчириб экилгандан сўнг, унинг пастки қисмлари доғлар билан қопланади ва чирийди. Далада намлик мавжуд бўлганида ҳамда омборхоналарда замбуруғ карам бошларига тарқалади ва уларни чиритади (23 расм).
- **Фомоз** билан зарарланган уруғпалла ва ёш ниҳолларнинг баргларида кўнғир доғ ва пикнидалар, илдизларида эса кулранг доғлар (24 расм) ва пикнидалар пайдо бўлади. Зарарланган, аммо фомознинг ташқи белгилари бўлмаган карам бошларининг баргларида омборхонада куруқ, қора доғлар пайдо бўлади, барглар шилимшиқланади, карам ўзагида доғлар, куруқ чириш ва каваклар пайдо бўлади.

• КАРАМНИНГ ФУЗАРИОЗ САРҒАЙИШИ ВА СЎЛИШИ

- Касалликни гифомицет *Fusarium oxysporum f. conglutinans* қўзғатади. *F. oxysporum* замбуруғининг белгилари “Помидор касалликлари” маърузасида келтирилган. Патоген карам ва бошқа бутгулдошлар оиласига мансуб экинларнинг ниҳол ва етилган ўсимликларини зарарлайди. Иссиқхоналарда ниҳоллар, далада ёш ва етилган ўсимликларнинг барглари сарғаяди, доғлар ривожланиб, олачипор тус олади, томирлари қораяди, ўсимликлар ўсишдан орқада қолади, карам боши кичик ва, барглар тўкилиши натижасида, яланғоч бўлиб қолиши кузатилади. Карам навлари замбуруғ ирқлари билан ҳар хил даражада зарарланади. Патогеннинг хламидоспоралари тупроқда 11 йилгача, карам бошида омборхоналарда кейинги мавсумгача сақланади. Тупроқда калий етишмаслиги фузариозни кучайтиради.

• КАРАМНИНГ

• СОХТА УН-ШУДРИНГ КАСАЛЛИГИ

- Ўзбекистонда сохта ун-шудринг иссиқхоналар ва очик далаларда тарқалган.
- Зарарланган уруғдан ўсиб чиққан уруғпалланинг тўқималари ичида диффуз мицелий ривожланади, уруғпалла бутунлай моғор билан қопланади ва нобуд бўлади.
- Зарарланган поя ва уруғлик кўзоқларида деярли қора доғлар ва озрок моғор пайдо бўлади. Кўзоқларда зарарланган, хира тусли ва яхши тўлиб етилмаган уруғлар ҳосил бўлади.

• КАРАМНИНГ АЛЬТЕРНАРИОЗ

• ҚОРА ДОҒЛАНИШ КАСАЛЛИГИ

- Патоген экин ичида конидиялари билан тарқалади ва иккиламчи зарарланишларни таъминлайди. Бунинг учун ёмғирли об-ҳаво, 80-100% нисбий намлик ва 20-25°C ҳарорат оптимал шароит ҳисобланади. Карам рапс гулхўри, кўк бурга ва яширинхартумли кўнғиз каби хашаротлар билан зарарланиши альтернариозни кучайтиради.
- Омборхоналарда доғларнинг ривожланиши кучаяди ва улар орқали карам бошлари юмшоқ чириш бактериялари билан зарарланади.
- **ПИЁЗНИНГ СОХТА УН-ШУДРИНГ КАСАЛЛИГИ**

- Касал ўсимликнинг барглари оч-яшил, сўнгра сарғиш тус олади, устида олдин оқ, кейин кулранг-бинафша тус олувчи юпқа моғор қатлами ҳосил бўлади; деярли ҳамиша патогеннинг моғори устида қора моғор ҳосил қилувчи иккиламчи сапротроф замбуруғлар ривожланади. Зарарланган барглари сарғаяди ва сўлади, ўқбарглари синади. Диффуз зарарланган ўсимликларда кўплаб споралар ривожланади, улар шамол билан тарқалади ва шабнам ёки ёмғир томчилари мавжудлигида соғлом экинларни зарарлайди. Ўсув даврида патоген 7 тагача авлод беради.
- **ЛАВЛАГИ НИҲОЛЛАРИ ИЛДИЗИ ЕМИРИЛИШИ**
- Оғир тупроққа сифатсиз, калибрланмаган, фунгицид билан дориланмаган уруғни экиш, қатқалоқ, ҳароратнинг кескин ўзгаришлари, ҳаво паст ва нам келиши заиф, нимжон ниҳоллар олиниши ва улар илдиз емирилишига ўта чидамсиз бўлишига олиб келади.
- Намлик шароитида зарарланган илдизлар *пўшти-оқ (Fusarium spp.)*, *кўнғир (R. solani)*, оқ (*P. debaryanum*) мицелий, ёки қора нуқталар шаклидаги пикнидалар (*P. betae*) билан қопланади.
- **ЛАВЛАГИ НИҲОЛЛАРИ ИЛДИЗИ**
- **ЕМИРИЛИШИГА ҚАРШИ КУРАШ ЧОРАЛАРИ**
- ● Чидамли навлар яратиш ва қўллаш;
- ● Алмашлаб экиш (ўша далага лавлагини 4-5 йилдан кейин қайтариш мумкин);
- ● Олдинги йиллари кузги ғалла ва дуккакли экинлар экилса, тупроқ кўзғатувчилардан яхши тозаланади);
- ● Ўсимлик қолдиқларини йўқотиш; чуқур кузги шудгор;
- ● Баҳорда тупроқни сифатли тайёрлаш;
- ● Нордон тупроқларни оҳаклаш;
- ● Тупроққа гўнг ва элементлар баланси сақланган NPK ўғитлари ҳамда таркибида бор элементи бўлган суперфосфат (120-150 кг/га) ёки бор кислотасининг эритмасини (250-300 г/га, суюқлик меъёри 400-500 л/га) солиш;

Baholash mezonlari

Fitopotologiya fanidan baholash

MEZONLARI

Maksimal ball - 100

saralash ball - 55

№	Nazorat turlari	Soni	Ball	Jami ball
1	J.B			
	1.1. Amaliy mashg'ulotlarni bajarish	38	0,9	35
	1.2. TMI – yozma referat tayyorlash	1	5	5
2	O.B. 2.1. Yozma ish (3 ta savol)	1	30 (10x3=30)	30
3	Ya.B 3.1. Yozma ish (3 ta savol)	1	30 (10x3=30)	30
Jami				100

Joriy nazorat 40 ball

Maksimal 40 ball

Saralash ball 22

Baxo	Foiz (%)	Ball
qoniqarsiz	0-54	0-21
qoniqarli	55-70	22-28
yaxshi	71-85	29-34
a'lo	86-100	35-40

Oraliq nazorat 30 ball

Maksimal 30 ball

Saralash 17 ball

Baxo	Foiz (%)	Ball
qoniqarsiz	0-54	0-16
qoniqarli	55-70	17-21
yaxshi	71-85	22-25
a'lo	86-100	26-30

JN+ON

Maksimal 70 ball

Saralash 39 ball

Baxo	Foiz (%)	Ball
qoniqarsiz	0-54	0-38
qoniqarli	55-70	39-49
yaxshi	71-85	50-60
a'lo	86-100	61-70

Yakuniy nazorat 30 ball

Maksimal 30 ball

Saralash 17 ball

Baxo	Foiz (%)	Ball
qoniqarsiz	0-54	0-16

qoniqarli	55-70	17-21
yaxshi	71-85	22 - 25
a'lo	86-100	26-30

7. Fanlar bo'yicha talabalar bilimni baholashda quyidagi namunaviy mezonlarni inobatga olish tavsiya etiladi

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasini ifodalovchi holatlar
(86-100)	A'lo	O'tilgan mavzular bo'yicha to'liq va yetarli darajada nazariy hamda amaliy bilimlarga ega ekanligini namoyish eta olish; Muhim topshiriq va masalalar bo'yicha to'g'ri xulosa va qarorlar qabul qilish; Muammolarni hal etishga ijodiy yondasha olish; Mustaqil fikrlashi va mushohada yurtish; Fanning mohiyatini aniqlash, tushunishi orqali uning asosiy qoidalarini to'liq bayon eta olish; Agar talaba ob'ektga to'liq tarif bera olsa.
(71-85)	Yaxshi	O'tilgan mavzular bo'yicha deyarli to'liq darajada nazariy hamda amaliy bilimlarga ega ekanligini namoyish eta olishi; Muhim topshiriq va masalalar bo'yicha malum darajada xulosa va qarorlar qabul qilishi; Mustaqil fikrlash va mushohada yuritishga harakat qilishi; Fanning mohiyatini aniq tushuntirish orqali uning asosiy qoidalarini ma'lum darajada bayon eta olishi va hakoza.
(55-70)	Qoniqarli	O'tilgan mavzular bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni qisman o'zlashtirishi; Muhim topshiriq hamda masalalar bo'yicha qabul qilingan xulosa va qarorlarning to'liq, aniq emasligi; Fanning mohiyatini tushunish orqali uning asosiy qoidalarini qisman bayon etishi va hakoza.
(0-54)	Qoniqarsiz	O'tilgan mavzular bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishning past darajasi; Muhim topshiriq va masalalar bo'yicha qabul qilingan xulosa va qarorlarni qabul qila olmasligi; Fanning mohiyatini tushunmasligi hamda uning asosiy qoidalarini bayon eta olmasligi va hakoza.

Joriy baholash (J.B)

Joriy baholash fanning har bir amaliy mashg'ulot darsida amalga oshiriladi va talabaning bilim darajasi aniqlab boriladi. U odatda talabaning bilim darajasini eng avvalo uning auditoriyadagi yani dars o'qish jarayonidagi faolligi, o'tilgan mavzularni o'zlashtirish darajasini belgilab berib u quyidagi holatlar orqali namoyon bo'ladi:

- Berilgan savollarga og'zaki javob berish;

- Berilgan topshiriqlarni bajarish va ularga yozma bayon tayyorlash;

Joriy baholashda talabalarning bilimi 40 ball hisobida baholanadi.

Joriy baholash quyidagicha o'tkaziladi

A. Berilgan vazifani yozma shaklda bayon qilish – 20 ball.

B. Berilgan vazifani maqsadidan kelib chiqib savollarga javob berish – 10ball.

C. Talabaning faolligi va o'z ustida ishlashi – 5 ball.

D. Berilgan topshiriqlarga estetik did bilan yondashish – 5 ball.

Oraliq baholash (O.B)

Oraliq nazoratni baholashda talabalarning bilimi 30 ball hisobida baholanadi.

Oraliq nazoratni baholash 30 ballni tashkil etib, odatda o`quv semestrining oraliq nazorat belgilangan kunigacha shu fandan o`tilgan mavzulari bo`yicha talaba o`zlashtirgan bilimni baholash maqsadida o`tkaziladi. U yozma ish shaklida o`tkaziladi.

Oraliq baholashda talabalarga tayanch tushunchalariga asoslangan 3 ta umumiy savol beriladi.

Berilgan topshiriqni bajarish yozma shaklda to`liq bayon qilish - 30 ball.

Har bir umumiy savol 10 ball dan baholanadi.

Har bir savol quyidagicha baholanadi.

1) talaba savolga javob bera olmasa 0 ball.

2) talaba savolni qisman yoritgan bo`lsa 4,5 ball.

3) talaba savolni to`liq yoritgan bo`lsa va misollar bilan tushuntirib yozgan bo`lsa 10 ball

Yakuniy baholash (YaB)

Yakuniy baholash 30 ballni tashkil etib odatda o`quv semestrining oxirida fanning o`tilgan barcha mavzulari bo`yicha talaba o`zlashtirgan bilimni baholash maqsadida o`tkaziladi. U yozma ish yoki test shaklida o`tkazilishi mumkin.

Yakuniy baholashda talabalarga tayanch tushunchalariga asoslangan 2 ta umumiy savol va 10 ta test savollari beriladi.

Har bir umumiy savol 10 ball dan, test savollari esa har bir test savoliga 1 balldan jami 10 ta test savoli 10 ball bilan baholanadi.

A) Har bir savolga – 10 ball.

1) talaba savollarga javob bera olmasa 0 ball.

2) talaba savolni qisman yoritgan bo`lsa 4,5 ball.

3) talaba savollarni to`liq yoritgan bo`lsa va misollar bilan tushuntirib yozgan bo`lsa 10 ball.

B) Test savollariga -10 ball.

Talabalarga 10 ta test savoli beriladi. Bunda talabaga har bir to`g`ri javob uchun 1 ball qo`yiladi. Agar talaba test savollariga umuman javob bera olmasa ball qo`yilmaydi.